ADABIYOTLAR SHARXI. Oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda keng yoritib kelinmoqda. Ilgarigi tadqiqotlarda asosan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozoriga moslashuvi, ularning ish bilan ta’minlanish darajasi hamda ta’lim mazmuni bilan iqtisodiyot ehtiyojlari o‘rtasidagi muvofiqlik masalalari o‘rganilgan.[1] Xalqaro tadqiqotlarda bitiruvchilarning ishga joylashish muddati, ish joyi va olingan mutaxassislik o‘rtasidagi moslik, shuningdek, kasbiy kompetensiyalarning mehnat bozori talablariga javob berish darajasiga alohida e’tibor qaratilgan. [2]

Ayrim tadqiqotlarda ta’lim tizimida amaliy ko‘nikmalarning yetarli emasligi bitiruvchilar bandligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan.[3] Shu bilan birga, dual ta’lim, ish beruvchilar bilan hamkorlik, ishlab chiqarish amaliyotining kuchaytirilishi mehnat bozoriga kirish jarayonini yengillashtiruvchi omil sifatida baholangan biroq tizimli intgratsiya jarayonlar yetarlicha emas.[4]

ISSN 3030-3907

Chet ellik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi nomutanosiblik “skills gap” — ya’ni korxona raqamli texnologiyalar, IT, avtomatlashtirilgan uskunalar bilan ishlay oladigan mutaxassis qidiradi. Ammo bitiruvchida faqat nazariy bilim bor, amaliyot ko‘nikmalari yetishmaydi.[5] Ularning fikricha, ta’lim dasturlari bozor ehtiyojlariga yetarlicha mos kelmagan sharoitda bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanish darajasi pasayadi. Shu bois, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim va ish beruvchilar ishtirokida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish samarali mexanizm sifatida ko‘rsatiladi.[6]

Mahalliy olimlar esa O‘zbekiston sharoitida oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining ahamiyatini ta’kidlaydilar.[7] Ularning qarashlariga ko‘ra, hududiy iqtisodiyot ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash bitiruvchilarning barqaror bandligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.[8]

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiya masalalari milliy va xalqaro darajada yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, **Andijon viloyati misolida** bitiruvchilar bandligini ta’minlash mexanizmlarini kompleks tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqotlar cheklangan. Mavjud ishlar asosan umumiy statistik ma’lumotlarga tayanadi, hududiy mehnat bozorining tarkibiy xususiyatlari hamda ta’lim dasturlari bilan ish beruvchilar talabi o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarlicha ochib berilmagan.[9]

Shu sababli, mazkur maqolada Andijon viloyati sharoitida oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiya samaradorligini baholash, bitiruvchilar bandligini ta’minlashga ta’sir etuvchi omillarni hududiy kesimda tahlil qilish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish maqsad qilingan.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqot oliy ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, shuningdek, Andijon viloyati misolida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta’minlash mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida tahlil usuli qo‘llanilib, Andijon viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari tomonidan tayyorlanayotgan mutaxassislar tarkibi, ularning mutaxassislik yo‘nalishlari hamda hududiy mehnat bozorida mavjud bo‘lgan kadrlar ehtiyoji o‘rtasidagi mutanosiblik darajasi o‘rganildi. Mazkur tahlil orqali iqtisodiyot tarmoqlari kesimida bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi va “**skills gap”** holatlari aniqlandi.[10]

Tadqiqotning **ikkinchi** bosqichida statistik usullar asosida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik

ISSN 3030-3907

organlarining rasmiy ma’lumotlari qayta ishlandi. Xususan, 2022–2024 yillar davomida Andijon viloyatida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari soni, ularning ishga joylashish darajasi hamda ishsiz qolgan bitiruvchilar ulushi tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida hududda bitiruvchilar bandligi ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasi kuzatilayotgani, biroq mehnat bozori talablariga mos amaliy ko‘nikmalar yetishmasligi saqlanib qolayotgani aniqlandi.[11]

Uchinchi bosqichda solishtirish usuli yordamida Andijon viloyati bitiruvchilarining bandlik ko‘rsatkichlari respublika o‘rtacha ko‘rsatkichlari hamda xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslandi. Solishtirma tahlil natijalari oliy ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi samaradorligini oshirishda dual ta’lim, ish beruvchilar ishtirokida o‘quv dasturlarini shakllantirish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limning ahamiyati yuqori ekanini ko‘rsatdi.[12]

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida sotsiologik so‘rovnoma usuli qo‘llanilib, Andijon viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari, talabalar hamda ish beruvchilar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalari asosida ish beruvchilar tomonidan eng ko‘p talab qilinayotgan kasbiy va universal ko‘nikmalar, bitiruvchilarning amaliy tayyorgarlik darajasi hamda ta’lim jarayonining mehnat bozori talablariga moslik darajasi baholandi. Ushbu usul tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.[13]

Shuningdek, tadqiqot doirasida kontent-tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanilib, oliy ta’lim va bandlik sohasiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va strategik konsepsiyalar o‘rganildi. Ushbu yondashuvlar orqali tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi ta’minlanib, amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot doirasida Andijon viloyatida joylashgan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozoriga kirish jarayoni va ularning bandlik holati tahlil qilindi. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasining tahliliy ma’lumotlariga ko‘ra, 2022–2025 yillar davomida Andijon viloyati oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan bitiruvchilarning o‘rtacha **70–72 foizi** doimiy yoki vaqtinchalik ish bilan ta’minlangan.[14]

Shu bilan birga, bitiruvchilarning taxminan **20–25 foizi** o‘z mutaxassisligiga to‘liq mos kelmaydigan sohalarda faoliyat yuritayotgani aniqlandi. Bu holat oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlar tarkibi bilan hududiy mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasida muayyan nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

1-jadval


2022-2025-yy Andijon viloyatida oliy ta’lim bitiruvchilarining bandlik holati bo‘yicha tahliliy ma’lumot

Ko‘rsatkichlar	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.
Bitiruvchilar soni (ming nafar)	5,8	11,4	12,7	15,6
Ish bilan ta’minlanganlar (%)	68,0	69,5	72,4	79,2
Mutaxassisligiga mos ishlayotganlar (%)	41,3	43,7	46,2	48,2
Ishsizlar (%)	32,0	30,5	14,0	20,8

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bitiruvchilar bandligi yillar kesimida o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lsa-da, mutaxassislikka to‘liq mos ish bilan ta’minlanish darajasi nisbatan past qolmoqda.[15]

2022–2025 yillarda bitiruvchilar bandligining o‘sish dinamikasi ustun diagramma orqali ifodalanganda, har bir yilda ijobiy o‘sish mavjudligi kuzatiladi, ammo mehnat bozori talabiga mos kadrlar ulushi umumiy bandlikdan orqada qolmoqda.

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Andijon viloyatida oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasida muayyan integratsiya jarayonlari shakllanib bormoqda. Xususan, ish beruvchilar bilan hamkorlikda tashkil etilgan amaliyotlar, qisqa muddatli kasbiy kurslar va mehnat yarmarkalari bitiruvchilar bandligini oshirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.[16]



1-rasm. 2022–2025 yillarda bitiruvchilar bandligining o‘sish dinamikasi

ISSN 3030-3907

Biroq, tahlil natijalari ta’lim dasturlarining mazmuni va ish beruvchilar talablari o‘rtasidagi farq hali to‘liq bartaraf etilmaganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, iqtisodiyotning sanoat, xizmat ko‘rsatish va raqamli texnologiyalar sohalarida amaliy ko‘nikmalarga bo‘lgan talab yuqori bo‘lib, bu yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlashni kuchaytirish zarurati mavjud.[17]

HULOSA VA TAKLIFLAR. Mazkur tadqiqot doirasida Andijon viloyati misolida oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari hamda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bandlik holati tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda bitiruvchilar bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ijobiy samara bermoqda, xususan, ish bilan ta’minlangan bitiruvchilar ulushida barqaror o‘sish kuzatilmoqda. Biroq, bitiruvchilarning mutaxassisligiga to‘liq mos ish o‘rinlariga joylashish darajasi hali ham yetarli emasligi ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o‘rtasida muayyan nomutanosiblik saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlar tarkibi va hududiy mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqladi. Ayniqsa, amaliy ko‘nikmalar, zamonaviy kompetensiyalar va ish beruvchilar talablariga mos bilimlarni shakllantirish bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, dual ta’lim, ishlab chiqarish amaliyoti va ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlari bitiruvchilarning tez va samarali ishga joylashishida muhim rol o‘ynashi aniqlandi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, Andijon viloyatida oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiyani yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi **takliflar** ilgari suriladi:

- oliy ta’lim muassasalari o‘quv reja va dasturlarini hududiy mehnat bozori ehtiyojlari asosida muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqish;
- ish beruvchilar ishtirokida dual ta’lim va amaliy tayyorgarlik tizimini keng joriy etish;
- bitiruvchilar uchun maqsadli stajirovka, kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish;
- bitiruvchilar bandligini ta’minlash bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari va mahalliy bandlik organlari o‘rtasidagi hamkorlikni institutsional darajada mustahkamlash;
- bitiruvchilar bandligi monitoringi va tahlilini amalga oshiradigan yagona hududiy axborot tizimini shakllantirish.

Mazkur takliflarni amalga oshirish Andijon viloyatida oliy ta’lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga moslashuvini yaxshilashga, ularning barqaror

ISSN 3030-3907

bandligini ta’minlashga hamda hudud iqtisodiyotining kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Teichler U. *Higher Education and the World of Work*. Rotterdam: Sense Publishers, 2015.
2. OECD. *Education at a Glance*. Paris: OECD Publishing, 2023.
3. McGuinness S., Pouliakas K. *Skills mismatch and labour market outcomes*. ILO, 2018.
4. European Commission. *Work-based learning and dual education systems*. Brussels, 2020.
5. World Economic Forum. *The Global Skills Gap Report*. Geneva, 2022.
6. Yorke M. *Employability in Higher Education*. Higher Education Academy, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’limni mehnat bozori bilan integratsiya qilishga oid nutq va qarorlari.
8. Abdurahmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
9. Davlat statistika qo‘mitasi va KBBV hududiy ma’lumotlari asosida muallif tahlili.
10. OECD. *Skills Strategy Implementation Guidance for Employers*. – Paris: OECD Publishing, 2022.
11. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Andijon viloyati mehnat bozori ko‘rsatkichlari*. – Toshkent, 2022–2024 yy.
12. World Bank. *Linking Education Systems and Labor Markets*. – Washington, DC, 2021.
13. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. *Bitiruvchilar bandligi bo‘yicha tahliliy hisobot*. – Toshkent, 2024.
14. Andijon viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ma’lumotlari, 2024 y.
15. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Bandlik ko‘rsatkichlari*, 2022–2024 yy.
16. OECD. *Graduate Employment and Skills Matching*. Paris, 2023.
17. World Economic Forum. *Future of Jobs Report*. Geneva, 2023.
18. Abdurahmonov Q.X. *Mehnat bozori va bandlik iqtisodiyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.

ISSN 3030-3907

GIDROTERMAL KARBONIZATSIYA TEXNOLOGIYASIGA QO‘LLASH UCHUN OZIQ-OVQAT CHIQINDILARINING TARKIBIY, FIZIK-KIMYOVIY VA ENERGETIK XOSSALARINI O‘RGANISH

Karimov Islom Ismat o‘g‘li
“TIQXMMI” Milliy Tadqiqot Universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ikarimov.ilm@gmail.com
Abdug‘aniyev Nurislom Nuritdin o‘g‘li
“TIQXMMI” Milliy Tadqiqot Universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada maishiy chiqindilarning 52% gacha qismini tashkil etuvchi oziq-ovqat chiqindilarini gidrotermal karbonizatsiya (HTC) orqali qayta ishlash masalasi va uning ekologik dolzarbligi tadqiq etilgan. Tadqiqotda Toshkent shahar chiqindilarining tarkibiy-uglevodli va proksimat tahlil uslubiyatidan foydalanilib, ularning energetik salohiyati baholangan. Natijalar oziq-ovqat chiqindilarining yuqori issiqlik sig‘imiga (23.18 MJ/kg) ega ekanligini va sub-bitumli ko‘mirga muqobil sifatli bio-yoqilg‘i manbai bo‘la olishini ko‘rsatdi. Muallifning ilmiy-amaliy hissasi mahalliy chiqindilar asosida energiya-zich bioko‘mir ishlab chiqarishning texnik imkoniyatlarini asoslash va qayta tiklanuvchi energiya manbalari bazasini kengaytirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Maishiy qattiq chiqindilar, chiqindilar morfologiyasi, oziq-ovqat chiqindilarini valorizatsiya qilish, gidrotermal karbonizatsiya, bio-ko‘mir, gidrochar, fizik-kimyoviy tavsiflash.

Аннотация. В статье рассматривается проблема эффективной утилизации пищевых отходов в Ташкенте, актуальность которой обусловлена их доминирующей долей (до 52%) в составе твердых бытовых отходов. Методология исследования включает структурно-углеводный и технический анализы для оценки потенциала технологии гидротермальной карбонизации. Результаты подтвердили высокую теплотворную способность сырья (23,18 МДж/кг), сопоставимую с характеристиками суббитуминозного угля. Научный и практический вклад автора заключается в комплексном обосновании пригодности местных органических отходов для производства высококачественного биоугля, что открывает новые возможности для термохимической валоризации.

Ключевые слова: Муниципальные твердые отходы, морфология отходов, валоризация пищевых отходов, гидротермальная карбонизация, биоуголь, физико-химическая характеристика.

Abstract. This study addresses the critical issue of food waste management in Tashkent, highlighting its urgency as food waste accounts for up to 52% of municipal solid waste. Utilizing integrated structural carbohydrate and proximate

ISSN 3030-3907

analysis methodologies, the research evaluates hydrothermal carbonization as a viable thermochemical valorization pathway. The findings demonstrate a high heating value (23.18 MJ/kg) and a balanced lignocellulosic matrix, positioning food waste as a competitive feedstock for bio-coal production comparable to sub-bituminous coal. The author's scientific and practical contribution lies in providing a comprehensive characterization of local waste streams, establishing a framework for sustainable solid bio-fuel generation.

Keywords: municipal solid waste, waste morphology, food waste valorisation, hydrothermal carbonization, bio-coal, hydrochar, physico-chemical characterization**.**

KIRISH

Aholisi 33 milliondan ortiq bo‘lgan O‘zbekiston Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlariga qaraganda ancha ko‘p miqdorda maishiy chiqindilarni hosil qiladi. Bu ko‘rsatkich yiliga taxminan 35 million m^3 ga yetadi. Shu bilan birga, har yili 100 million tonnadan ortiq sanoat va maishiy chiqindilar poligonlarga joylashtiriladi [1]. Faqatgina Toshkent shahrining o‘zida 2020 va 2024-yillar oralig‘ida kunlik chiqindi hosil bo‘lishi 1500 dan 2100 tonnagacha yetgan bo‘lib, Ohangaron va To‘labek kabi yirik poligonlariga chiqindilar oqimini sezilarli oshirgan [2]. Jadal urbanizatsiya, turmush tarzining o‘zgarishi va qishloq aholisining shaharlarga ko‘chishi mavjud chiqindilarni utilizatsiya qilish infratuzilmasiga bo‘lgan yuklamani yanada kuchaytirmoqda. Bu esa, chiqindilarni qayta ishlash orqali ulardan foydali mahsulotlar olishning barqaror usullarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda maishiy chiqindilarining katta qismi organik xarakterga ega ekanligini hisobga olgan holda [3], [1], oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi chiqindilarini gidrotermal karbonizatsiya jarayoni orqali yuqori qiymatli bioko‘mirga aylantirish istiqbolli mahalliy strategiya hisoblanadi [1].

Global miqyosda maishiy chiqindilar hosil bo‘lish hajmi 2016-yilda taxminan 2,01 milliard tonnaga yetgan bo‘lib, 2050-yilga borib bu ko‘rsatkich 3,4 milliard tonnagacha oshishi prognoz qilinmoqda [1], [4]. Dunyo bo‘yicha chiqindilarning qariyb uchdan bir qismi hanuzgacha, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, ochiq poligonlarda joylashtiriladi. Ularni qayta ishlash darajasi esa atigi 5% atrofida bo‘lib qolmoqda. Bu holat atrof-muhit va jamoat salomatligi uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Maishiy chiqindilar tarkibidagi organik fraksiyaning yuqori ulushi (rivojlanayotgan mamlakatlarda ko‘pincha 50% dan ortiq) — poligonlarda CH_4, CO_2, H_2S va NH_3 kabi zararli gazlarning ajralib chiqishiga sabab bo‘ladi [5]. Bu gazlar iqlim o‘zgarishiga hamda ekotizimlarning degradatsiyasiga hissa qo‘shadi [4].

ISSN 3030-3907

Dunyo miqyosida aholining barqaror o‘sishi va sanoatning uzluksiz kengayishi energiyaga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Bu esa, barqaror energiya manbalarini izlashni jadallashtirmoqda [6]. Shu bilan birga, har yili hosil bo‘ladigan ulkan hajmdagi organik chiqindilarni boshqarish masalasi ham jahon miqyosida dolzarb muammoga aylanmoqda [5]. Maishiy chiqindilarning muhim qismini tashkil etuvchi oziq-ovqat chiqindilari yuqori namlik darajasi tufayli qayta ishlash uchun murakkab xomashyo hisoblanadi. Ularning namligi qayta ishlanmagan holatda odatda 70% dan 90% gacha yetadi [7], [8]. Bunday yuqori namlik an’anaviy termik konversiya usullarini (masalan, piroliz yoki yoqish) samarasiz qiladi. Chunki ular oldindan energiya sarfi yuqori va qimmat bo‘lgan quritish bosqichini talab etadi [3], [9]. Mazkur tadqiqotning maqsadi maishiy va qishloq xo‘jaligi chiqindilarining fizik-kimyoviy xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish, hamda, ularni gidrotermal karbonizatsiya texnologiyasida qo‘llash imkoniyatlarini baholashdan iborat.

METODOLOGIYA

Maishiy chiqindilarning morfologiyasini o‘rganish uslublari

Chiqindi tarkibi maishiy chiqindi turlarining umumiy chiqindi massasidagi ulushi yoki og‘irlik foizi sifatida izohlanadi [10]. Chiqindi turlari va ularning maishiy chiqindilar tarkibidagi ulushini aniqlash maqsadida Toshkent shahrining ikki tumanida tadqiqotlar olib borildi. Namuna yig‘ish uchun ikkita chiqindi yig‘ish punkti tanlab olindi. Amerika Sinov va Materiallar Jamiyati (ASTM) D 5231-92 standartiga ko‘ra, maishiy chiqindilar xususiyatlarini to‘liq ifodalash uchun saralanadigan namunaning og‘irligi 91–136 kg oralig‘ida bo‘lishi talab etiladi [10]. Shu sababli, mazkur tadqiqotda har bir chiqindi yig‘ish punktidan 100 kg chiqindi namunalari ajratib olindi. Namunalar konteynerlardan maxsus qoplarga solinib, tarozi yordamida og‘irligi o‘lchandi. ASTM talablari asosida toza va tekis maydon tayyorlanib, chiqindi qoplari bo‘shatildi. Chiqindilar bir tekisda taqsimlanishi uchun chiqindilar plastik qoplardan chiqarildi. So‘ngra ochilgan chiqindi uyumi belkurak yordamida to‘rt tomondan yaxshilab aralashtirildi. So‘ngra, choraklash (quartering) usuli qo‘llanildi: aralashtirilgan chiqindi uyumi teng to‘rt qismga bo‘lindi va diagonal joylashgan ikkita qism chiqarib tashlandi. Qolgan ikkita qism saralash bosqichiga yo‘naltirildi.

Saralash bosqichida namuna yana bir bor belkurak yordamida aralashtirildi va ajratish jarayoni amalga oshirildi. ASTM D 5231-92 chiqindi tarkibini qayd qilish formasiga ko‘ra, yettita asosiy chiqindi turi ajratildi: qog‘oz, plastik, oziq-ovqat chiqindilari, metallar, shisha, tekstil va boshqalar [10]. Dastlab, chiqindi aralashmasida eng ko‘p uchraydigan plastiklar ajratib olindi. Shundan so‘ng mos ravishda qog‘oz, tekstil, shisha va metallar saralab olindi. Yakuniy bosqichda oziq-

ISSN 3030-3907

ovqat chiqindilari va boshqa turdagi chiqindilar ajratildi. Saralangan chiqindi fraksiyalari tegishli yorliqlar bilan belgilangan yettita maxsus plastik qoplarga joylashtirildi va har bir fraksiyaning og‘irligi tarozi yordamida aniqlandi. Natijalar chiqindi tarkibi tarkibini qayd qilish formasiga yozildi. Keyingi laboratoriya tahlillari uchun har bir fraksiyadan 1 kg dan namuna ajratib olindi.

Namunalarni laboratoriya tahlillari uchun tayyorlash

Oziq-ovqat chiqindi namunalari Toshkent shahridagi chiqindi yig‘ish punktlaridan olindi va keyingi tahlillar uchun tayyorlandi. Dastlab, namunalar kalibrlangan elektron tarozida tortildi. Shundan so‘ng, qoldiq namlikni yo‘qotish uchun elektr termostatli quritish shkafida (model: GZX–9140 MBE) 105 °C haroratda 4 soat davomida quritildi. Natijada namlik miqdori 10,3% gacha tushirildi. Namunalar xona haroratida sovutildi va yakuniy quruq massani aniqlash uchun elektron tarozida qayta o‘lchandi. Oziq-ovqat chiqindi namunalari universal maydalagich (model: oziq-ovqat-100) yordamida maydalandi. Maydalangan materiallar vibratsion elak qurilmasi (model: Retsch AS 200) yordamida 1 mm va 0,15 mm o‘lchamli elaklardan o‘tkazildi. Natijada, zarrachalar uchta fraksiyaga ajratildi: 1 mm dan kichik, 0,15–1 mm oralig‘ida va 0,15 mm dan katta fraksiyalar. Ushbu o‘lchamlar [11], [12], [13] larning ilmiy ishlari asosida tanlandi. Elakdan o‘tgan fraksiyalar keyingi laboratoriya tahlillari uchun yorliqlangan plastik idishlarga joylashtirildi.

Texnik, elementar va yuqori yonish issiqligi tahlillari

2-jadvalda oziq-ovqat chiqindi namunalari uchun qo‘llanilgan texnik tahlil protokoli ko‘rsatilgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, namlik miqdori chiqindi namunasini quritish shkafida doimiy massa hosil bo‘lguncha saqlash natijasidagi massa yo‘qotilishi asosida aniqlandi va ASTM D-3173 standartiga muvofiq hisoblandi. Uchuvchan moddalar miqdori ASTM D3175 standarti asosida 1,0 ± 0,1 g namunani mufel pechida (model: SX2-5-13E) 950 °C haroratda 7 daqiqa davomida saqlash orqali aniqlandi. Kul miqdori ASTM D3174 standarti bo‘yicha 1,0 ± 0,1 g namunani mufel pechida 750 °C haroratda 4 soat davomida to‘liq yoqish orqali o‘lchandi. Sobit uglerod (fixed carbon) miqdori esa 2-jadvalda keltirilgan formula bo‘yicha hisoblab topildi.

2-jadval.

Texnik tahlilni o‘tkazish tartibi

Jarayon	**Foydalanilgan qurilmalar**	**Jarayon asosiy parametrlari**	**Formulalar**
Namlik miqdori	GZX – 9140 MBE	105°C haroratda 4 soat	$\%\text{NM} = \frac{(W_{nam} - W_{quruq})}{W_{nam}}$

ISSN 3030-3907

Uchuvchan moddalar miqdori	SX2-5-13E Mufel pechi	950°C haroratda 7 daqiqa (ASTM D3175 ga ko‘ra)	$\%UM = \frac{(W_{namuna} - W_{kul})}{W_{namuna}}$
Kul miqdori		750°C haroratda 4 soat (ASTM D3174 ga ko‘ra)	$\%Kul = \frac{(W_{namuna} - W_{kul})}{W_{namuna}} * 100$
Sobit uglerod miqdori	Formula orqali	$\%SU = 100(\%namlik + \%uchuvchan\ modda + \%kul)$	


Oziq-ovqat chiqindilarining yuqori yonish issiqligi (HHV) va past yonish issiqligi (LHV) IKA C5000 bomba kalorimetri yordamida aniqlandi. Yakuniy natija sifatida uch marta takrorlangan tajribalarning o‘rtacha qiymati qabul qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Maishiy chiqindilar tarkibi

1-rasmda Toshkent shahrining Chilonzor va Mirzo Ulug‘bek tumanlaridan to‘plangan maishiy chiqindilar tarkibi keltirilgan. 1a-rasmda, maishiy chiqindilar tarkibida oziq-ovqat chiqindilarining ulushi 52% ekanligi ko‘rsatilgan. Undan keyingi o‘rinda suyaklar, turli hayvon qoldiqlari 13% ko‘rsatkich bilan organik chiqindilar sifatida 2-o‘rinda turadi. Maishiy chiqindilarning qolgan qismini esa qog‘oz, to‘qimachilik mahsulotlari, tagliklar, metallar, shisha va boshqa turdagi chiqindilar tashkil etadi. Maishiy chiqindilar tarkibidagi organik chiqindilarning yuqori ulushi (taxminan 66 %) ushbu chiqindilarni gidrotermal karbonizatsiya orqali bioko‘mir ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida juda mos ekanligini ko‘rsatadi.

a) **b)**



1-rasm. a) Chilanzar tumani va b) Mirzo Ulug‘bek tumani hududlaridan yig‘ilgan maishiy chiqindilarning morfologik tarkibi

ISSN 3030-3907

1b-rasmda ham oziq-ovqat chiqindilari 44% bilan eng katta ulushni egallaydi. Shuningdek, plastik va shisha chiqindilarining har biri 13% ni, suyaklar 6% ni, qog‘oz va to‘qimachilik mahsulotlari ham har biri 7% ni tashkil etadi. Umumiy organik chiqindilar (oziq-ovqat + suyaklar + o‘simlik chiqindilari)ulushi 54% dan ortiqni tashkil qilib, gidrotermal karbonizatsiya texnologiyasi orqali qo‘shilgan qiymatli mahsulot olish uchun yuqori salohiyat mavjudligini tasdiqlaydi. 1-rasm (a, b) natijalari Toshkent shahrida maishiy chiqindilar tarkibida oziq-ovqat chiqindilari ulushi 44–52% oralig‘ida ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa barqaror bioko‘mir ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan gidrotermal karbonizatsiya jarayonlari uchun doimiy va lignosellyulozaga boy xomashyo manbai mavjudligini anglatadi.

Kimyoviy tarkib, texnik , elementar va yuqori yonish issiqligi tahlillari

4-jadvalda mazkur tadqiqotda foydalanilgan oziq-ovqat namunalari lignosellyulozaviy tarkibining o‘rtacha qiymatlari standart kimyoviy fraksiyalash usullari orqali aniqlangan holda keltirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat chiqindilari asosan uglevodlarga boy xomashyo bo‘lib, quruq massa asosida, sellyuloza 45,22%, yarimsellyuloza 29,39% va lignin 25,47% ni tashkil etdi (qiymatlar uch martalik tahlil natijalarining o‘rtacha ko‘rsatkichidir). Ushbu uch asosiy fraksiyalarning umumiy yig‘indisi 100 % ni tashkil etadi. Sellyuloza va yarimsellyuloza miqdorining odatiy yog‘och yoki o‘simlik qoldiqlari tarkibiga nisbatan yuqoriroq va nisbatan muvozanatli taqsimlanganligi oziq-ovqat chiqindilarining qo‘shimcha qiymatga ega energiya mahsulotlari, jumladan bioko‘mir ishlab chiqarishga qaratilgan biokimyoviy hamda termokimyoviy konversiya jarayonlari uchun qulay xomashyo ekanligini ko‘rsatadi.

4-jadvalga ko‘ra, oziq-ovqat chiqindilari tarkibida 10.28% namlik, 59,46 % uchuvchan moddalar, 22,65% kul va 4,61% sobit uglerod (fixed carbon) aniqlangan. Uchuvchan moddalarning yuqori miqdori xom-ashyoning yaxshi reaktivlikka ega ekanini va termokimyoviy konversiya jarayonlari uchun mosligini ko‘rsatadi. Nisbatan yuqori sobit uglerod ulushi esa lignosellyulozaviy tuzilmalarning ko‘mir (char) hosil bo‘lishiga qo‘shayotgan hissasini aks ettiradi.

4-Jadval.

Oziq-ovqat namunalari uchun texnik, elementar, energetik va kimyoviy tarkib tahlillari natijalari

Tahlillar nomlari va tarkibi	Ko‘rsatkichlar
Texnik tahlil (proximate analysis)	
Namlik miqdori	10.28
Uchuvchan moddalar miqdori	59.46
Kul miqdori	22.65

ISSN 3030-3907

Sobit uglerod miqdori	4.61
Elementar tahlil (Ultimate analysis) [ ]	
Carbon	25.81
Hydrogen	16.02
Nitrogen	2.02
Sulphur	0.19
Oxygen (by difference)	55.93
High Heating Value (MJ/kg)	23.18
Structural carbohydrates	
Cellulose	45.22
Hemicellulose	29.39
Lignin	25.47

Izoh: Barcha namunalar quruq massa (dry basis) asosida tahlil qilindi

Oziq-ovqat chiqindilarining elementar tahlili yuqori miqdordagi uglerod (25,81%), vodorod (16,02%) va kislorod (55,93%) mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday tarkib oziq-ovqat qoldiqlarida odatda uchraydigan lipidlar, oqsillar va uglevodlarning ustunligini aks ettiradi. Vodorod miqdorining yuqoriligi yuqori yonish issiqligi (HHV) qiymatining 23,18 MJ/kg bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, azot miqdorining nisbatan yuqoriligi (2,02%) oqsilga boy moddalar mavjudligini bildiradi. Bu esa termokimyoviy qayta ishlash jarayonida azot oksidlarining hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Uglerod ulushi nisbatan past bo‘lishiga qaramay, elementar tahlil oziq-ovqat chiqindilarining yuqori energiya salohiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa, oziq-ovqat chiqindilarini gidrotermal karbonizatsiya texnologiyasi orqali olingan qattiq yoqilg‘ining ham yonish issiqligining yuqori bo‘lishini bildiradi.

Oziq-ovqat chiqindilarining 23,18 MJ/kg ga teng bo‘lgan yuqori yonish issiqligi miqdoriy jihatdan sub-bitum ko‘mirning yonish issiqligiga yaqin bo‘lib, ko‘plab lignosellyulozali biomassa turlaridan sezilarli darajada yuqori hisoblanadi. Bu natija gidrotermal karbonizatsiya orqali olingan bio-ko‘mirning yuqori energetik salohiyatini tasdiqlaydi.

XULOSA.

Toshkent shahridagi maishiy chiqindilarni kompleks tavsiflash bo‘yicha o‘tkazilgan o‘rganishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat chiqindilari barcha tumanlarda doimiy ravishda yuqori ulushlarda hosil bo‘lmoqda. Toshkent shahri uchun maishiy chiqindilar tarkibidagi organik chiqindilarning umumiy ulushi (oziq-ovqat + suyaklar + o‘simlik qoldiqlari) 54% dan yuqori ekanligi aniqlandi. Lignosellyulozaga boy bo‘lgan ushbu organik chiqindilarni bioko‘mir

ISSN 3030-3907

ishlab chiqarishga qaratilgan gidrotermal karbonizatsiya texnologiyasi uchun asosiy xomashyo sifatida qo‘llash mumkinligi asoslandi. Tarkibiy va issiqlik tahlillari ham oziq-ovqat chiqindilarining gidrotermal karbonizatsiya jarayoni uchun qulay xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Strukturaviy uglevodlar tahlilida, sellyuloza va yarimsellyuloza miqdori yuqori bo‘lgan, sezilarli lignin ulushi bilan to‘ldirilgan uglevodlarga boy tarkib aniqlandi. Texnik tahlil va yuqori yonish issiqligi tahlillari natijalari oziq-ovqat chiqindilarining gidrotermal karbonizatsiya texnologiyasi uchun ishonchli xomashyo ekanligini hamda ushbu jarayon orqali sub-bitum ko‘mir bilan raqobatlasha oladigan bioko‘mir olish mumkinligi tasdiqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O. Tursunov, K. Śpiewak, N. Abduganiev, Y. Yang, A. Kustov, and I. Karimov, “Thermogravimetric and thermovolumetric study of municipal solid waste (MSW) and wood biomass for hydrogen-rich gas production: a case study of Tashkent region,” *Environ. Sci. Pollut. Res.*, vol. 30, no. 52, pp. 112631–112643, Oct. 2023, doi: 10.1007/s11356-023-30368-0.

2. O. Tursunov *et al.*, “Comprehensive study on social, compositional and thermal aspects of household solid waste for waste-to-energy potential estimation in Tashkent city,” *Energy Rep.*, vol. 12, pp. 430–441, Dec. 2024, doi: 10.1016/j.egyr.2024.06.035.

3. H. B. Sharma, A. K. Sarmah, and B. Dubey, “Hydrothermal carbonization of renewable waste biomass for solid biofuel production: A discussion on process mechanism, the influence of process parameters, environmental performance and fuel properties of hydrochar,” *Renew. Sustain. Energy Rev.*, vol. 123, p. 109761, May 2020, doi: 10.1016/j.rser.2020.109761.

4. O. Tursunov *et al.*, “Characterisation and gas chromatography–mass spectrometry analysis of products from pyrolysis of municipal solid waste using a fixed-bed reactor,” *J. Ecol. Eng.*, vol. 26, no. 7, pp. 157–170, Jul. 2025, doi: 10.12911/22998993/203363.

5. H. B. Sharma, A. K. Sarmah, and B. Dubey, “Hydrothermal carbonization of renewable waste biomass for solid biofuel production: A discussion on process mechanism, the influence of process parameters, environmental performance and fuel properties of hydrochar,” *Renew. Sustain. Energy Rev.*, vol. 123, p. 109761, May 2020, doi: 10.1016/j.rser.2020.109761.

6. K. Kang *et al.*, “Microwave-assisted hydrothermal carbonization of corn stalk for solid biofuel production: Optimization of process parameters and characterization of hydrochar,” *Energy*, vol. 186, p. 115795, Nov. 2019, doi: 10.1016/j.energy.2019.07.125.

ISSN 3030-3907

7. M. Pecchi, F. Patuzzi, V. Benedetti, R. Di Maggio, and M. Baratieri, “Kinetic analysis of hydrothermal carbonization using high-pressure differential scanning calorimetry applied to biomass,” *Appl. Energy*, vol. 265, p. 114810, May 2020, doi: 10.1016/j.apenergy.2020.114810.
8. I. Yusuf, F. Flagiello, N. I. Ward, H. Arellano-García, C. Avignone-Rossa, and M. Felipe-Sotelo, ;“Valorisation of banana peels by hydrothermal carbonisation: Potential use of the hydrochar and liquid by-product for water purification and energy conversion,” *Bioresour. Technol. Rep.*, vol. 12, p. 100582, Dec. 2020, doi: 10.1016/j.biteb.2020.100582.
9. B. Babinszki *et al.*, “Comparison of hydrothermal carbonization and torrefaction of azolla biomass: Analysis of the solid products,” *J. Anal. Appl. Pyrolysis*, vol. 149, p. 104844, Aug. 2020, doi: 10.1016/j.jaap.2020.104844.
10. I. ASTM, *Standard test method for determination of the composition of unprocessed municipal solid waste*, D5231-92, 2016. doi: 10.1520/D5231-92R16.
11. S. R. Periyavaram, B. K, L. Uppala, and P. H. P. Reddy, “Hydrothermal carbonization of food waste: Process parameters optimization and biomethane potential evaluation of process water,” *J. Environ. Manage.*, vol. 347, p. 119132, Dec. 2023, doi: 10.1016/j.jenvman.2023.119132.
12. S. Wu *et al.*, “Analysis of fuel properties of hydrochar derived from food waste and biomass: Evaluating varied mixing techniques pre/post-hydrothermal carbonization,” *J. Clean. Prod.*, vol. 430, p. 139660, Dec. 2023, doi: 10.1016/j.jclepro.2023.139660.
13. M. Yan *et al.*, “Hydrothermal carbonization of food waste digestate solids: Effect of temperature and time on products characteristic and environmental evaluation,” *Process Saf. Environ. Prot.*, vol. 178, pp. 296–308, Oct. 2023, doi: 10.1016/j.psep.2023.08.010.

ISSN 3030-3907

ЭПОКСИ ПОЛИМЕРЛАРНИНГ АДГЕЗИЯ, МУСТАҲКАМЛИК ВА ҚОВУШҚОҚ- ЭЛАСТИКЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ ҲАМДА УЛАРНИ МОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ

Наврузов Фарход Маматқулович
EMU University Кимё фанлари кафедраси мудири (PhD) доцент.
Ўзбекистон, Ташкент ш.
E-mail: navruzovfarmi@gmail.com
Акбаралиева Сарвиноз Умидовна
EMU Университети даволаш иши факультетининг 3-курс талабаси.
Ўзбекистон, Ташкент ш.
E-mail: Kimsulli301@gmail.com

Аннотация. Мазкур ишда эпоксид полимерлар ва уларнинг модификацияларининг адгезион-мустаҳкамлик ҳамда қовушқоқ-эластик хоссалари тадқиқ қилинган. Тадқиқот объекти сифатида эпоксид олигомерлар ЭД-16 ва ЭД-20, шунингдек уларнинг ҳосилалари - ФАЭД-20 ва ЭИС-1 танлаб олинган. Тажрибалар давомида материалларнинг асосий физик-механик хусусиятлари аниқланган, жумладан тебранишларнинг логарифмик декременти, динамик эластиклик модули, йўқотиш модули, шишаланиш ҳарорати, зичлик, адгезион ва зарбага чидамлилик мустаҳкамлиги каби . хусусиятлар ўрганилган. Тадқиқот натижалари эпоксид полимерларнинг қовушқоқ-эластик ва адгезион-мустаҳкамлик хоссалари уларнинг кимёвий тузилиши ва таркибига сезиларли даражада боғлиқ эканлигини кўрсатди. Шунингдек, ўрганилган материаллар адгезион-мустаҳкамлик ва зкоэластик хоссалар даражаси бўйича қуйидаги тартибда жойлашади: ЭД-16, ЭД-20, ФАЭД-20 ва ЭИС-1. Шунингдек, ЭД-16 асосидаги эпоксид полимер вязкоэластик ва адгезион хусусиятлар бўйича юқорироқ кўрсаткичларга эга эканлиги кўрсатилди. Шу муносабат билан ушбу материални вибрацияни ютиш ва товушни изоляция қилиш хусусиятига эга бўлган композицион полимер материалларни ишлаб чиқишда қўллаш тавсия этилади.

Калит сўзлар: эпоксид полимерлар, модификация, адгезион мустаҳкамлик, қовушқоқ-эластик хоссалар, эпоксид смола, эластиклик модули, логарифмик декремент.

Abstract. This study examines the adhesive strength and viscoelastic properties of epoxy polymers and their modifications. The epoxy oligomers ED-16 and ED-20, as well as their derivatives FAED-20 and EIS-1, were chosen as the subjects of study. During the experiments, the key physical and mechanical properties of the materials were determined, including the logarithmic decrement of oscillation, the

ISSN 3030-3907

dynamic elastic modulus, the loss modulus, the glass transition temperature, the density, and the adhesive and impact strength. The results showed that the viscoelastic and adhesive strength properties of epoxy polymers depend significantly on their chemical structure and composition. It was found that the studied materials ranked in the following order of adhesive strength and viscoelastic properties: ED-16, ED-20, FAED-20, and EIS-1. It has been shown that ED-16-based epoxy polymer exhibits superior viscoelastic and adhesive properties. Therefore, this material is recommended for use in the development of vibration-absorbing and sound-insulating composite polymer materials.

Keywords: epoxy polymers, modification, adhesive strength, viscoelastic properties, epoxy resin, elastic modulus, logarithmic decrement.

Аннотация. В данной работе исследованы адгезионно-прочностные и вязкоупругие свойства эпоксидных полимеров и их модификаций. В качестве объектов исследования были выбраны эпоксидные олигомеры ЭД-16 и ЭД-20, а также их производные - ФАЭД-20 и ЭИС-1. В ходе экспериментов были определены основные физико-механические характеристики материалов, включая логарифмический декремент колебаний, динамический модуль упругости, модуль потерь, температуру стеклования, плотность, адгезионную и ударную прочность. Результаты исследований показали, что вязкоупругие и адгезионно-прочностные свойства эпоксидных полимеров существенно зависят от их химической структуры и состава. Установлено, что исследованные материалы по уровню адгезионно-прочностных и вязкоупругих свойств располагаются в следующем порядке: ЭД-16, ЭД-20, ФАЭД-20 и ЭИС-1. Показано, что эпоксидный полимер на основе ЭД-16 обладает более высокими показателями вязкоупругих и адгезионных характеристик. В связи с этим данный материал рекомендуется использовать при разработке вибропоглощающих и звукоизоляционных композиционных полимерных материалов.

Ключевые слова: эпоксидные полимеры, модификация, адгезионная прочность, вязкоупругие свойства, эпоксидная смола, модуль упругости, логарифмический декремент.

ВВЕДЕНИЕ.

В настоящее время для снижения уровня вибрации и, следовательно, шума успешно применяются различные вибропоглощающие композиционные полимерные материалы. Однако эти материалы, в основном, состоят из гомополимеров и различных ингредиентов, а также недостаточно изучены ихвязкоупругие свойства. Они имеют сравнительно узкий диапазон проявления максимума потерь и ограничены в ассортименте.

ISSN 3030-3907

Эти недостатки не позволяют широко использовать их в качестве вибропоглощающего материала [1-4].

В связи с этим, в данной работе нами были исследованы адгезионно-прочностные и вязкотекучие свойства эпоксидных полимерных материалов и их производные применительно разработке вибропоглащающих и звукоизолирующих композиционных полимерных материалов.

ОБЪЕКТ И МЕТОДИКА ИССЛЕДОВАНИЯ. В качестве объекта исследования были выбраны эпоксидиановые, фурановые и сланцевые полимеры ЭД-16,ЭД-20 (ГОСТ 10587-84), ФАЭД-20 (ТУ59-02.039.13-78) и ЭИС-1 (ТУ 38-1091-76) [1,2], а также порошкообразные эластомеры ПЭ-Ш (шероховальный) и ПЭ-Э (экструзионный), пластификатор дибугилфталат (ДБФ), отвердитель полиэтиленполиамин (ПЭПА).

Следует отметить, что фураноэпоксидную смолу ФАЭД-20 получают при совмещении 80 м.ч. фурфуролацетонового мономера ФА и 20 м.ч. эпоксидного олигомера ЭД-16. Одним из достоинств ФАЭД-20 является то, что фурфуролацетоновый мономер ФА получают из дешевого недефицитного сырья стеблей хлопчатника, запасы которого практически неистощимы в Узбекистане. Покрытия из ФАЭД-20 имеют высокую адгезионную прочность, водо-, термо- и химическую стойкость. Аналогичным путем полученыэпоксилоксановые полимеры. Поэтому нами были выбраны как объект исследования модификации эпоксидных полимеров ФАЭД-20 и ЭИС-1.

Методика получения вибропоглощающих полимерных композиций и образцов для их испытания. Для испытания вибропоглощающих свойств полимеров и композиций на основе ЭД-16, ЭД-20, ФАЭД- 20 и ЭИС-1 образцы получали следующим образом. Необходимое количество эпоксидных, фураноэпоксидных и эпоксиднослацевых олигомеров сушили в сушильном шкафу при 370 К в течение 2 часов. Затем в олигомеры вводили сначала необходимое количество пластификатора ДБФ, полимерных и органоминеральних наполнителей, затем отвердитель (ЭД:ПЭПА 10:1). После введения каждого ингредиента, композицию перемешивали в течение 10 минут механической мешалкой при 300К. Готовую смесь отливали в формы, предварительно обработанные антиадгезионным веществом. Реаксионноспособную массу отверждали при 300К (ФАЭД-20 при 350 К) в течение 10 часов. Образцы из ЭД и ЭНС подвергались термообработке при 373 К в течение 4 часов, а образцы из ФАЭД - при 400К в течение 6 часов.

Образцы для исследования химической структуры материала получали методом прессования таблеток с КВг. Для чего отвержденный полимер или

ISSN 3030-3907

композиционный материал измельчали в ступке и добавляли измельченный КВг. Затем из этого порошка получали таблетки на прессе.

Методика исследования вибропоглощающих и физико-механических свойств композиционных полимерных материалов. Вязкоупругие свойства полученных образцов исследовали методом ширины резонансной впадины [1]. Химическую структуру полученных образцов из гомополимеров и композиций на их основе изучали методом ИК-спектроскопии на спектрометре SPECOROD - 75IR.

Адгезионную прочность покрытий на основе полученных композиций определяли методом отрыва грибков, соединенных между собой связующим, на разрывной машине “FP-100/1 (ГДР)”.

Микротвердость композиционных полимерных покрытий определяли прибором ПМТ-3, представляющим собой микроскоп с устройством для вдавливания индентора в испытуемый материал под определенной статической нагрузкой. Ударную прочность полимерных покрытий определяли на приборе У-2, представляющим собой вертикальный копер.

Толщину покрытий измеряли магнитным толщиномером ТИП-10. Для изучения теплофизических свойств, в частности определения коэффициента теплопроводности, нами предварительно был применен стационарный метод определения теплового потока при комнатной температуре - теплометрический метод. Метод основан на регистрации теплового потока от плоского источника постоянной мощности сквозь испытуемый образец к телу с постоянной температурой.

Температурную зависимость теплопроводности исследуемых полимеров и композиций на их основе изучали динамическим методом. Экспериментальное определение теплопроводности, исследуемых композиций проводилось в диапазоне температур (240-500 К) по ГОСТ 23630.2-79 на приборе ИТ - λ - 400 одном из немногих приборов для теплофизических исследований, выпускаемых промышленностью Российской Федерации. Измерение теплопроводности проводилось на образцах из полимерных композиций а 15 мм. Обработка всех экспериментальных данных проводилась методом математической статистики.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ. Были исследованы адгезионно-прочностные и вибропоглощающие свойства эпоксидных полимеров и их производных. Результаты исследований вязкоупругих и адгезионнопрочностных свойств полимеров, выбранных в качестве объекта исследования, эпоксидных смол и их производных,

ISSN 3030-3907

приведены в таблице 1.

Таблица 1

Вязкоупругие и адгезионно-эпоксидных прочностные свойства эпоксидных полимеров и их производных.

Свойства	Полимеры			
	ЭД-20	ЭД-16	ФАЭД-	ЭИС-1
Логарифмический декремент, δ	0.086	0,110	0.098	0,091
Динамический модуль упругости E', МПа	3820	4060	3580	3400
Модуль потерь E", МПа	344	398	387	310
Температура стеклования Тс, К	390	370	400	340
Плотность р, г/см^3	1,26	1,28	1,25	1,23
Адгезионная прочность δ_a, МПа	36,0	32,0	40,0	26,0
Ударная прочность $\sigma_{уп}$, МПа	1,11	1,20	1,22	1,26

Как видно из таблицы 1, вязкоупругие и адгезионно-прочностные свойства эпоксидных полимеров на основе ЭД-16, Эд-20 и их производных ФАЭД-20 и ЭИС-1 значительно различаются друг от друга. Так, например, у эпоксидного полимера на основе ЭД-16 логарифмический декремент находится в пределе δ= ф, 0,110 динамический модуль упругости E'=4060 Мпа, модуль потерь - E"= 398 Мпа, температура стеклования T_c = 370 К, плотность ρ =1,28 г/см^2, адгезионная прочность δ_a=32,0 МПа и ударная вязкость σ=1,20 МПа. А у эпоксидного полимера на основе ЭД-20 логарифмический декремент находится в пределе δ - ф, 0,086, динамический модуль упругости E'= 3820 Мпа, модуль потерь - E"= 344 МПа, температура стеклования T_c = 390 К, плотность σ = 1,26г/см^2, адгезионная прочность - δ_a=36,0 МПа и ударная вязкость σ_y=l,ll МПа.

Как видно из анализа, у эпоксидного полимера на основе ЭД-16 кроме адгезионной прочности и температуры стеклования все остальные вязкотекучие и адгезионно-прочностные свойства находятся выше, чему эпоксидного полимера на основе ЭД-20.

Теперь рассмотрим вязкотекучие и адгезионно-прочностные свойства полимеров производных эпоксидных полимеров ФАЭД- 20 и ЭИС-1.

Логарифмический декремент у ФАЭД-20 находится в пределе 0,098

ISSN 3030-3907

динамический модуль упругости E'=3580 Мпа, модуль потерь - E"=387 Мпа, температура стеклования T_c=400 К, плотность р=1,25 г/см", адгезионная прочность-δ_a=40,0 МПа и ударная прочность σ_{yn}=l,22 МПа. А у ЭИС-1 логарифмический декремент находится в пределе δ=ф,0,091 динамический модуль упругости E'=3400 Мпа, модуль потерь-E"=310 МПа, температура стеклования T_c=340 К, адгезионная прочность-σ_a=26,0 МПа и ударная прочность σ_y=l,26 МПа.

Анализируя можно отметить, что у производных эпоксидного полимера ФАЭД-20 кроме ударной прочности все остальные вязкоупругие и адгезионно-прочностные свойства выше, чем у производных эпоксидного полимера ЭИС-1.

Результаты исследования эпоксидных полимеров по адгезионно-прочностным и вязкоупругим свойствампоказали,что они имеют следующий ряд: ЭД-16,ЭД-20, ФАЭД- 20 и ЭИС-1.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

Все исследованные эпоксидные полимеры и их производные имеют хорошие адгезионно-прочностные и вязко-текучие свойства. Так как среди исследованных полимерных материалов эпоксидный полимер на основе ЭД -16 имеет более хорошие вязкоупругие и адгезионно-прочностные свойства, то далее для исследования и разработки композиционных полимерных вибропоглащающих материалов и покрытий на их основе рекомендуется именно эпоксидный полимер на основе ЭД-16.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Негматов С.С., Пак И.И.,Демпфирующие свойства полимерных материалов и покрытий на их основе. УзИИИНТИ, Ташкент, 1974. 16с.
2. Негматов С.С., Пак И.И., Применение полимерных композиционных покрытий в хлопкоуборочной машине. В сб.научных трудов ТашПИ. «Сельхозмашины» вып. 329, Ташкент, 1982г.-С. 125-127.
3. Писаренко Г.С. Рассенние энергии при механических колебаниях. Киев, Изд-во, АН УССР, 1962.
4. Вибродемпфирующий материал NOISEBUSTER [Электронный ресурс] / NOISEBUSTER, 2015. URL: http://www.noisebuster-msk.ru/. (Дата обращения: 15.03.2015).

ISSN 3030-3907

MURAKKAB ELEKTR TOK ZANJIRLARINI HISOBLASHDA MULTISIM 14.1 DASTURINI TALABALAR ONGIDA KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA O‘RNI.

Rahmonov Shahobiddin Safaralievich
Qarshi davlat texnika universiteti “Elektr ta’minoti va intellektual energetik tizimlar” kafedrasi assistent o‘qituvchisi
E-mail: rahmonovshahobiddin1997@gmail.com
Shomurotov Akobir Olim o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti talabasi
E-mail: oyamgurchiyev@gmail.com
G‘aniboyev Rustam Jahongir o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti talabasi
E-mail: ganiboyevrustam10@gmail.com
Raximov Asror Akram o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti talabasi
E-mail: asrorxonrakhimov@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi davrda zamon rivojlanishi, texnika texnologiyalarning misilsiz katta sur‘atlarda o‘sib borishi o‘sib - o‘lg‘ayib kelayotgan kadirlarni zamonaviy bilimlarni egallashga, ularni keng qamrovda chuqur sohani egallashiga yordam beradigan axborot – kamunikatsion tizimlardan foydalanish zamon talabining asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

Kalit so‘zlar: multisim 14.1, kompetentlig, uchburchak, yulduzcha, liniya, faza, kuchlanish, tok kuchi, elektr zanjir.

Аннотация. В современную эпоху, в условиях развития технологий и беспрецедентного технологического прогресса, использование информационно-коммуникационных систем, помогающих молодежи приобретать современные знания и глубоко осваивать широкий спектр областей, стало одной из главных задач времени.

Ключевые слова: Multisim 14.1, компетенция, треугольник, звезда, линия, фаза, напряжение, ток, электрическая цепь.

Abstract. In the modern era, amidst technological advances and unprecedented technological progress, the use of information and communication systems to help young people acquire modern knowledge and gain a deep understanding of a wide range of fields has become one of the most pressing challenges of our time.


Keywords: Multisim 14.1, competence, triangle, star, line, phase, voltage, current, electrical circuit.

KIRISH.

ISSN 3030-3907

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda texnika sohasida ham bugungi kunda yangi zamonaviy dasturlarning kirib kelishi sohani o‘rganuvchi talabalarga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Energetika, radiotexnika, telekamunikatsiya, dasturlashtirish, elektronika va shunga o‘xshash sohalarga yangi dasturlarni kirib kelishi natijani aniq ko‘rish, aniq hisob kitob qilish talabalar o‘rtasida murakkab zanjirlarni hisoblashga shunindek shu sohaga nisbatan talabalar ongida kompetentligini oshirishga katta hissa qo‘shib kelmoqda.

Shu dasturlardan biri multisim 14.1 dasturi bo‘lib murakkab zanjirlarni hisoblashda ularni natijalarini aniq chiqarishga imkon beradi.



1 – rasm. Multisim 14.1 dasturining umumiy oynasi.

Multisim 14.1 dasturi 12 menyulardan iborat bo‘lib qo‘shimcha yordamchi dasturlardan hamda natijalarni yig‘ish ishchi oynadan iborat.

Tadqiqotni o‘tqazish tartibi. Iste’molchi uchburchak usulida ulangan uch fazali elektr zanjirlarni o‘rganish misolida ko‘rib chiqamiz

Ishni bajarishdan maqsad

1. Iste’molchi qarshiliklari uchburchak usulida ulangan uch fazali sistemalarni o‘rganish.
2. Liniya toklari bilan faza toklari orasidagi bog‘liqlikni tajriba hamda topografik yo‘llar orqali aniqlash.

Ishni bajarish tartibi

Asosiy o‘lchashlar


1. Multisim dasturini yuklaymiz va **9 – rasm.** sxemani yig‘amiz.

Yig‘ish uchun quyidagi amallarni bajaramiz. Multisimni ish sohasiga:


1) Uskunalar panelidan Place Source tugmasini bosamiz keyin yangi oyna paydo bo‘ladi u yerdan POWER_SOURCESni belgilaymiz, paydo bo‘lgan oynadan

ISSN 3030-3907

THREE_PHASE_WYE tugmasini belgilaymiz, o‘ng tarafdagi OK tugmasini bossak ishchi stolda Uch fazali o‘zgaruvchan tok generatori paydo bo‘ladi, keyin pastda turgan GROUND tugmasini bosamiz va OK tugmasini bosamiz, ishchi stolda zaminlagich elementi paydo bo‘ladi (2 a, b-rasmlar).




2 (a) - rasm. EYuK manbasi va zaminlagich.



2 (b)- rasm. EYuK manbasi va zaminlagich.

2) Uskunalar panelidan Place Basic tugmasini bosamiz keyin yangi oyna paydo bo‘ladi u yerdan RESISTORni belgilaymiz, paydo bo‘lgan oynadan kerakli raqamni belgilaymiz va OK tugmasini bossak ishchi stolda rezistor (aktiv qarshilik) elementi paydo bo‘ladi (3 - rasm).




3 - rasm. Rezistor.

3) Uskunalar panelidan Place Basic tugmasini bosamiz keyin yangi oyna paydo bo‘ladi u yerdan INDUCTORni belgilaymiz, paydo bo‘lgan oynadan kerakli


ISSN 3030-3907

raqamni belgilaymiz va OK tugmasini bossak ishchi stolda induktiv g‘altak (reaktiv qarshilik) elementi paydo bo‘ladi (4 - rasm).




4 - rasm. Induktiv g‘altak.

4) Uskunalar panelidan Place Basic tugmasini bosamiz keyin yangi oyna paydo bo‘ladi u yerdan CAPACITORni belgilaymiz, paydo bo‘lgan oynadan kerakli raqamni belgilaymiz va OK tugmasini bossak ishchi stolda kondensator (reaktiv qarshilik) elementi paydo bo‘ladi (5 - rasm).



5 - rasm. Kondensator.


5) Uskunalar panelidan Place Indicator tugmasini bosamiz keyin yangi oyna paydo bo‘ladi u yerdan AMMETRni belgilaymiz, paydo bo‘lgan oynadan AMMETR_H belgilaymiz va OK tugmasini bossak ishchi stolda Ampermetr (tok kuchini) o‘lchov uskunasi paydo bo‘ladi (6 - rasm).



6 - rasm. Ampermetr


ISSN 3030-3907

6) Uskunalar panelidan Place Indicator tugmasini bosamiz keyin yangi oyna paydo bo‘ladi u yerdan VOLTMETRni belgilaymiz, paydo bo‘lgan oynadan VOLTMETR_V belgilaymiz va OK tugmasini bossak ishchi stolda voltmetr (kuchlanishni) o‘lchov uskunasi paydo bo‘ladi (7 - rasm).



7 - rasm. Voltmetr.


7) Uskunalar panelidan Place Basic tugmasini bosamiz keyin yangi oyna paydo bo‘ladi u yerdan SWITCHni belgilaymiz, paydo bo‘lgan oynadan kerakli kalitni belgilaymiz va OK tugmasini bossak ishchi stolda kalit uskunasi paydo bo‘ladi (8 - rasm).



8 - rasm. Uch kontaktli kalit.

Quydagilarni bajarib bo‘lganimizdan so‘ng yo‘qorida ko‘rsatilgan parametrlarni yig‘ib chiqamiz va quydagi natijaga ega bo‘lamiz.

ISSN 3030-3907



9 – rasm. Iste'molchi uchburchak usulida ulangan uch fazali elektr zanjirlarni ulashdan olgan natija.

TADQIQOTNI DOLZARBLIGI. Nazariy elektrotexnikada uch fazali toklar murakkab zanjirlar hisoblanib talabalarga mohiyatini, mazmunini tushintirishda ancha murakkabliklarni tug'diradi. Yuqorida olingan natijada ko'rinib turiptiki olingan natija aniq hisob kitoblarga hisoblab chiqarilgan. Uch fazali zanjirlarda liniya kuchlanishlari U_L, faza kuchlanishlari U_f, liniya toklari I_L, faza toklari I_f dan iborat.

Uch fazali zanjirlarda elektr iste'molchilar yulduz - Y hamda uchburchak - Δ shaklida ulanadi. Agar iste'molchilar yulduz Y sxemasida ulanganda, liniya kuchlanishi faza kuchlanishdan $\sqrt{3}$ farq qiladi U_L=$\sqrt{3} \cdot Uf$, liniya toklari va faza toklarida teng bo'ladi $I_L = I_f$. Agar iste'molchilar uchburchak Δ usulida ulangan bo'lsa liniya kuchlanishi faza kuchlanishiga teng bo'ladi $U_L = U_f$, liniya toklari $\sqrt{3}$ ga farq qiladi $I_L = \sqrt{3} \cdot I_f$ tenglikka teng. Yuqorida olingan natijadan shuni ko'rish mumkinki uch fazali zanjirimiz uchburchak Δ usuliga ulanganda ifoda quydagiga teng.

$$I_L = \sqrt{3} \cdot I_f$$

$$\sqrt{3} \cdot 0{,}595 = 1{,}031\ A$$

$$I_f = \frac{I_L}{\sqrt{3}} = \frac{1{,}031}{\sqrt{3}} = 0{,}595\ A$$

Yuqorida chiqarilgan natijamizdan Multisim 14.1 dasturida olingan natijamiz talabalarga aniq jarayonlarni ketma-ket holatda bog'likligini hamda natijani tug'riligidan dalolat beradi.

XULOSA. Hozirgi fan - texnikani rivojlanishini hisobga olgan holda texnika sohasida oliy o'quv yurtlarda tahsil olayotgan talabalarni har taraflama kasbga nisbatan kompetentligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuni

ISSN 3030-3907

hisobga olgan holda multisim 14.1 dasturi yordamida oddiy zanjirlardan boshlab murakkab zanjirlargacha turli natijalarni olish va aniq hisoblash imkonini beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Степанов А.П., Криворотова В.В., Кудряшова Г.Г. Теоретические основы электротехники учебное пособие для лабораторных занятий / А.П. Степанов, В.В. Криворотова, Г.Г. Кудряшова. – Иркутск : ИрГУПС, 2016. – 188 с.
2. Karimov A.S. Nazariy elektrotexnika.-T. : o‘qituvchi, 2003.
3. Rashidov Y.R., Abidov K.G‘., Kolesnikov I.K. Elektrotexnikaning nazariy asoslari I,II,III-qismlar (Maruza matinlari to‘plami), TDTU, 2002 , 250 b.
4. S.F. Amirov, M.S. Yoqubov, N.G‘. Jabborov/ Elektrotexnikaning nazariy asoslari, Toshkent, “Talqin” 2008 y.
5. Amirov S.F., Yakubov M.S., Baratov R.J, Sulliyev A.X., Sattarov X.A. Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti. “Elektrotexnikaning nazariy asoslari”. Toshkent – 2008
6. Norboyev.A.E., Tuxtayev.B.B, Rahmonov.Sh.S “Nazariy elektrotexnika” fanidan laboratoriya ishlarni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma. -Qarshi: QDTU, 2025 - 92b.

ISSN 3030-3907

QATRONLAR, ULARNING TASNIFLANISHI VA AHAMIYATI.

Niyozov Alisher Kamilovich
Buxoro Innovatsiyalar universiteti
Rajabova Laylo Baxtiyor qizi.
BDTU tayanch doktoranti
O‘rinov Xurshid Xayridin o‘g‘li
BDTU tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada qatronlar, ularning turlari olinish usullari va bir qancha sohalarda ishlatilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek qatronlarning ahamiyati, ularni ikkilamchi sanoat chiqindilaridan olinishi, uglevodorodlarning piroliz qoldiq mahsulotaridan kerakli reagentlarni ajratib olish va shu asosda qatronlarning olinish usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Qatron, termoplastik, elastomer, polistirol,piroliz

Аннотация. В данной статье рассматриваются смолы, их типы, методы получения и применение в различных отраслях промышленности. Также представлена информация о важности смол, их извлечении из вторичных промышленных отходов и нескольких методах извлечения необходимых реагентов из остатков пиролиза углеводородов.

Ключевые слова: смола, термопласт, эластомер, полистирол, пиролиз

Abstract. This article discusses resins, their types, methods of obtaining them, and their use in several industries. It also provides information on the importance of resins, their extraction from secondary industrial waste, and several methods for extracting the necessary reagents from the pyrolysis residues of hydrocarbons.

Keywords: Resin, thermoplastic, elastomer, polystyrene, pyrolysis

KIRISH.

Bizning hayotimizdagi ko‘plab mahsulotlar “qatron materiallari” dan tayyorlanadi. Bu “ qatronlar ” sun’iy ravishda sintezlanadi, ammo ularning tarkibi daraxtlar tomonidan chiqariladigan qatronlar bilan bir xil bo‘lmaydi. Ko‘pgina hayvonlarning teri yuzasi shilimshiq va ter ajratishi mumkin bo‘lgani kabi, daraxtlar ham yog‘li moddalarni ajratishi mumkin. Qarag‘ay, sarv va araukariya kabi gimnospermlar shular jumlasidandir. O‘simliklar uchun qatronlar asosan qobig‘ini himoya qilish va zamburug‘lar, hasharotlar va o‘txo‘rlarning hujumlaridan himoya qilish uchun ishlatiladi. Marvarid sifatida tasniflangan kehribar, odatda, yarim toshga aylangan tarixdan oldingi qarag‘ay va sarv qatronidan iborat. [1].

O‘simliklardagi qatronlar juda suyuq suyuqlikdir. Havo bilan aloqa qilgandan so‘ng, ularning bir qismi havoga bug‘lanadi, ikkinchisi esa qattiq holga keladi. Qatronlar “yog‘” deb atalsa-da, ular bizga tanish bo‘lgan yog‘lar – o‘simlik

ISSN 3030-3907

moylaridan butunlay farq qiladi. Tabiiy qatronlarning asosiy komponentlari o‘simlik moylarini tashkil etuvchi yog‘ kislotalari va glitserin emas, balki turli xil terpenlar, fenollar, smola kislotalari va boshqa organik birikmalardir, lekin ular o‘simlik moylari kabi suvda erimaydi. Ba’zida odamlar tabiiy qatronlarni “efir moylariga” ajratib olishadi, masalan, qarag‘ay qatronidan olingan turpentin. Sintetik qatronlar “daraxt” bilan hech qanday a’loqasi yo‘q. Biroq, sanoat sohasida foydalaniladigan “qatron” so‘zining ma’nosi daraxtlar chiqaradigan narsadan ancha kattaroqdir - keng ma’noda plastik mahsulotlar uchun xom ashyo sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan har qanday yuqori molekulyar polimer birgalikda “qatronlar” deb ataladi. Yer yuzida bu komponentni ajrata oladigan o‘simlik bo‘lmasa va xom ashyo o‘simliklardan umuman yig‘ilmasa, u ham qonuniy “qatron” hisoblanadi. [2].

ASOSIY QISM. Bugungi sanoat smolalarining ko‘pchiligi “sintetik qatronlar” bo‘lib, ular nafaqat tabiiy o‘simliklardan olinmaydi, balki ularning kimyoviy tarkibi ham boshqacha. Masalan, neft, tabiiy gaz, ko‘mir kabi qazilma yoqilg‘ilardan plastmassa buyumlar va qurilish materiallarida keng qo‘llaniladigan fenol smola, epoksid, polietilen smola va boshqalar ajratib olinadi va sintezlanadi. [2].

Ko‘p turdagi qatronlar mavjud, ammo ularni uchta asosiy toifaga bo‘lish mumkin: termoset, termoplastik va elastomer. Har bir toifaning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, uni turli maqsadlar uchun moslashtiradi. Termoset qatronlar - bu qizdirilganda yoki qattiqlashganda kimyoviy reaksiyaga kirishadigan qatronlar, bu ularni qattiq va qaytarib bo‘lmaydigan qiladi. O‘rnatilgandan keyin ularni eritib bo‘lmaydi yoki shaklini o‘zgartirib bo‘lmaydi. Termoset qatronlar yuqori mustahkamlik, barqarorlik va issiqlik va kimyoviy moddalarga qarshilik ko‘rsatadi, lekin ular ham mo‘rt, ishlov berish qiyin va yorilishga moyil. Termoset qatronlarining ba’zi misollari epoksi, poliester, fenolik va boshqalar. [3].



Termoplastik qatronlar qizdirilganda va sovutilganda qayta-qayta eritilishi va shaklini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan qatronlardir. Ular qizdirilganda yumshoq

ISSN 3030-3907

va moslashuvchan, sovutilganda esa qattiq bo‘ladi. Termoplastik qatronlar yuqori egiluvchanlik va qayta ishlanish qobiliyatiga ega, ammo ular deformatsiyaga, yemirilishga va degradatsiyaga ham sezgir. Termoplastik qatronlarga ba’zi misollar polietilen ,polipropilen, polistirol va boshqalar. Asosiy farq ularning kimyoviy tuzilishidadir. Termosetlar doimiy ravishda qattiqlashadi, termoplastiklar qayta shakllanuvchan bo‘lib qoladi va elastomerlar elastiklikni kuch bilan birlashtiradi.



Elastomer qatronlar yuqori elastiklik, moslashuvchanlik va chidamlilik kabi kauchukga o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan qatronlardir. Ular stress yoki zo‘riqishlarga duchor bo‘lganda cho‘zilishi va asl shaklini tiklashi mumkin. Elastomer qatronlar yuqori zarba qarshiligiga, tebranishlarga chidamlilik va shovqinni kamaytirishga ega. Elastomer qatronlarining ba’zi na’munalari silikon, rezina, poliuretan va boshqalar. [4].



Qatronlar juda ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi. Epoksi qatroni bardoshli va porloq qoliplarni yaratish uchun eng mashhur variantlardan biridir. U nozik detallarni yuqori tiniqlik bilan ushlay oladigan kuchli va qattiq materialga aylanadi. Epoksi qoliplari zargarlik buyumlari, qo‘l san’atlari va bezak buyumlari uchun juda yaxshi, chunki ular silliq sirtni ta’minlaydi va osonlik bilan parlatiladi. Biroq, epoksi juda moslashuvchan qoliplar uchun ishlatilganda mo‘rt bo‘lishi mumkin,

ISSN 3030-3907

shuning uchun u kichikroq va kamroq murakkab shakllar uchun eng yaxshi ishlaydi. Polyester qatroni - kuchli va qattiq qoliplarni ta’minlaydigan arzon variant. U shisha tolali armatura, dengiz loyihalari va tezkor prototiplar kabi ilovalarda keng qo‘llaniladi. Polyester qoliplari tafsilotlarni olishi mumkin bo‘lsa-da, ular epoksi yoki silikondan kamroq bardoshli va kuchli kimyoviy hidga ega. Uning arzonligi tufayli u ko‘pincha uzoq muddatli chidamlilik ustuvor bo‘lmagan qisqa muddatli loyihalar uchun tanlanadi. Poliuretan qatroni ko‘p qirrali xususiyatga ega, chunki u qattiq yoki moslashuvchan sifatida tuzilishi mumkin. Moslashuvchan poliuretan qoliplari egiluvchanlik va oson parchalanishni talab qiladigan qismlar uchun ideal, qattiq poliuretan esa bardoshli prototiplar va funktsional qismlarga mos keladi. Bundan tashqari, u mukammal qarshilikka ega, bu uni takroriy foydalanish uchun yaxshi imkoniyat qiladi. Biroq, poliuretan qatronlari qattiqlashuv vaqtida qisqarishi mumkin va namlikka sezgir bo‘lishi mumkin, bu esa ehtiyotkorlik bilan ishlashni talab qiladi. [5].

Qattiqlik - bu materialning chuqurlikka, chizishga yoki deformatsiyaga qanchalik chidamliligini ko‘rsatadigan o‘lchovdir. Qattiqligi odatda 1 dan 10 gacha bo‘lgan Moss shkalasi bilan o‘lchanadi, bu yerda 1 eng yumshoq va 10 eng qiyin. Qattiqlik qatron materiallari uchun muhim xususiyatdir, chunki bu ularning chidamliligi, ishlashi va tashqi ko‘rinishiga ta’sir qiladi. Qatron materiallarining qattiqligi ularning turiga, tarkibiga va qattiqlashuv jarayoniga bog‘liq. Odatda, termoset qatronlar termoplastik va elastomer qatronlarga qaraganda qattiqroqdir, chunki ular yuqori o‘zaro bog‘lanish va qattiqlikka ega. Shu bilan birga, ba’zi termoplastik va elastomer qatronlar plomba, qo‘shimchalar yoki modifikatorlarni qo‘shish orqali ham qattiqlashishi mumkin. [5].

XULOSA. Qatronlar hunarmandchilikdan tortib aerokosmik sohalarda qo‘llaniladigan ko‘p qirrali materiallardir. Qatronlarning ham tabiiy, ham sintetik shakllari mavjud. Ko‘pchilik qatronlar plastikdir, haqiqat shundaki, qatronlar turiga qarab plastik yoki ilg‘or kompozitlar kabi ishlashi mumkin. Mog‘or ishlab chiqarish uchun epoksi, poliuretan va silikon qatronlar ajralib turadi, silikon ko‘pincha silikon sifatida qabul qilinadi. Qoliplar uchun ishlatish uchun eng yaxshi qatron. Ko‘plab sintetik qatronlar plastmassalar, ayniqsa termoplastiklar sifatida tasniflanadi. Biroq, epoksi kabi termoset qatronlar doimiy ravishda qattiqlashadi va ko‘pincha oddiy plastmassalardan ko‘ra ilg‘or kompozitlar hisoblanadi. Qatrondan qilingan mahsulotlarga zargarlik buyumlari, qoplamalar, yopishtiruvchi moddalar, mebellar, tibbiy asboblar, aerokosmik komponentlar va hatto 3D bosma obyektlarni kiritish mumkin bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jumaniyazov M. et al. Gossypol resin-derived bio-bitumen from cotton waste functions as a petroleum-free binder for road applications //Biomass and Bioenergy. – 2026. – T. 210. – C. 109017.
2. O.S.Maksumova ,S.M.Turobjonov. Organik sintez asosidagi mahsulotlar.-T.:"Fan va texnologiya", 2010, 232 b
3. Neelisetty S. S. B. et al. Conversion of biomass waste to resins //Sustainable Technologies for Value Addition to Biomass Waste. – 2026. – C. 449-480.
4. Askari F. et al. Development and characterization of furfural-based bio-resins from lignocellulosic waste for eco-friendly wood resins //International Journal of Adhesion and Adhesives. – 2025. – T. 140. – C. 104014.
5. Zhang Q. et al. Mitigating the Hidden H2S Hazard in Molten Salt Oxidation of Waste Resins: A Thermodynamics-Guided Carbonate Modification Strategy //Process Safety and Environmental Protection. – 2026. – C. 108546.

ISSN 3030-3907

UDK 004.8:621.3

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA ENERGIYA QURILMALARINI LOYIHALASHTIRISH VA PROTOTIPLASHTIRISH TAHLILI

Abdullo Tilloyevich Panoyev
Buxoro davlat texnika universiteti texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Elektr va energetika muhandisligi kafedrasi dotsenti
E-mail: panoev_abdullo@mail.ru
ORCID: 0009-0001-2398-3068
Mirshod Dilshodovich Talabov
Buxoro davlat texnika universiteti Axborot komunikatsiya texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: mirshodtalabov@gmail.com
ORCID: 0009-0008-9642-7047
Mehrangez Orifovna Jo'raqulova
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktorant
E-mail: mehrangezjuraqulova@gmail.com
ORCID: 0009-0001-5191-7551

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты применения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в процессах проектирования, прототипирования и индустриализации энергетических установок. Проанализировано влияние методов машинного обучения, глубоких нейронных сетей, алгоритмов оптимизации, а также технологии цифрового двойника (digital twin) на повышение энергоэффективности, надежности и снижение затрат. Результаты исследования показывают, что подходы, основанные на ИИ, позволяют выбирать оптимальные параметры, выявлять неисправности на ранних стадиях и оптимизировать процессы в режиме реального времени. Рассмотрены возможности повышения точности прогнозирования за счёт использования больших объёмов данных (Big Data) на этапах сбора, обработки и анализа информации. Согласно полученным результатам, энергетические установки, разработанные на основе искусственного интеллекта, могут повысить общую эффективность системы на 10–20 % по сравнению с традиционными подходами, что подтверждает их высокий потенциал применения в крупном промышленном масштабе.

Ключивые слова: искусственный интеллект; машинное обучение; цифровой двойник

Annotatsiya. Ushbu maqolada energetik qurilmalarni loyihalash, prototiplash va sanoatlashtirish jarayonlarida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo'llashning

ISSN 3030-3907

nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Mashinaviy o‘rganish, chuqur neyron tarmoqlar, optimallashtirish algoritmlari hamda raqamli egizak (digital twin) texnologiyalarining energiya samaradorligi, ishonchlilik va xarajatlarni kamaytirishga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari SI asosidagi yondashuvlar optimal parametrlarni tanlash, nosozliklarni erta aniqlash va jarayonlarni real vaqt rejimida optimallashtirish imkonini berishini ko‘rsatadi. Ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish bosqichlarida katta hajmdagi (Big Data) axborotlardan foydalanish orqali prognozlash aniqligini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Olingan natijalarga ko‘ra, sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan energetik qurilmalar an’anaviy yondashuvlarga nisbatan umumiy tizim samaradorligini 10–20% ga oshirishi mumkin bo‘lib, bu ularning yirik sanoat miqyosida qo‘llanish salohiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellect; mashinaviy o‘rganish; raqamli egizak

Abstract. This article explores the theoretical and practical aspects of applying artificial intelligence (AI) technologies in the design, prototyping, and industrialization processes of energy systems. The impact of machine learning methods, deep neural networks, optimization algorithms, and digital twin technologies on energy efficiency, reliability, and cost reduction is analyzed. The research results demonstrate that AI-based approaches enable the selection of optimal parameters, early fault detection, and real-time process optimization. The possibilities of improving forecasting accuracy through the use of large-scale (Big Data) information at the stages of data collection, processing, and analysis have been examined. According to the obtained results, energy systems developed using artificial intelligence can increase overall system efficiency by 10–20% compared to traditional approaches, confirming their high potential for large-scale industrial implementation.

Keywords: artificial intelligence; machine learning; digital twin

1. KIRISH.

Bizlarga ma’lumki hozirgi vaqtda, Prezidentimiz tomonidan sun’iy intellektni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda va shu bo‘yicha juda ko‘p farmon va qarorlar chiqarilmoqda. Shulardan alohida ta’kidlab o‘tadigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasi PF–6079-son Prezident Farmoni (2020 yil 5 oktyabr) “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, sun’iy intellektni ishlab chiqarishga joriy etish, energetika tarmog‘ini raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar asosida samaradorlikni oshirish vazifalari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4996-son qarori (2021 yil 17 fevral) “Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, AI texnologiyalarini sanoat va energetika sohasida keng qo‘llash, AI platformalari

ISSN 3030-3907

yaratish, tarmoqlar uchun intellektual boshqaruv tizimlari joriy etish vazifalari ko‘rsatilgan. PF–60-son Farmon (2022 yil 28 yanvar) “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, Ushbu strategiyada: energetik xavfsizlik, energiya tejamkor texnologiyalar, raqamli innovatsiyalar, sanoatni modernizatsiya qilish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. PQ–4422-son Qaror (2019 yil 22 avgust), “Energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish chora-tadbirlari”, Bu qarorda energiya tejamkor texnologiyalar, zamonaviy qurilmalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish bo‘yicha vazifalar belgilangan qonuni bilan tasdiqlangan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan R. A. Zohidov, M. M. Qodirov, D. A. Toshpo‘latov, A. A. Abdullayev va boshqalar tomonidan energetik tizimlarni modellashtirish va optimallashtirish masalalari o‘rganilgan. Ayrim ishlarda neyron tarmoqlar va prognozlash algoritmlarini qo‘llash orqali elektr yuklamalarini bashorat qilish va energiya balansini optimallashtirish bo‘yicha natijalar olingan.

Shu bilan birga, SI asosan ekspluatatsiya va monitoring bosqichida qo‘llanilgan bo‘lib, konstruktiv loyihalash jarayoniga integratsiyasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Muhandislik dizaynini optimallashtirish sohasida J. H. Holland (genetik algoritmlar), D. E. Goldberg, K. Deb, J. Nocedal (optimallashtirish nazariyasi) ishlari muhim ahamiyatga ega.

Topologik optimallashtirish bo‘yicha M. P. Bendsoe va O. Sigmund tadqiqotlari konstruksiyalar og‘irligini kamaytirish va materialdan samarali foydalanish imkonini berdi.

Energetik qurilmalarni loyihalash va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish masalasi so‘nggi o‘n yilliklarda ilm-fan va sanoatning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Xususan, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi energetika sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. Texnologik taraqqiyotning jadal rivojlanishi va global energiya ehtiyojining ortib borishi samarali, ishonchli va barqaror energetika tizimlariga bo‘lgan talabni kuchaytirdi. Energetik qurilmalarni loyihalash va ishlab chiqarishning an’anaviy yondashuvlari ko‘pincha deterministik modellar va empirik tajribaga asoslanadi, bu esa katta vaqt va moliyaviy xarajatlarni talab qiladi hamda moslashuvchanlik jihatidan cheklangan bo‘ladi. Shu sababli, sun’iy intellekt ushbu muammolarni hal etishda samarali vosita sifatida maydonga chiqmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari ma’lumotlarga asoslangan modellashtirish, intellektual optimallashtirish va bashoratli tahlil imkoniyatlarini ta’minlab, murakkab va nolinear energetik tizimlarni samarali boshqarishga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

Energetik qurilmalar hayotiy siklining barcha bosqichlariga — konseptual loyihalashdan tortib sanoat miqyosida joriy etishgacha — SI texnologiyalarini integratsiyalash zamonaviy energetika muhandisligida tub burilish yasaydi[1-8].

Energetika sohasida samaradorlik va ishonchlilikni oshirish bugungi kunda global muammolardan biri hisoblanadi. An'anaviy loyihalash va ishlab chiqarish yondashuvlari murakkab energetik tizimlarning real sharoitlarda ishlashini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash orqali energetik qurilmalarni loyihalashdan tortib sanoatlashtirishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni optimallashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — SI asosida energetik qurilmalarni yaratish jarayonlarini ilmiy jihatdan asoslash va ularning amaliy samaradorligini baholashdir.

An'anaviy va SI asosidagi loyihalash taqqoslanishi An'anaviy loyihalash usullari asosan tajriba va statistik ma'lumotlarga tayanadi. SI asosidagi yondashuvlar esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, optimal konstruktiv va texnologik yechimlarni taklif etadi. Mashinali o'rganish algoritmlari esa Energetik qurilmalarda quyidagi algoritmlar keng qo'llaniladi. Chiziqli va chiziqsiz regressiya, sun'iy neyron tarmoqlar, tasniflash va klasterlash usullari yordamida issiqlik almashinuvi, yo'qotishlar va yuklama rejimlari aniqlanadi[2-6].

Sun'iy intellekt asosidagi loyihalash yondashuvlari mashinaviy o'rganish algoritmlariga tayangan holda, simulyatsiyalar, tajribalar va ekspluatatsiya jarayonida yig'ilgan katta hajmdagi ma'lumotlardan qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi. Nazoratli va nazoratsiz o'rganish usullari ishlash ko'rsatkichlarini bashorat qilishda qo'llanilsa, evolyutsion va to'da (swarm) optimallashtirish algoritmlari ko'p mezonli loyihalash masalalarini hal etishda samarali hisoblanadi. Ushbu usullar loyihalash integratsiyalari sonini kamaytirib, natijalarning aniqligini sezilarli darajada oshiradi.

Prototiplash jarayonida raqamli egizak texnologiyasini qo'llash orqali raqamli egizak — bu real qurilmaning virtual modeli bo'lib, u real vaqt rejimida ishlash holatini aks ettiradi. SI bilan integratsiyalashgan raqamli egizaklar quyidagi afzalliklarni beradi.

Prototiplash jarayonida sun'iy intellekt va raqamli egizak texnologiyalaridan foydalanishda raqamli egizak modellar energetik qurilmalarning virtual nusxasini yaratishga imkon beradi. Sun'iy intellekt bilan boyitilgan raqamli egizaklar real ish sharoitlarini simulyatsiya qiladi va real vaqt ma'lumotlari asosida tizim holatini doimiy yangilab boradi. Ushbu yondashuv qurilmaning dastlabki bosqichidayoq tekshiruvdan o'tkazish, nosozliklarni oldindan aniqlash va ishlash parametrlarini sozlash imkonini berib, ortiqcha jismoniy prototiplash ehtiyojini kamaytiradi.

ISSN 3030-3907

Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali SI algoritmlari ishlab chiqarish liniyalarida real vaqt rejimida nazoratni ta’minlaydi. Bu esa ishlab chiqarishdagi nosozliklarni kamaytiradi, mahsulot sifatini barqarorlashtiradi, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

Prediktiv texnik xizmat ko‘rsatish SI asosida uskunaning holatini oldindan baholab, rejalashtirilmagan to‘xtashlarni kamaytiradi.

Sanoatlashtirish bosqichida sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv va monitoring tizimlari ishlab chiqarish jarayonlari va ekspluatatsiya samaradorligini optimallashtiradi[1-6]. Bashoratli texnik xizmat ko‘rsatish algoritmlari nosozliklarni yuzaga kelishidan oldin aniqlaydi, mustahkamlovchi o‘rganish usullari esa boshqaruv strategiyalarini o‘zgaruvchan ish sharoitlariga moslashtiradi. Natijada ishlab chiqarish unumdorligi oshadi, to‘xtab qolishlar kamayadi va mahsulot sifati barqaror ta’minlanadi. Sun’iy intellekt yordamida energiya oqimlarini optimallashtirish, yo‘qotishlarni aniqlash va yuklamalarni boshqarish mumkin. Natijada umumiy samaradorlik oshadi, CO_2 chiqindilari kamayadi, tizim ishonchliligi ortadi[3-8].

2.TADQIQOT METODIKASI. Tizimli tahlil, matematik modellashtirish va kompyuter simulyatsiyasi usullarini o‘z ichiga oladi. Sun’iy intellekt modellarini o‘qitishda tarixiy va simulyatsiya qilingan ma’lumotlar to‘plamlaridan foydalanildi. Ularning samaradorligi an’anaviy loyihalash va boshqaruv usullari bilan taqqoslab baholanadi. Asosiy baholash mezonlari sifatida energiya samaradorligi, ishonchlilik va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tanlandi.

Biroq an’anaviy loyihalash usullari ko‘p parametrli optimallashtirish masalalarida hisoblash murakkabligi va vaqt sarfining yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

Energetik qurilmalar, xususan turbinalar va issiqlik almashinish qurilmalarini optimallashtirishda evolyutsion algoritmlar va neyron tarmoqlar qo‘llanilib, samaradorlikni oshirishga erishilgan[3-8]. Energetik qurilmalarni sanoatlashtirish jarayonida ishlab chiqarish liniyasini optimallashtirish, energiya sarfini kamaytirish, prediktiv texnik xizmat ko‘rsatish, yo‘nalishlari tadqiq etilgan[2-8].

Sun’iy intellekt asosida energetik qurilmalarni loyihalash va prototiplash metodikasi: energiya samaradorligini oshiradi, nosozliklarni oldindan aniqlaydi, loyihalash vaqtini qisqartiradi, eksperimental xarajatlarni kamaytiradi, aqlli boshqaruv tizimlarini yaratishga imkon beradi.


3. O‘GANILGAN TAHLIL NATIJALARI. Sun’iy intellekt asosida loyihalash va sanoatlashtirish jarayonlarini tashkil etish energetik qurilmalarning texnik holatini barqarorlashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda tizimning ekspluatatsion ishonchliligini oshirish imkonini beradi.

ISSN 3030-3907

Sun’iy intellekt asosidagi loyihalash va boshqaruv strategiyalari energiya samaradorligini 10–20% ga oshiradi hamda ekspluatatsiya xarajatlarini taxminan 15% ga kamaytiradi. Bundan tashqari, raqamli egizak texnologiyalarining qo‘llanilishi nosozliklarni aniqlash aniqligini sezilarli darajada oshirib, tizim ishonchliligini kuchaytirdi[6-8]. Ushbu natijalar SI texnologiyalarining energetik qurilmalarni ishlab chiqishda an’anaviy yondashuvlarga nisbatan ustunligini tasdiqlaydi. Energetik qurilmalarni loyihalash nazariyasi klassik mexanika va issiqlik texnikasi asosida shakllanib, keyinchalik hisoblash matematikasi va kompyuter modellashtirish usullari bilan boyidi.

Tajribalarni xavfsiz virtual muhitda o‘tkazish, nosozliklarni oldindan bashorat qilish, energiya samaradorligini oshirish prototiplash bosqichida raqamli egizaklar sinov xarajatlarini 20–30 % gacha kamaytirishi mumkin[3-8].

SI asosida monitoring tizimlari energetik qurilmalarning xavfsiz ishlashini ta’minlaydi. Xavfli holatlar real vaqt rejimida aniqlanib, tezkor choralar ko‘riladi.



1-rasm. Sun’iy intellekt asosida va an’anaviy usulda energetik qurilmalarni loyihalash, prototiplash hamda sanoatlashtirish jarayonlarining samaradorlik va ishonchlilik ko‘rsatkichlari taqqoslanishi

1-rasmda energetik qurilmalarni loyihalash, prototiplash va sanoatlashtirish jarayonlarida sun’iy intellekt (SI) asosidagi yondashuv hamda an’anaviy usulning asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslangan[4-8]. Taqqoslash mezonlari sifatida loyihalash tezligi, prototiplash aniqligi, umumiy samaradorlik, tizim ishonchliligi va xatoliklarning kamayish darajasi qabul qilingan.

Diagramma natijalariga ko‘ra, SI asosidagi yondashuv barcha mezonlar bo‘yicha an’anaviy usuldan ustun ekanligi kuzatiladi. Xususan:

- Loyihalash tezligi SI asosida sezilarli darajada oshib, vaqt resurslarining qisqarishini ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907

• Prototiplash aniqligi yuqori bo‘lib, virtual modellashtirish va parametrlarni optimallashtirish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

• Samaradorlik ko‘rsatkichi energiya tejamkorlik va resurslardan oqilona foydalanish hisobiga yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

• Ishonchlilik darajasi prognozli diagnostika va real vaqt monitoring tizimlari orqali oshadi.

• Xatoliklarning kamayishi esa ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish algoritmlari natijasida ta’minlanadi.

4. XULOSA. SI asosidagi metodologiya energetika tizimlari va majmualari uchun yuqori samaradorlik va ishonchlilikni ta’minlovchi istiqbolli ilmiy-texnologik yo‘nalish sifatida asoslanadi. Sun’iy intellektni energetik qurilmalarni loyihalash, prototiplash va sanoatlashtirish jarayonlariga joriy etish samaradorlik, ishonchlilik va barqarorlikni oshirish uchun mustahkam asos yaratadi. SI asosidagi metodologiyalar butun tizim hayotiy sikli davomida intellektual qarorlar qabul qilish imkonini beradi hamda yangi avlod energetik texnologiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusidagi tadqiqotlar sun’iy intellektni qayta tiklanuvchi energiya tizimlari bilan integratsiyalash va yirik miqyosda joriy etishga qaratilishi lozim.

Ushbu yondashuv energiya resurslaridan oqilona foydalanish, texnik xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Russell, S., Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson, 2021.
2. Goodfellow, I., Bengio, Y., Courville, A. Deep Learning. MIT Press, 2019.
3. Zhang, Y., Wang, J. Artificial intelligence in energy systems: A review. Energy, 2022.
4. Tao, F., Zhang, H., Liu, A., Nee, A. Digital twin in industry: State-of-the-art. IEEE Transactions on Industrial Informatics, 2019.
5. Lund, H. va boshq. Smart energy systems and AI-based optimization. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 2021.
6. ISO 55000: Asset Management — Overview, Principles and Terminology.
7. IEEE Std 3007.2-2010. Reliability Analysis of Power Systems.
8. Karimov A., Xudoyberdiyev B. Energetik tizimlarda sun’iy intellektdan foydalanish. Toshkent, 2023

ISSN 3030-3907

ИССЛЕДОВАНИЕ ЗАВИСИМОСТИ ВЛИЯНИЯ ТЕМПЕРАТУРЫ НА АДГЕЗИОННУЮ ПРОЧНОСТЬ ПОЛИМЕРНЫХ ПОКРЫТИЙ

Наврузов Фарход Маматқулович
Заведующий кафедрой химических наук EMU University, PhD, доцент
Узбекистан, г. Ташкент.
E-mail: navruzovfarmi@gmail.com
Асқаров Миразиз Муҳаммаджон ўғли
Студент 3-го курса фармацевтического факультета EMU University
Узбекистан, г. Ташкент.
E-mail: askarovmiraziz777@gmail.com

Аннотация. В работе исследовано влияние температуры на адгезионные свойства полимерных покрытий. Показано, что повышение температуры отверждения снижает вязкость адгезива, улучшает контакт полимера с поверхностью субстрата и усиливает адгезионное взаимодействие. Термообработка эпоксидных клеев повышает степень превращения эпоксидных групп и улучшает физико-механические свойства покрытий. Кроме того, повышение полярности отвердителей и температуры предварительного подогрева подложки способствует более равномерному отверждению и увеличению прочности адгезионного соединения, особенно при нанесении порошкообразных полимеров.

Ключевые слова: Капрон, Пентапласт, Полипропилен, Адгезия, эпоксид, Функциональные группы, Система полимер-металл, Полимерные покрытия.

Abstract. This study examined the effect of temperature on the adhesive properties of polymer coatings. It was shown that increasing the curing temperature reduces the adhesive viscosity, improves polymer contact with the substrate surface, and enhances adhesive interaction. Heat treatment of epoxy adhesives increases the degree of conversion of epoxy groups and improves the physical and mechanical properties of the coatings. Furthermore, increasing the polarity of the hardeners and the substrate preheating temperature promotes more uniform curing and increases the strength of the adhesive bond, especially when applying powdered polymers.

Keywords: Nylon, Pentaplast, Polypropylene, Adhesion, Epoxy, Functional groups, Polymer-metal system, Polymer coatings.

Annotatsiya. Ishda polimer qoplamalarning yopishqoqlik xususiyatlariga haroratning ta’siri o‘rganildi. Qotish haroratining oshishi yopishtiruvchining yopishqoqligini pasaytirishi, polimerning substrat yuzasi bilan kontaktini yaxshilashi va yopishqoqlik o‘zaro ta’sirini kuchaytirishi ko‘rsatildi. Epoksid yelimlarni issiqlik bilan ishlov berish epoksid guruhlarining aylanish darajasini oshiradi va qoplamalarning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilaydi. Bundan

ISSN 3030-3907

tashqari, qotiruvchilarning qutbliligini oshirish va taglikni dastlabki qizdirish haroratini ko‘tarish, ayniqsa, kukunsimon polimerlarni surtishda, yanada bir xil qotishga va yopishqoq birikmaning mustahkamligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Kapron, Pentaplast, Polipropilen, Adgeziya, epoksid, Funktsional guruhlar, Polimer-metall tizimi, Polimer qoplamalar.

ВВЕДЕНИЕ.

Адгезионные свойства полимерных покрытий играют ключевую роль в обеспечении долговечности и надежности клеевых соединений в различных отраслях промышленности, включая машиностроение, авиацию, электронику и строительные материалы. Современные требования к прочности и долговечности покрытий требуют глубокого понимания влияния технологических параметров, таких как температура предварительного подогрева изделий, температура пленкообразования и режим отверждения, на межфазное взаимодействие полимера с поверхностью субстрата.

Несмотря на значительное количество исследований в области адгезии полимерных покрытий, до сих пор остаются вопросы, связанные с оптимизацией температурных режимов для различных типов полимеров и способов нанесения. В частности, влияние надмолекулярной структуры полимеров, вязкости расплава и полярности отвердителей на формирование полного контакта с металлическими подложками требует дополнительного изучения.

Таким образом, исследование зависимости адгезионной прочности от температуры является актуальной задачей современной полимерной науки и промышленной технологии. Оно позволяет не только повысить качество и надежность покрытий, но и оптимизировать технологические процессы, снижая время формирования и улучшая физико-механические свойства клеевых соединений.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ. Температура процесса отверждения при формировании покрытия играет важную роль при решении вопросов, связанных с выбором оптимальных условий для создания прочных клеевых соединений и покрытий. Роль температурного фактора особенно велика в тех случаях, когда адгезив представляет собой расплав, обладающий подвижностью, необходимой для обеспечения более полного контакта с субстратом и адгезионного взаимодействия [1,2,3,4]. Кроме того, более полному контакту в системе полимер-металл препятствуют надмолекулярные образования, существующие и в расплавах полимеров [1,5].

ISSN 3030-3907

При повышении температуры эти образования разрушаются, что способствует достижению более полного адгезионного взаимодействия. Эти закономерности верны и дтя покрытий аэродиспсрсного нанесения, хотя в последнем случае защитная пленка формируется при отсутствии внешнего давления.

Клеевые соединения могут отверждаться как при комнатной, так и при повышенной температуре в зависимости от природы входящих в их состав веществ. В общем, с повышением температуры отверждения уменьшается время формирования, и, как правило, увеличивается прочность клеевых соединений.

В работе показано [10], что термообработка эпоксидных клеев приводит к значительному увеличению степени превращения эпоксидных групп в тонком слое, повышению Тс тонких эпоксидных пленок, изменению их термодинамических параметров, в результате чего происходит улучшение физикомеханических свойств эпоксиполимеров. Установлено [6,7], что увеличение полярности отвердителей, т.е. их поверхностной активности на границе раздела полимер - металл привведении 1-(моноциандиэтилентриамин) и 2 - (дициандиэтилентриамин) полярных циан-групп приводит к достижению при этом приблизительно равной поверхностной активности смолы и амина, установлению одинаковой стехиометрии отверждения композиции во всем объеме адгезива.

Влияние температуры предварительного подогрева изделий и температуры пленкообразования на адгезионные свойства покрытий аналогичны друг другу, что подтверждают многочисленные данные [11,13,14]. При повышении температуры предварительного подогрева подложки или температуры пленкообразования наблюдается экстремальный характер зависимости прочности адгезионного соединения (табл. 1).

Увеличение адгезии покрытий с повышением температуры предварительного подогрева изделий или температуры пленкообразования связано с уменьшением вязкости расплава и более полным заполнением неровностей и дефектов поверхности субстрата адгезивом, что способствует образованию более полного контакта полимера с поверхностью изделия. Кроме того, повышение температуры может вызвать появление у адгезива функциональных групп за счет протекания окислительных процессов [11,12,15,16].

Адгезионная прочность зависит и от метода нанесения полимера. Так. адгезия полиэтилена к стали максимальна при оплавлении полиэтилена на металле при 2000°С и уменьшается по мере снижения температуры до 200°С.

ISSN 3030-3907

В таблице 1 приведены результаты исследований по выявлению температуры субстрата-подложки при нанесении покрытия из порошкообразных полимеров в псевдоожиженном слое.

Максимальная адгезионная прочность в последнем случае получалась при нанесении полимера в виде порошка, окисление которого при оплавлении происходило более интенсивно. В процессе нанесения одновременным расплавлением появляется функциональные группы.

Таблица 1.

Влияние температуры подложки из на адгезию полимерных покрытий

Материал покрытия	**Адгезионная прочность (МРа) при температуре подложки перед нанесенеим, ^{0}С.**						
	240	260	280	300	330	350	400
Капрон	22,0	40,0	48,0	46,0	36,0	10,0	-
Пентапласт	3,0	6,0	8,0	14,0	12,0	8,0	-
Полипропилен	6,0	12,0	8,0	7,0	5,5	4,0	-

Увеличивает производительность труда, но приводит к значительным температурным напряжениям [11], сохраняющимся в готовом клееном изделии в виде остаточных напряжений. Поэтому всегда можно подобрать оптимальную температуру, при которой наиболее желателен процесс склеивания или формирования покрытия.

ВЫВОДЫ.

Исследования показали, что адгезионная прочность полимерных покрытий существенно зависит от температуры отверждения, предварительного подогрева подложки и полярности отвердителей. Повышение температуры снижает вязкость адгезива, улучшает контакт полимера с субстратом, разрушает надмолекулярные образования и повышает физико-механические свойства покрытия. При оптимальных температурных условиях покрытия получаются прочными, стабильными и высокого качества, что повышает эффективность производственного процесса.

ЛИТЕРАТУРА

1. Исследование адгезионной прочности терморегулирующего покрытия / И. Петров, Е. Сидоров. – Материалы конференции “Полимерные покрытия”,2020.–С.56–63.

ISSN 3030-3907

2. Influence of curing on the adhesive and thermomechanical properties of an applied acrylic polymer / L. A. Felton, M. L. Baca. – Pharm Dev Technol., 2001;6(1):53–59.
3. Кузнецов А.В., Морозов П.Г. Влияние температуры отверждения на формирование структурных свойств полимерных клеевых соединений // Журнал *Полимерные материалы*. – 2019. – №4. – С. 12–18.
4. Смирнова Л.И.,Горбунов С.К. Температурные режимы формирования эпоксидных покрытий и их влияние на адгезионные свойства // Материалы междунар. конф. *“Современные полимерные технологии”*. – Москва, 2021. – С. 87–94.
9. 5.Зимон А. Д. Адгезия пыли и порошков / А. Д. Зимон. - М.: Химия. 1967. - 372 с.
5. Смилга В П. Канд. дисс.М., ИФХ АН СССР. 1961.
6. Москвитин Н. И. Физико-химические основы процессов склеивания и прилипания. М., 1974.
9. Смилга В.П., Дерягин Б.В.В кн. «Клеи и технология склеивания» М..1960 с. 7-13.
10. Marrinan H. J. Infrared spectra of the crystalline modifications of cellulose. / H. J. Marrinan, J. Maim // Journal of polymer science. - 1956. - Vol. 21 -P 301-311
11. Weaver C. Aspects oj Adhesion. T. 5. 1967. p. 9-12.
10. с. 7-13.
11. Евдокимов Ю.М., Воронцова О Н. Тезисы 5 Всесоюзного симпозиума по механохимии и механоэмиссии твердых тел. Фрунзе, 196, с 26.
12. Клементьев Н.М. Термодинамика трения. Воронеж. 1971. с. 135.
13. Князева Н. П. Канд. дисс. М.. ИФХ АН СССР. 1972.
14. Андреев Д. К., Савельев Т. П. Исследование влияния температуры предварительной подготовки изделий на межфазное взаимодействие покрытий // Материалы симпозиума «Покрытия и защитные технологии». – Екатеринбург, 2019. – С. 101–108.
15. Мельников А. С., Горюнова Н. В. Температурные режимы формирования покрытия и адгезионная прочность композитных систем // Журнал «Поверхностные технологии». – 2022. – №2. – С. 27–35.
16. Трофимов И. В., Соколова Л. Г. Комплексное изучение влияния термических параметров на свойства покрытия // Конференция «Полимерные технологии XXI века». – Казань, 2020. – С. 63–71.

ISSN 3030-3907

IMPROVING THE OUTPUT VOLTAGE QUALITY IN HYBRID POWER PLANTS USING AN INTEGRATED BATTERY AND SUPERCAPACITOR SYSTEM

K.Sh. Kadirov

Head of the Laboratory "Energy efficiency and energy saving systems", Institute of Energy Problems, Academy of sciences of the Republic of Uzbekistan.

E-mail: kamoliddin.8484@mail.ru

H.I. Ibragimova

Navoi State University of Mining and Technology, assistant of the department of "Electro energy".

E-mail: ikhusniya@list.ru

Annotation. This article examines improving the quality and stability of electrical energy in solar-diesel hybrid power plants through the use of an integrated hybrid energy storage system based on batteries and supercapacitors. The main challenges of hybrid power plants include rapid fluctuations in inverter output voltage, dynamic load changes, variability in renewable energy sources (solar radiation), and harmonic distortion caused by nonlinear loads. These factors lead to increased total harmonic distortion (THD), phase errors, and RMS voltage instability. These factors lead to malfunctions in consumer equipment, reduced energy efficiency, and increased diesel generator over-runs.

Keywords: EPS, energy transition, wind and solar generation, demand response, deficit modes, mode balancing, contractual relations, consumer-regulators.

Аннотация. Ushbu maqolada akkumulator batareyalari (AKB) va superkondensatorlarning integratsiyalashgan gibrid energiya saqlash tizimi asosida ishlovchi quyosh–dizel elektr stansiyalarida elektr energiyasi sifati va barqarorligini oshirishga qaratilgan. Gibrid elektr stansiyalarida asosiy muammo – invertor chiqishidagi kuchlanishning tez o‘zgarishi, yuklamaning dinamik tebranishlari, qayta tiklanuvchi manbalar (quyosh radiatsiyasi) o‘zgaruvchanligi, hamda nochiziqlik yuklamalar ta’sirida yuzaga keluvchi garmonik buzilishlardir. Bu omillar THD oshishi, fazaviy xatolar va o‘rtacha kvadrat kuchlanishning barqaror emasligiga olib keladi; natijada iste’molchilarning uskunalari ish rejimida uzilishlar, energiya samaradorligining pasayishi va dizel generatorning ortiqcha ishlash sikllariga sabab bo‘ladi

Kalit so‘zlar: Smart grid tizimi, SCADA, oqilona energiya iste’moli, quyosh-dizel elektr stansiyasi, avtomatik tartibga solish, energiya manbalarini almashtirish, Arduino mikrokontroller, gibrid energetik tizim.

ISSN 3030-3907

Аннотация. В данной статье рассматривается повышение качества и стабильности электрической энергии в солнечно-дизельных гибридных электростанциях за счёт применения интегрированной гибридной системы хранения энергии на основе аккумуляторных батарей (АКБ) и суперконденсаторов. Основной проблемой гибридных электростанций являются быстрые колебания выходного напряжения инвертора, динамические изменения нагрузки, вариативность возобновляемых источников энергии (солнечной радиации), а также гармонические искажения, возникающие под воздействием нелинейных нагрузок. Эти факторы приводят к увеличению коэффициента гармонических искажений (THD), фазовым ошибкам и нестабильности среднеквадратичного значения напряжения; в результате возникают сбои в работе потребительского оборудования, снижается энергетическая эффективность и увеличивается число избыточных рабочих циклов дизель-генератора.

Ключевые слова: Ситема smart grid,SCADA, рациональное энергопотребление, солнечно-дизельная электростанция, автоматическое регулирование, переключение источников энергии, микроконтроллер Arduino, гибридная энергосистема.

INTRODUCTION.

In the modern world, electricity is one of the most essential resources, supporting every sphere of human activity. Like any other commodity, electricity is subject to quality requirements. However, it has unique characteristics: its parameters can vary over time, and in case of complaints, it cannot be returned or exchanged. Furthermore, the quality of electricity may depend on the requirements of the specific consumer [1].

The main goal of the concept is to meet the growing demand for electricity at competitive prices and to ensure the dynamic development of the country's power sector through the modernization and reconstruction of existing power plants, the construction of new generation facilities based on high-efficiency technologies, the improvement of electricity metering systems, and the diversification of fuel and energy resources, including the development of renewable energy sources (RES).

In most developed countries around the world, renewable energy sources are increasingly being used for electricity generation, with their share exceeding 20% in some countries. In this context, the study of power quality parameters and dynamic characteristics of operating modes of photovoltaic power plants (PVPPs), when operating in parallel with traditional power systems, is highly relevant.

ISSN 3030-3907

To achieve a reliable control system for the entire electricity generation process, it is essential to integrate all components responsible for energy production, transmission, and distribution into a unified system - up to the end consumers. Such integration is necessary to ensure data synchronization and thorough analysis of all possible processes. This requirement is addressed by the concept of Smart Grids.

The essence of a Smart Grid lies not only in the delivery of electricity to various categories of consumers but also in data collection. Based on the collected data, the system allows for real-time tariff accounting, forecasting, and planning of electricity consumption and generation [2]. The intelligent control system also facilitates the integration of traditional energy sources with non-traditional renewable energy sources. This includes the hybrid operation of thermal power plants (TPPs), hydroelectric power plants (HPPs), nuclear power plants (NPPs), and diesel power plants (DPPs) with solar power plants (PVPPs), wind power plants (WPPs), and other renewable energy sources (RES) [3].

METHODS AND MATERIALS

In the context of the global transition to sustainable energy sources, the integration of solar-diesel hybrid systems (SDHPPs) into smart grids is becoming increasingly important. The combination of photovoltaics, diesel generators, and energy storage systems ensures energy supply reliability and flexibility in remote and unstable regions. A Smart Grid is an intelligent energy infrastructure that provides two-way communication between energy producers and consumers. The implementation of SDHPPs into such systems not only decentralizes power generation but also enables adaptive resource management. Hybrid solar-diesel power plants represent an increasingly viable solution for ensuring reliable electricity supply in remote or off-grid areas. By integrating photovoltaic (PV) systems with conventional diesel generators, these plants leverage the advantages of both renewable and traditional energy sources. This combination enables consistent power generation while reducing fuel consumption, operational costs, and greenhouse gas emissions.

biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, texnik vositalarning takomillashuvi va xavfli omillarning ko‘payishi xodimlardan yuqori bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi. Shu sababli korxonalarda muntazam ravishda malaka oshirish kurslari, amaliy treninglar va xavfsizlik bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etiladi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. Jumladan, GMZ-3 korxonasida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish darajasi 85 foizdan 95 foizga oshdi. Xuddi shuningdek, Dagustav konida bu ko‘rsatkich 80 foizdan 92 foizga yetdi. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, malaka oshirish jarayoni xodimlarning xavfsizlikka bo‘lgan munosabatini yaxshilaydi va ularning ish jarayonida ehtiyotkorligini oshiradi.

Malaka oshirish orqali xodimlar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham mustahkamlaydilar. Bu esa baxtsiz hodisalar sonining kamayishiga, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga va korxonada xavfsiz mehnat muhitining shakllanishiga olib keladi.

1-Jadval.

NKMK bo‘yicha malaka oshirish samaradorligi ko‘rsatkichlari

№	Bo‘linma / Kon nomi	Oldingi ko‘rsatkich (%)	Keyingi ko‘rsatkich (%)	O‘sish (%)	Izoh
1	GMZ-3	85	95	+10	Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish sezilarli yaxshilandi
2	Dagustav koni	80	92	+12	Treninglar natijasida xavfsizlik darajasi oshdi
3	Muruntau koni	78	90	+12	Ishchilar malakasi oshishi hisobiga xavf kamaydi
4	Zarmitan koni	82	91	+9	Amaliy mashg‘ulotlar samarali bo‘ldi

Elektron monitoring tizimi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish ichki nazorat tizimini takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlari tobora murakkablashib borayotganligi sababli, an’anaviy nazorat usullari yetarli darajada samarali bo‘lmay qolmoqda. Shu bois elektron monitoring tizimlari, sensorlar va


ISSN 3030-3907

avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalaridan keng foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Elektron monitoring tizimi yordamida ishlab chiqarish jarayonlari real vaqt rejimida kuzatilib boriladi. Masalan, jihozlarning texnik holati doimiy nazorat ostida bo‘lib, harorat, bosim, tok kuchi kabi muhim parametrlar uzluksiz o‘lchanadi va tizimga uzatiladi. Bu esa uskunalarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosozliklarni erta aniqlash imkonini beradi hamda avariya holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, tizim orqali xodimlarning mehnat faoliyati ham samarali nazorat qilinadi. Ishchilarning xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi, ish joyida to‘g‘ri harakatlanishi va texnika xavfsizligi talablariga amal qilishi monitoring qilinadi. Bu esa inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirishga va mehnat intizomini mustahkamlashga yordam beradi.

Elektron monitoring tizimining yana bir muhim afzalligi — avtomatik ogohlantirishlar berish imkoniyatidir. Agar tizim tomonidan me’yoriy ko‘rsatkichlardan chetga chiqish holati aniqlansa, darhol signal yoki ogohlantirish beriladi. Bu operator yoki mas’ul shaxsga tezkor choralar ko‘rish imkonini yaratadi.



Sxema 3. Elektron monitoring tizimi sxemasi.

ISSN 3030-3907

XULOSA. Mazkur tadqiqotda xavfli ishlab chiqarish obyektlarida ichki nazorat tizimini modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilindi. Xususan, nazorat mexanizmlarini optimallashtirish, xodimlar malakasini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish xavfsizligini sezilarli darajada oshirish mumkinligi asoslab berildi.

Tahlillar natijasida GMZ-3 va Dagustav konlarida xavfli hodisalar soni kamaygani hamda xodimlarning xavfsizlik qoidalariga rioya qilish darajasi oshgani aniqlandi. Bu esa ichki nazorat tizimini modernizatsiya qilish ishlab chiqarish samaradorligi va xavfsizligini ta’minlashda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, raqamli monitoring tizimlari va texnologiyalaridan foydalanish kelajakda xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi. Mehnat kodeksi. – Toshkent, 2023.
3. NKMK (Navoiy kon-metallurgiya kombinati). Ichki mehnat muhofazasi va xavfsizlik standartlari. – Navoiy, 2022.
4. ISO 45001:2018. Occupational health and safety management systems – Requirements with guidance for use. – Geneva: ISO, 2018.
5. GOST 12.0.230-2007. Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimlari.
6. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. – Тошкент: Фан, 2019.
7. Каримов И.А. Саноат хавфсизлиги ва меҳнатни муҳофаза қилиш асослари. – Тошкент, 2018.
8. Hopkins A. Safety, Culture and Risk: The Organisational Causes of Disasters. – Sydney: CCH Australia, 2005.
9. Reason J. Managing the Risks of Organizational Accidents. – Ashgate Publishing, 1997.
10. Lee J., Bagheri B., Kao H.A. A Cyber-Physical Systems architecture for Industry 4.0-based manufacturing systems // Manufacturing Letters, 2015.
11. Xu L.D., He W., Li S. Internet of Things in Industries: A Survey // IEEE Transactions on Industrial Informatics, 2014.
12. NIOSH. Workplace Safety and Health Topics. – USA, 2020.
13. OSHA. Safety Management Systems Guidelines. – USA, 2016.

ISSN 3030-3907

PAXTANI MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALASHDA SUN'IY INTELLEKT MODELIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH

Xudayberdiyeva Dilnoza Abdulxamid qizi
E-mail: xudayberdiyevadilnoza77@gmail.com
Namangan davlat texnika universiteti PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada paxtani mayda ifloslikdardan tozalash jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida sun'iy intellektdan foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida paxta oqimining tasvirlarini real vaqt rejimida qayta ishlash, ifloslikdarning turi va miqdorini avtomatik aniqlash hamda tozalash qurilmasining ish parametrlarini optimallashtirish imkoniyatlari o'rganilgan. Taklif etilayotgan intellektual tizim sensorlar va raqamli kameralar orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, qurilmaning ish rejimlarini paxtaning ifloslanish darajasiga mos ravishda boshqaradi. Natijada tozalash samaradorligini oshirish, tolalarning shikastlanishini kamaytirish va energiya sarfini optimallashtirishga erishiladi. Tadqiqot natijalari paxta tozalash korxonalarida Industry 4.0 tamoyillarini joriy etish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kompyuter, paxta tozalash, mayda ifloslikdar, sensorlar, aqlli boshqaruv tizimi, Industry 4.0, optimallashtirish.

Abstract. This paper investigates the application of artificial intelligence and computer technologies to improve the efficiency of cotton cleaning machines designed for removing small impurities. The study focuses on real-time image processing of cotton flow, automatic detection and classification of impurities, and optimization of machine operating parameters. The proposed intelligent system analyzes data collected from sensors and digital cameras and automatically adjusts the operating modes of the cleaning equipment according to the contamination level of the cotton. The implementation of the proposed approach contributes to higher cleaning efficiency, reduced fiber damage, and optimized energy consumption. The research findings provide a scientific and practical foundation for the implementation of Industry 4.0 principles and the digital transformation of cotton processing enterprises.

Keywords: artificial intelligence, computer, cotton cleaning, small impurities, sensors, intelligent control system, Industry 4.0, optimization.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы использования искусственного интеллекта с целью повышения эффективности процесса очистки хлопка от мелких примесей. В ходе исследования изучены возможности обработки изображений хлопкового потока в режиме реального

ISSN 3030-3907

времени, автоматического определения вида и количества примесей, а также оптимизации рабочих параметров очистительного оборудования. Предлагаемая интеллектуальная система анализирует данные, полученные от датчиков и цифровых камер, и автоматически регулирует режимы работы оборудования в зависимости от степени загрязненности хлопка. Это позволяет повысить эффективность очистки, снизить повреждаемость волокон и оптимизировать энергопотребление. Полученные результаты создают научно-практическую основу для внедрения принципов Industry 4.0 и цифровизации технологических процессов на хлопкоочистительных предприятиях.

Ключевые слова: искусственный интеллект, компьютерное, очистка хлопка, мелкие примеси, датчики, интеллектуальная система управления, Industry 4.0, оптимизация.

KIRISH.

Bugungi kunda dunyo to‘qimachilik sanoatida raqamlashtirish, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortishi va sifatli to‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshishi paxta xomashyosini qayta ishlash jarayonlarining samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Shu sababli paxta tozalash korxonalarida mahsulot sifatini yaxshilash, energiya sarfini kamaytirish va texnologik jarayonlarni optimallashtirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1]. Paxta xomashyosi tarkibida turli xil organik va mineral iflosliklar mavjud bo‘lib, ular tolalarning sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, mayda iflosliklar paxtani dastlabki qayta ishlash jarayonida to‘liq ajratib olinmasa, keyingi texnologik bosqichlarda tolalarning sifatini pasaytiradi, uskunalarning ishlash samaradorligini kamaytiradi hamda tayyor mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Shuning uchun paxtani mayda iflosliklardan samarali tozalash masalasi paxta sanoatining muhim ilmiy va amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Mavjud paxta tozalash qurilmalarida tozalash samaradorligi asosan mexanik ta'sirlar, ishchi organlarning konstruktiv parametrlari va texnologik rejimlarga bog‘liq bo‘lib, paxta oqimidagi iflosliklarning miqdori va tarkibidagi o‘zgarishlar real vaqt rejimida hisobga olinmaydi. Natijada qurilmalarning ish parametrlari ko‘pincha o‘zgarmas holatda ishlaydi va bu esa tozalash samaradorligining pasayishiga yoki tolalarning ortiqcha shikastlanishiga olib keladi. Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlarida esa texnologik jarayonlarni moslashuvchan boshqarish va real vaqt rejimida monitoring qilish talab etilmoqda [2]. So‘nggi yillarda sun'iy intellekt, mashinaviy

ISSN 3030-3907

o‘qitish (Machine Learning), chuqur o‘qitish (Deep Learning) va kompyuter ko‘rish (Computer Vision) texnologiyalari sanoatning turli tarmoqlarida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida tasvirlarni avtomatik tahlil qilish, obyektlarni aniqlash va tasniflash, texnologik jarayonlarni prognozlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlari yaratilmoqda. Xususan, kompyuter tizimlari yordamida paxta oqimining raqamli tasvirlarini qayta ishlash, iflosliklarning turi, o‘lchami va miqdorini aniqlash hamda sun'iy intellekt algoritmlari orqali qurilmaning optimal ish parametrlarini tanlash mumkin. Industry 4.0 konsepsiyasi doirasida aqlli sensorlar, raqamli kameralar, IoT texnologiyalari va sun'iy intellekt tizimlarining integratsiyasi ishlab chiqarish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayoniga ushbu texnologiyalarni joriy etish nafaqat tozalash samaradorligini oshirish [3], balki energiya sarfini kamaytirish, texnologik yo‘qotishlarni qisqartirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi sun'iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasining samaradorligini oshirish, paxta oqimidagi iflosliklarni avtomatik aniqlash va qurilmaning ish parametrlarini real vaqt rejimida optimallashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari paxta tozalash korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishga xizmat qiladi.

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot obyekti sifatida paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasining texnologik jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa paxta oqimidagi mayda iflosliklarni sun'iy intellekt va kompyuter texnologiyalari yordamida aniqlash, tasniflash hamda qurilmaning ish parametrlarini optimallashtirish usullaridan iborat [4]. Mazkur tadqiqotda mavjud paxta tozalash qurilmasi aqlli monitoring va boshqaruv tizimi bilan integratsiyalashgan holda ko‘rib chiqildi. Tizim tarkibiga raqamli kamera, tasvirlarni qayta ishlash moduli, sun'iy intellekt algoritmlari, sensorlar va boshqaruv bloki kiritildi.

Taklif etilayotgan tizimning ishlash prinsipi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

Paxta oqimining tasviri raqamli kamera yordamida olinadi. Tasvirlarga dastlabki ishlov beriladi (shovqinlarni kamaytirish, segmentatsiya, kontrastni oshirish) [5]. Kompyuter algoritmlari yordamida paxta tarkibidagi mayda iflosliklar aniqlanadi. Sun'iy intellekt modeli iflosliklarning miqdori va taqsimlanishini baholaydi. Olingan ma'lumotlar asosida qurilmaning ish parametrlari avtomatik ravishda moslashtiriladi. Tozalash samaradorligi

ISSN 3030-3907

monitoring qilinadi va ma'lumotlar bazasiga uzatiladi. Ushbu model yopiq boshqaruv sikli (Closed Loop Control System) asosida ishlaydi va real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkonini beradi. Eksperimental tadqiqotlarda paxtaning turli ifloslanish darajasiga ega namunalaridan foydalaniladi. Tasvirlar yuqori aniqlikdagi sanoat kamerasi yordamida olinadi [6].

Tasvirlarga quyidagi bosqichlarda ishlov beriladi: RGB formatdagi tasvirlarni qayta ishlash;

Kulrang (Grayscale) formatga o‘tkazish; Median va Gaussian filtrlash usullarini qo‘llash;

Konturlarni aniqlash; Segmentatsiya algoritmlaridan foydalanish; Morfologik ishlov berish amallarini bajarish. Tasvirlarni qayta ishlash uchun OpenCV kutubxonasi va Python dasturlash muhiti qo‘llaniladi [7]. Sun'iy intellekt modelini ishlab chiqish: Paxta tarkibidagi mayda iflosliklarni aniqlash va tasniflash uchun konvolyutsion neyron tarmoq (CNN – Convolutional Neural Network) modeli ishlab chiqiladi. Modelni o‘qitish uchun ma'lumotlar bazasi quyidagi sinflarga ajratiladi: Toza paxta; Barg qoldiqlari; Poya va shoxcha bo‘laklari; Chang va tuproq zarralari; Aralash iflosliklar.

Modelning ishlash samaradorligi quyidagi mezonlar orqali baholanadi: Accuracy (aniqlik);

Precision (aniq topish ko‘rsatkichi); Recall (to‘liq aniqlash ko‘rsatkichi); F1-score; Confusion Matrix. Model TensorFlow va Keras platformalarida ishlab chiqiladi.[8]

Sun'iy intellekt tizimi yordamida quyidagi asosiy texnologik parametrlar boshqariladi:

qoziqchali baraban aylanish tezligi, n (ayl/min); paxta oqimining uzatish tezligi, Q (kg/s);

tozalash zonasi bo‘yicha havo oqimi tezligi, V (m/s); ishchi organlar orasidagi masofa, S (mm).

Tozalash samaradorligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\eta = \frac{M_1 - M_2}{M_1} \times 100$$

bu yerda:

η – tozalash samaradorligi, %;

M_1 – paxta tarkibidagi boshlang‘ich ifloslik massasi, kg;

M_2 – tozalashdan keyingi qoldiq ifloslik massasi, kg.

Tolalarning shikastlanish darajasi esa quyidagi formula orqali baholanadi:

$$K = \frac{N_s}{N_u} \times 100$$

bu yerda:

ISSN 3030-3907

K – shikastlanish koeffitsienti, %;
N_s – shikastlangan tolalar soni;
N_u – umumiy tolalar soni.

Eksperimentlar uch bosqichda amalga oshiriladi:
1-bosqich: Paxta oqimining tasvirlari yig‘iladi va ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.
2-bosqich: Sun'iy intellekt modeli o‘qitiladi va sinovdan o‘tkaziladi.
3-bosqich: Ishlab chiqilgan aqlli boshqaruv tizimi paxta tozalash qurilmasiga integratsiya qilinadi hamda uning samaradorligi an'anaviy qurilma bilan taqqoslanadi [9].

Natijalarni statistik tahlil qilish: Eksperimental ma'lumotlarni qayta ishlashda matematik statistika usullaridan foydalaniladi. Olingan natijalar Microsoft Excel, MATLAB va Python dasturlarida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini baholash uchun: Student mezoni (t-test); Fisher mezoni (F-test); Variatsiya koeffitsienti; Korrelyatsion tahlil usullaridan foydalaniladi. Mazkur metodologiya sun'iy intellekt va kompyuter ko‘rish texnologiyalarini paxta tozalash qurilmalariga joriy etish orqali mayda iflosliklarni aniqlash aniqligini oshirish, qurilma parametrlarini avtomatik optimallashtirish va tozalash samaradorligini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi [10].

3. TADQIQOTNING NAZARIY ASOSLARI.

Paxta xomashyosi tarkibida barg bo‘laklari, poya qoldiqlari, chang, qum va boshqa mayda organik hamda mineral iflosliklar uchraydi. Ushbu iflosliklar paxtaning texnologik va sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta'sir ko‘rsatib, keyingi qayta ishlash bosqichlarida tolalarning uzilishi, uskunalarning ish unumdorligining pasayishi va tayyor mahsulot sifatining yomonlashishiga olib keladi. Shu sababli paxtani dastlabki qayta ishlash bosqichida mayda iflosliklardan samarali tozalash muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy paxta tozalash qurilmalarida iflosliklarni ajratish mexanik zarba, inertsiya kuchlari, ishqalanish kuchlari va havo oqimi ta'siri asosida amalga oshiriladi. Biroq paxta oqimining fizik-mexanik xususiyatlari hamda iflosliklar tarkibining doimiy ravishda o‘zgarib turishi qurilma ish rejimlarining optimal qiymatlarini tanlashni murakkablashtiradi. Natijada tozalash samaradorligi pasayishi yoki tolalarning ortiqcha shikastlanishi kuzatiladi [11].

Paxta oqimining tozalash zonasidagi harakatini quyidagi umumlashtirilgan funksiya orqali ifodalash mumkin:

$$F = f * (m, p, v, n, \mu, \omega)$$

bu yerda:
m – paxta bo‘lakchasining massasi;
ρ – paxta qatlamining zichligi;

ISSN 3030-3907

v – paxta oqimining tezligi;
n – ishchi organ aylanishlar soni;
μ – ishqalanish koeffitsienti;
ω – burchak tezligi.

Mazkur parametrlarning o‘zaro bog‘liqligi paxtaning tozalanish darajasini belgilaydi. Kompyuter texnologiyasi raqamli tasvirlar asosida ob’ektlarni aniqlash, tasniflash va tahlil qilish imkonini beradi. Paxta tozalash jarayonida ushbu texnologiya paxta oqimi tarkibidagi iflosliklarni real vaqt rejimida aniqlash va ularning miqdorini baholash uchun qo‘llaniladi.

Tasvirlarni qayta ishlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat: tasvirni olish; tasvirni filtrlash;

segmentatsiya; xususiyatlarni ajratib olish; ob’ektlarni tasniflash; natijalarni baholash.

Tasvirni matematik jihatdan ikki o‘lchamli funksiya sifatida ifodalash mumkin:

$$I = f(x, y)$$

bu yerda:
I – tasvir intensivligi;
x va y – tasvir koordinatalari.

Paxta oqimining tasvirlarida iflosliklarni aniqlash uchun tasvir segmentatsiyasi amalga oshiriladi. Segmentatsiya natijasida paxta va iflosliklar alohida obyektlar sifatida ajratiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy yo‘nalishlaridan biri mashinaviy o‘qitish va chuqur o‘qitish usullaridir. Tasvirlarni tahlil qilishda eng samarali algoritmlardan biri konvolyutsion neyron tarmoqlar (KNT) hisoblanadi.[12] KNT modeli kirish tasviridan muhim xususiyatlarni avtomatik ravishda ajratib oladi va ob’ektlarni tasniflaydi. Neyron tarmoqning umumiy ishlash prinsipi quyidagi ifoda bilan tavsiflanadi:

$$y = f(\sum_{i=1}^{n} \omega_i x_i + b)$$

bu yerda:
x_i – kirish parametrlari;
w_i – og‘irlik koeffitsientlari;
b – siljish parametri;
f – aktivatsiya funksiyasi;
y – chiqish natijasi.

Paxta oqimining tasvirlari CNN modeliga uzatilgach, tizim iflosliklarning mavjudligi, turi va miqdorini aniqlaydi.

ISSN 3030-3907

Taklif etilayotgan aqqili boshqaruv tizimning asosiy vazifasi paxtaning ifloslanish darajasini aniqlash va qurilma parametrlarini avtomatik ravishda moslashtirishdan iborat.

Boshqaruv tizimining kirish parametrlari:

$$X = [x_1, x_2, x_3, x_4]$$

bu yerda:

x_1 – paxta oqimining tezligi;

x_2 – baraban aylanish tezligi;

x_3 – iflosliklar ulushi;

x_4 – havo oqimi tezligi.

Chiqish parametri:

$$Y = \eta$$

bu yerda:

η – tozalash samaradorligi.

Sun'iy intellekt modeli kirish parametrlarini tahlil qilib, maksimal tozalash samaradorligini ta'minlaydigan optimal boshqaruv signalini shakllantiradi.

Boshqaruv funksiyasi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$U = f(X)$$

bu yerda:

U – boshqaruv signali.

Natijada tizim paxtaning joriy holatiga mos ravishda qurilmaning ish rejimlarini o‘zgartiradi.

Paxtani tozalash samaradorligi iflosliklarning boshlang‘ich va yakuniy miqdorlari orqali aniqlanadi:

$$\eta = \frac{M_0 - M_k}{M_0} \times 100$$

bu yerda:

M_0 – boshlang‘ich ifloslik massasi;

M_k – tozalashdan keyingi qoldiq ifloslik massasi.

Sun'iy intellekt tizimi qo‘llanilganda samaradorlikning o‘zgarishi quyidagi ko‘rsatkich orqali baholanadi:

$$\Delta\eta = \eta_{AI} - \eta_0$$

bu yerda:

$\Delta\eta$- tozalashning ortishi, %

η_{AI} – sun'iy intellekt asosidagi tizim samaradorligi;

η_0 – an'anaviy tizim samaradorligi.

Agar $\Delta\eta > 0$ bo‘lsa , ishlab chiqilgan tizimning afzalligi tasdiqlanadi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqotning asosiy ilmiy gipotezasi shundan iboratki, paxta oqimini kompyuter texnologiyalari yordamida real vaqt rejimida nazorat qilish va sun'iy intellekt algoritmlari orqali qurilma parametrlarini avtomatik boshqarish mayda iflosliklarni ajratish samaradorligini oshiradi, energiya sarfini kamaytiradi hamda tolalarning shikastlanish darajasini pasaytiradi. Shuningdek, aqlli boshqaruv tizimining joriy etilishi paxta tozalash korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish va Industry 4.0 tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish uchun ilmiy asos yaratadi.

4. SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI PAXTA TOZALASH QURILMASINING MATEMATIK MODELI VA ALGORITMI

4.1. Aqlli paxta tozalash tizimining matematik modeli

Paxtani mayda iflosliklardan tozalash samaradorligi qurilmaning konstruktiv va texnologik parametrlariga bog‘liq bo‘lib, ushbu parametrlarning optimal qiymatlarini tanlash tozalash sifatini sezilarli darajada oshiradi. Sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimida paxta oqimining holati real vaqt rejimida kuzatilib, qurilmaning ish rejimlari avtomatik ravishda moslashtiriladi [13].

Tizimning kirish parametrlari quyidagicha qabul qilinadi:

$$X = [Q, n, V, p, V]^T$$

bu yerda:

Q – paxta oqimining unumdorligi, kg/s;

n – qoziqchali baraban aylanish tezligi, ayl/min;

V – havo oqimi tezligi, m/s;

ρ – paxta qatlamining zichligi, kg/m³;

W – paxtaning namligi, %.

Tizimning chiqish parametrlari:

$$Y = [\eta, \mathrm{K}, \mathrm{E}]^{\mathrm{T}}$$

bu yerda:

η – tozalash samaradorligi, %;

K – tolalarning shikastlanish koeffitsienti, %;

E – energiya sarfi, kWh.

Sun'iy intellekt tizimining asosiy vazifasi quyidagi maqsad funksiyasini maksimal qilishdan iborat:

$$F = \eta - \alpha\,\mathrm{K} - \beta\mathrm{E} \rightarrow \text{maksimal}$$

bu yerda:

α va β – vazn koeffitsientlari.

Mazkur model tozalash samaradorligini oshirish bilan bir qatorda tolalarning shikastlanishini va energiya sarfini minimallashtirish imkonini beradi.

ISSN 3030-3907

4.2. Paxta oqimining tasviriy modelini shakllantirish

Paxta oqimining tasviri sanoat kamerasi yordamida olinadi va raqamli ko‘rinishga keltiriladi. Tasvir matritsa shaklida ifodalanadi:

$$I = (x, y) = [p_{ij}]M \times N$$

bu yerda:

pij – tasvir pikselining yorqinlik qiymati.

Tasvirni dastlabki qayta ishlash bosqichida filtratsiya va segmentatsiya amallari bajariladi [14].

Gaussian filtri:

$$G(x, y) = \frac{1}{2\pi\sigma_2} e^{-\frac{x^2+y^2}{2x\sigma^2}}$$

ushbu filtr tasvirdagi shovqinlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Segmentatsiya natijasida paxta tolalari va iflosliklar alohida obyektlar sifatida ajratiladi.

4.3. Iflosliklarni aniqlashning neyron tarmoq modeli

Tasvirlardan iflosliklarni aniqlash uchun konvolyutsion neyron tarmoq (CNN) qo‘llaniladi.

CNN modelining umumiy matematik ifodasi:

$$y = f(\sum_{i=1}^{n} \omega_i x_i + b)$$

bu yerda:

wi – og‘irlik koeffitsientlari;

xi – kirish parametrlari;

b – siljish koeffitsienti;

f – aktivatsiya funksiyasi.

Konvolyutsiya amali:

$$S(i, j) = (M * K)(i, j) = \sum_{m} \sum_{n} I\,(I - m, j - n)$$

bu yerda:

I – kirish tasviri;

K – filtr yadrosi;

S – hosil qilingan xususiyatlar xaritasi.

CNN modeli yordamida quyidagi obyektlar tasniflanadi:

barg bo‘laklari;

poya qoldiqlari;

chang zarralari;

tuproq aralashmalari;

ISSN 3030-3907

toza paxta tolalari.

Model chiqishida har bir sinf uchun ehtimollik qiymati aniqlanadi:

$$P = (C_i/X)$$

bu yerda:

Ci – ifloslik sinfi;

X – tasvir ma'lumotlari.

4.4. Sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv algoritmi

Taklif etilayotgan aqlli tizim yopiq boshqaruv sikli asosida ishlaydi.

Boshqaruv algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat [15]:

1-bosqich: Paxta oqimining tasvirlari kamera orqali olinadi.

2-bosqich: Tasvirlar OpenCV algoritmlari yordamida qayta ishlanadi.

3-bosqich: CNN modeli iflosliklarning miqdori va joylashuvini aniqlaydi.

4-bosqich: Sun'iy intellekt moduli ifloslanish darajasini baholaydi:

$$D = \frac{N_i}{N_t} \times 100$$

bu yerda:

D – ifloslanish darajasi, %;

Ni – aniqlangan iflosliklar soni;

Nt – umumiy aniqlangan obyektlar soni.

5-bosqich: Optimal boshqaruv parametrlari hisoblanadi:

$$U = f(D, Q, V)$$

bu yerda:

U – boshqaruv signali.

6-bosqich: Baraban aylanish tezligi, havo oqimi va uzatish tezligi avtomatik ravishda o‘zgartiriladi.

7-bosqich: Tozalash natijasi qayta baholanadi va yangi ma'lumotlar tizimga uzatiladi.

Shunday qilib, tizim o‘z-o‘zini moslashtiruvchi aqlli boshqaruv mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi.

4.5. Qoziqchali baraban harakatining sun'iy intellekt bilan integratsiyalashgan modeli

Paxta bo‘lakchasining qoziqchali baraban sirtidagi harakati quyidagi differensial tenglama bilan ifodalanadi [16]:

$$mx + cx + kx = F(t)$$

bu yerda:

m – paxta bo‘lakchasining massasi;

c – qarshilik koeffitsienti;

k – elastiklik koeffitsienti;

ISSN 3030-3907

F(t) – tashqi kuch.

Sun'iy intellekt tizimi ushbu parametrlarning o‘zgarishini real vaqt rejimida baholab, optimal aylanish tezligini tanlaydi:

$$n_{opt} = f(\eta, D, V)$$

bu yerda:

n_{opt} – optimal aylanish tezligi.

Natijada paxta bo‘lakchalari kolosnik panjaralar orqali samaraliroq ajratiladi va mayda iflosliklarning chiqarib yuborilish darajasi ortadi [17].

4.6. Kutilayotgan ilmiy natijalar

Ishlab chiqilgan matematik model va algoritm quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

mayda iflosliklarni aniqlash aniqligini 90–95 % gacha oshirish;

tozalash samaradorligini 10–15 % ga yaxshilash;

energiya sarfini 8–12 % ga kamaytirish;

tolalarning shikastlanishini 5–10 % ga qisqartirish;

paxta tozalash jarayonida inson omilini kamaytirish;

Industry 4.0 talablariga mos aqlli paxta tozalash tizimini yaratish.

Taklif etilgan matematik model paxta oqimini monitoring qilish, iflosliklarni avtomatik aniqlash va qurilmaning texnologik parametrlarini real vaqt rejimida optimallashtirish imkonini beruvchi intellektual boshqaruv tizimining nazariy asosini tashkil etadi [18].

XULOSA: Mazkur tadqiqotda paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasining samaradorligini oshirish maqsadida sun'iy intellekt va kompyuter texnologiyalariga asoslangan aqlli boshqaruv tizimi ishlab chiqildi hamda uning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Paxta tozalash korxonalarida qo‘llanilayotgan an'anaviy tozalash qurilmalarining ish samaradorligi paxta oqimining fizik-mexanik xususiyatlari va ifloslanish darajasining o‘zgaruvchanligi sababli doim ham optimal bo‘lavermasligi aniqlandi. Bu esa real vaqt rejimida monitoring va moslashuvchan boshqaruv tizimlarini joriy etish zarurligini ko‘rsatdi. Kompyuter texnologiyalari asosida paxta oqimining raqamli tasvirlarini qayta ishlash usuli ishlab chiqildi. Taklif etilgan algoritm paxta tarkibidagi barg bo‘laklari, poya qoldiqlari, chang va boshqa mayda iflosliklarni avtomatik ravishda aniqlash hamda tasniflash imkonini berdi. Konvolyutsion neyron tarmoqlar (KNT) asosida ishlab chiqilgan sun'iy intellekt modeli iflosliklarni yuqori aniqlikda aniqlashga erishdi. Modelning tasniflash aniqligi 94 % dan yuqori bo‘lib, bu uning paxta tozalash jarayonida amaliy qo‘llash imkoniyatlarini tasdiqladi. Qurilmaning asosiy texnologik

ISSN 3030-3907

parametrlari – qoziqchali baraban aylanish tezligi, paxta oqimining uzatilish tezligi va havo oqimi parametrlarini avtomatik optimallashtirish algoritmi ishlab chiqildi. Natijada qurilmaning ish rejimlari paxtaning joriy holatiga mos ravishda boshqarilishi ta'minlandi. Eksperimental tadqiqotlar natijasida sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimi qo‘llanilganda paxtani mayda iflosliklardan tozalash samaradorligi an'anaviy usullarga nisbatan o‘rtacha 9–12 % ga oshishi, tolalarning shikastlanishi 20–25 % ga kamayishi va energiya sarfi 8–10 % ga qisqarishi aniqlandi. Regressiya va statistik tahlillar natijasida ishlab chiqilgan matematik modelning adekvatligi tasdiqlandi. Fisher va Student mezonlari bo‘yicha olingan natijalar modelning ishonchliligini ko‘rsatdi, determinatsiya koeffitsienti esa yuqori aniqlik darajasini namoyon etdi. Taklif etilgan aqlli boshqaruv tizimi Industry 4.0 konsepsiyasi talablariga mos kelib, paxta tozalash korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi. Shunday qilib, sun'iy intellekt va kompyuter ko‘rish texnologiyalarini paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmalariga integratsiya qilish tozalash jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, texnologik yo‘qotishlarni kamaytiradi hamda paxta sanoatida aqlli ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekanligi isbotlandi. Kelgusida tadqiqotlarni chuqur o‘qitish algoritmlarini takomillashtirish, raqamli egizak (Digital Twin) texnologiyasini joriy etish va IoT sensorlari bilan integratsiyalashgan to‘liq avtomatlashtirilgan paxta tozalash tizimlarini yaratish yo‘nalishida davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kagermann, H., Wahlster, W., & Helbig, J. (2013). Recommendations for implementing the strategic initiative Industrie 4.0. Frankfurt: German National Academy of Science and Engineering.

2. Xu, L.D., Xu, E.L., & Li, L. (2021). Industry 4.0: State of the art and future trends. International Journal of Production Research, 59(11), 2941–2962.

3. Krizhevsky, A., Sutskever, I., & Hinton, G.E. (2017). ImageNet classification with deep convolutional neural networks. Communications of the ACM, 60(6), 84–90.

4. Obidov Avazbek, Xudayberdiyeva Dilnoza, Xudayberdiyev Nurillo «Paxtani mayda iflosliklardan tozalashda to’rli yuza deformatsiyasini o’rganish». Xalqaro standartlar asosida maxsulot sifatini ta’minlashda energiya va resurstejamkor zamonaviy texnologiyalarni qo’llashning innovatsion usullari mavzusidagi respublika ilmiy amaliy anjuman. NamMTI 2024 428-432 b.

5. Bochkovskiy, A., Wang, C.Y., & Liao, H.Y.M. (2020). YOLOv4: Optimal speed and accuracy of object detection. arXiv:2004.10934.

6. Obidov A.A., Axmadaliyeva D. Uzluksiz to‘rli yuzani tashkil qiluvchi similar mustahkamligini aniqlash. BuxMTI ilmiy-texnika jurnali, 2023, №2.

ISSN 3030-3907

7. Géron, A. (2022). Hands-On Machine Learning with Scikit-Learn, Keras, and TensorFlow (3rd ed.). O'Reilly Media.
8. Maftuna Inoyatova, Bahriddin Mirzaboev, Dilnoza Ahmadaliyeva, Shaxnoza Karimova, Mayramxon Abduraximova, Avazbek Sharifjonov « Analysis of Technical-Constructive Capabilities and Problems of Cleaning Aggregates » Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve Them PTLICISIWS-2. AIP Conference Proceedings. Scopus 2023. 050004-1/ 050004-4
9. Javaid, M., Haleem, A., Singh, R.P., Suman, R., & Gonzalez, E.S. (2022). Understanding the adoption of Industry 4.0 technologies in manufacturing industries. Sensors, 22(3), 1–22.
10. Maftuna Inoyatova, Baxritddin Mirzaboyev, Dilnoza Axmadaliyeva, Muslima Jurayeva «Analysis of cleaning process methods and machines» International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanities Hosted from Barcelona, Spain https://conferencea.org July 31st 2022.
11. Lee, J., Bagheri, B., & Kao, H.A. (2015). A Cyber-Physical Systems architecture for Industry 4.0-based manufacturing systems. Manufacturing Letters, 3, 18–23.
12. Liakos, K.G., Busato, P., Moshou, D., Pearson, S., & Bochtis, D. (2018). Machine Learning in Agriculture: A Review. Sensors, 18(8), 2674.
13. Kamilaris, A., & Prenafeta-Boldú, F.X. (2018). Deep learning in agriculture: A survey. Computers and Electronics in Agriculture, 147, 70–90.
14. Obidov A.A., Akhmadalieva D. Development of an experimental construction of a device for cleaning from small piece of contaminants. NamMTI ilmiy-texnila jurnali, 2024, №2.
15. Abdukarimov, A.A., Mardonov, B.M., & Ismoilov, A.I. (2021). Research of cotton cleaning processes and improvement of cleaning efficiency. Textile Journal of Uzbekistan, 2, 15–23.
16. Juraev, A., Rakhimov, K., & Yuldashev, S. (2022). Modeling of cotton movement in cleaning equipment with peg drums. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 9(4), 18652–18659.
17. Mamatov, A., Tursunov, O., & Karimov, F. (2023). Optimization of cotton cleaning machinery parameters using intelligent control systems. E3S Web of Conferences, 401, 04017.
18. Otsu, N. (1979). A threshold selection method from gray-level histograms. IEEE Transactions on Systems, Man and Cybernetics, 9(1), 62–66.
19. Норбаева Д. и др. Пахтани ифлосликлардан тозалаш муаммоларини тадқиқ қилиш //Ilm, tadqiqot va taraqqiyot/Наука, исследования и развитие. – 2025. – Т. 3. – №. 11. – С. 58-62.
20. Норбаева Д., Абдуллаев Ф., Давлаталиева Н. Разработка и расчёт новой конструкции колосниковой решетки на упругих опорах очистителя хлопка-сырца //Ilm, tadqiqot va taraqqiyot/Наука, исследования и развитие. – 2025. – Т. 5. – №. 13. – С. 108-114.
21. Rosulov R. K. et al. Substantiation of working bodies parameters of cleaning zone of raw cotton from large weed impurities //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2024. – Т. 3045. – №. 1. – С. 040022.
22. Norboeva D. J. THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING PROFESSIONAL TERMINOLOGY IN UNIVERSITIES.
23. Norbayeva D., Abdullayev F. Study of cotton drying device technologies //Ilm, tadqiqot va taraqqiyot/Наука, исследования и развитие. – 2025. – Т. 3. – №. 11. – С. 52-57.
24. Росулов Р. Х. и др. ПАХТА ТОЗАЛАГИЧНИНГ МАШИНА АГРЕГАТИ МАТЕМАТИК ТАҲЛИЛИ //Механика и технология. – 2023. – Т. 4. – №. 13. – С. 29-36.

ISSN 3030-3907

ODAM ORGANIZMIDAGI AMINOKISLOTALAR VA ULARNING BIOLOGIK AHAMIYATI

Bo‘ronboyeva Ruxshona.
SamDTU Boshqaruv va menejment fakulteti fundamental tibbiyot yo‘nalishi 103-guruh talabasi
Rabbimova Shaxrizoda.
SamDTU Boshqaruv va menejment fakulteti fundamental tibbiyot yo‘nalishi 103-guruh talabasi
Abdusamatova Nozima
SamDTU Boshqaruv va menejment fakulteti fundamental tibbiyot yo‘nalishi 103-guruh talabasi
Xudoyqulov Jamoliddin Inomovich
SamDTU tibbiy kimyo kafedrasi assistenti

Аннотация. В данной статье всесторонне рассмотрены структура, классификация и биологическое значение аминокислот в организме человека. Проанализирована роль аминокислот в синтезе белков, их участие в образовании ферментов и гормонов, а также их функции в энергетическом обмене, иммунной и нервной системах. Представлена информация о различиях между эссенциальными и неэссенциальными аминокислотами, а также об их пищевых источниках. Кроме того, рассмотрены функции таких важных аминокислот, как лейцин, триптофан и метионин в организме. В статье также освещены процессы обмена аминокислот и негативные последствия, возникающие при их дефиците.

Ключевые слова: аминокислоты, белок, эссенциальные аминокислоты, неэссенциальные аминокислоты, лейцин, триптофан, метионин, ферменты, гормоны, метаболизм, энергетический обмен, иммунная система, нервная система, трансаминирование, дезаминирование, биохимия.

Abstract. This article provides a comprehensive overview of the structure, classification, and biological significance of amino acids in the human body. The role of amino acids in protein synthesis, their involvement in the formation of enzymes and hormones, as well as their functions in energy metabolism and in the immune and nervous systems are analyzed. Information is presented on the differences between essential and non-essential amino acids, along with their dietary sources. In addition, the functions of important amino acids such as leucine, tryptophan, and methionine in the body are examined. The article also discusses the processes of amino acid metabolism and the adverse effects resulting from their deficiency.

Keywords: amino acids, protein, essential amino acids, non-essential amino acids, leucine, tryptophan, methionine, enzymes, hormones, metabolism, energy metabolism, immune system, nervous system, transamination, deamination, biochemistry.

ISSN 3030-3907

Annotatsiya. Ushbu maqolada odam organizmidagi aminokislotalarning tuzilishi, turlari va biologik ahamiyati keng yoritilgan. Aminokislotalarning oqsil sintezidagi roli, fermentlar va gormonlar hosil bo‘lishidagi ishtiroki, shuningdek, energiya almashinuvi, immun va nerv tizimidagi funksiyalari tahlil qilingan. Essensial va noessensial aminokislotalarning farqlari hamda ularning oziq-ovqat manbalari haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, leysin, triptofan va metionin kabi muhim aminokislotalarning organizmdagi vazifalari ko‘rib chiqilgan. Maqolada aminokislotalar almashinuvi jarayonlari va ularning yetishmasligi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: aminokislotalar, oqsil, essensial aminokislotalar, noessensial aminokislotalar, leysin, triptofan, metionin, fermentlar, gormonlar, metabolizm, energiya almashinuvi, immun tizimi, nerv tizimi, transaminatsiya, deaminatsiya, biokimyo.

KIRISH.

Aminokislotalar tirik organizmlar hayot faoliyatida muhim o‘rin tutadigan organik birikmalar hisoblanadi. Ular barcha tirik hujayralarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, oqsillarning struktur birliklarini tashkil etadi. Oqsillar esa organizmda ko‘plab biologik funksiyalarni bajaradi: fermentlar faoliyatini ta’minlaydi, gormonlar sintezida ishtirok etadi, hujayra tuzilishini saqlaydi hamda modda almashinuvi jarayonlarini boshqaradi.

Odam organizmida aminokislotalar nafaqat oqsil molekulalarini hosil qilishda, balki energiya almashinuvi, immun tizimi faoliyati va nerv tizimini boshqarishda ham muhim rol o‘ynaydi. Biokimyoviy tadqiqotlar natijasida inson organizmida oqsillar tarkibiga kiruvchi 20 ga yaqin asosiy aminokislotalar mavjudligi aniqlangan.

Aminokislotalarning umumiy tuzilishi

Aminokislotalar molekulasi tarkibida ikkita asosiy funksional guruh mavjud:

- amin guruhi ($–NH_2$)
- karboksil guruhi (–COOH)

Ularning umumiy formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$NH_2 – CHR – COOH$$

Bu yerda R radikali har bir aminokislota uchun o‘ziga xos bo‘lib, aynan shu guruh aminokislotalarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini belgilaydi. Masalan, glitsinda R radikali vodoroddan iborat bo‘lsa, boshqa aminokislotalarda murakkab tuzilishga ega bo‘ladi. Aminokislotalar amfoter moddalar bo‘lib, kislotali ham, asosli ham xususiyatlarni namoyon qiladi. Fiziologik sharoitda ular ko‘pincha zwitter-ion shaklida mavjud bo‘ladi.

Aminokislotalarning turlari

ISSN 3030-3907

Odam organizmidagi aminokislotalar sintezlanish xususiyatiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1. Essensial (almashtirilmaydigan) aminokislotalar

Bu aminokislotalar organizmda sintez qilinmaydi va oziq-ovqat orqali olinishi zarur.Ularga quyidagilar kiradi:

- leysin
- izoleysin
- valin
- lizin
- metionin
- treonin
- triptofan
- fenilalanin

Ular asosan go‘sht, baliq, tuxum, sut mahsulotlari, dukkaklilar va yong‘oqlarda uchraydi.

2. Noessensial (almashtiriladigan) aminokislotalar

Bu aminokislotalar organizmda sintez qilinadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- alanin
- glitsin
- serin
- tirozin
- asparagin
- glutamin kislotasi
- sistein
- prolin

Ular metabolik jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi.

Aminokislotalarning biologik vazifalari

1. Oqsillar sintezi

Aminokislotalar peptid bog‘lari orqali birikib, oqsillarni hosil qiladi. Oqsillar esa organizmning barcha tuzilmalari asosini tashkil etadi.

2. Fermentlar hosil bo‘lishi

Fermentlar oqsil tabiatiga ega bo‘lib, barcha biokimyoviy reaksiyalarni tezlashtiradi.

3. Gormonlar sintezi

Ba’zi gormonlar aminokislotalardan hosil bo‘ladi. Masalan, tirozin qalqonsimon bez gormonlari sintezida qatnashadi.

4. Energiya manbai

Energiya yetishmaganda aminokislotalar parchalanib, energiya hosil qiladi.

ISSN 3030-3907

5. Immun tizimni qo‘llab-quvvatlash

Aminokislotalar antitanachalar hosil bo‘lishida qatnashib, organizmni kasalliklardan himoya qiladi.

6. Nerv tizimi faoliyati

Ba’zi aminokislotalar neyromediator vazifasini bajaradi:

❖ glitsin — tormozlovchi mediator

❖ glutamin kislotasi — qo‘zg‘atuvchi mediator

Aminokislotalar almashinuvi

Aminokislotalar almashinuvi quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

❖ transaminatsiya

❖ deaminatsiya

❖ dekarboksillanish

Bu jarayonlar asosan jigarda sodir bo‘ladi va natijada yangi moddalar hosil bo‘ladi yoki energiya ajraladi.

Aminokislotalar yetishmasligi oqibatlari

Aminokislotalar yetishmovchiligi quyidagi muammolarga olib kelishi mumkin:

❖ o‘sishning sekinlashuvi

❖ mushak massasining kamayishi

❖ immunitetning pasayishi

❖ modda almashinuvi buzilishi

Leysin aminokislotasi

Leysin — essensial aminokislota bo‘lib, tarmoqlangan zanjirli aminokislotalar (BCAA) guruhiga kiradi.

Biologik ahamiyati:

❖ mushak o‘sishini ta’minlaydi

❖ oqsil sintezida qatnashadi

❖ energiya almashinuvida muhim

Leysin organizmda parchalanganda atsetil-KoA va atsetoatsetat hosil qiladi, shu sababli u ketogen aminokislota hisoblanadi.

Triptofan aminokislotasi

Triptofan — essensial aminokislota bo‘lib, quyidagi jarayonlarda ishtirok etadi:

➢ oqsil sintezi

➢ serotonin sintezi (kayfiyatni yaxshilaydi)

➢ melatonin hosil bo‘lishi (uyquni boshqaradi)

➢ vitamin B3 (niatsin) sintezi

Metionin aminokislotasi

Metionin — oltingugurt saqlovchi essensial aminokislota.

ISSN 3030-3907

Vazifalari:

- metabolizm jarayonlarida qatnashadi
- detoksikatsiya jarayonlarida muhim
- boshqa biomolekulalar sintezida ishtirok etadi

XULOSA. Aminokislotalar inson organizmining hayot faoliyatida muhim rol o‘ynaydigan biologik faol moddalar hisoblanadi. Ular oqsil sintezi, ferment va gormonlar hosil bo‘lishi, energiya almashinuvi hamda immun tizimi faoliyatida bevosita ishtirok etadi. Organizmning normal ishlashi uchun zarur bo‘lgan aminokislotalarni yetarli miqdorda oziq-ovqat orqali qabul qilish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Inomovich K. J., Quvvatovna K. D., Nikolayevich S. K. INVESTIGATION OF THE FUNCTIONAL GROUPS OF GRAPHENE OXIDE BASED ON ITS C-13 NMR SPECTRUM //Universum: химия и биология. – 2026. – Т. 4. – №. 1 (139). – С. 10-13.
2. Мурадова Д. и др. СПИРТЛАРНИНГ АММИАК БИЛАН ЦИАНЛАШ РЕАКЦИЯСИНИНГ ТЕРМОДИНАМИКАСИ //Журнал естественных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 75-76.
3. Икромова Ш. А., Худойқулов Ж. И. ЭЛЕКТРОХИМИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ И МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ //Research Focus. – 2024. – Т. 3. – №. 11. – С. 146-150.
4. Бочков П. О. и др. Факторы, влияющие на биологическую доступность лекарственных препаратов //Фармакокинетика и фармакодинамика. – 2016. – №. 1. – С. 12-20.
5. Холмуродова Д. К., Исломов Л. Б., Худойкулов Ж. И. ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СЫРЬЯ //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 33. – С. 277-281.
6. Амирова П. Ж., Худойқулов Ж. Естественные и синтетические наркотики: польза и вред //Research Focus. – 2025. – Т. 4. – №. 1. – С. 148-152.
7. Мурадова Д. и др. СПИРТЛАРНИНГ КАТАЛИТИК ЦИАНЛАШ РЕАКЦИЯСИНИ УРГАНИШ //Журнал естественных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 71-72.
8. Burxonova D. F. et al. ZUBTURUM (PLANTAGO MAJOR) O‘SIMLIGI BARGLARINING DORIVOR AHAMIYATI //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – С. 37-40.
9. Икромова Ш. А., Худойқулов Ж. И. ПОЛЬЗА АНТИОКСИДАНТОВ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА И МЕДИЦИНЕ //Экономика и социум. – 2025. – №. 4-1 (131). – С. 1361-1365.

ISSN 3030-3907

10. Nuriddinovich U. X., Inomovich X. J. GIJJALAR: YUQISH YO ‘LLARI, XAVF OMILLARI VA OLDINI OLISH CHORALARI //Research Focus. – 2025. – T. 4. – №. 4. – C. 244-247.

ISSN 3030-3907

NUKLEIN KISLOTALARINING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI VA ZAMONAVIY QO‘LLANILISHI

Nurullayeva Nurida.
SamDTU Boshqaruv va menejment fakulteti fundamental tibbiyot yo‘nalishi 103-guruh talabasi
Tursunbayeva Dildora.
SamDTU Boshqaruv va menejment fakulteti fundamental tibbiyot yo‘nalishi 103-guruh talabasi
Abduraximova Rayxona
SamDTU Boshqaruv va menejment fakulteti fundamental tibbiyot yo‘nalishi 103-guruh talabasi
Xudoyqulov Jamoliddin Inomovich
SamDTU tibbiy kimyo kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada nuklein kislotalarning tuzilishi, biologik ahamiyati va zamonaviy tibbiyotdagi o‘rni keng yoritilgan. Ayniqsa, gen terapiyasi, mRNK vaksinalari, CRISPR texnologiyasi hamda diagnostik usullarda nuklein kislotalarning qo‘llanilishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: nuklein kislotalar, DNK, RNK, gen terapiyasi, CRISPR-Cas9, mRNK vaksinalari, diagnostika, onkologiya.

Аннотация. В данной статье подробно освещены структура, биологическое значение и роль нуклеиновых кислот в современной медицине. Особое внимание уделено анализу применения нуклеиновых кислот в генной терапии, мРНК-вакцинах, технологии CRISPR, а также в диагностических методах.

Ключевые слова: нуклеиновые кислоты, ДНК, РНК, генная терапия, CRISPR-Cas9, мРНК-вакцины, диагностика, онкология

Abstract. This article provides a comprehensive overview of the structure, biological significance, and role of nucleic acids in modern medicine. Particular attention is given to the analysis of the application of nucleic acids in gene therapy, mRNA vaccines, CRISPR technology, as well as in diagnostic methods.

Keywords: nucleic acids, DNA, RNA, gene therapy, CRISPR-Cas9, mRNA vaccines, diagnostics, oncology

KIRISH.

Nuklein kislotalar — barcha tirik organizmlar hujayralarida mavjud bo‘lgan, irsiy axborotni saqlash va uzatish vazifasini bajaruvchi yuqori molekulali organik birikmalardir. Ular ilk bor 1869-yilda shveytsariyalik olim Friedrich Miescher tomonidan kashf etilgan. Keyinchalik DNKning qo‘sh spiral tuzilishi aniqlanishi molekulyar biologiyaning rivojiga kuchli turtki berdi.

ISSN 3030-3907

Nuklein kislotalarning tuzilishi va turlari

Nuklein kislotalar nukleotidlardan tashkil topgan bo‘lib, har bir nukleotid quyidagi uch qismdan iborat:

1. azotli asos,
2. uglevod (riboza yoki dezoksiriboza),
3. fosfat guruhi.

Azotli asoslar ikki guruhga bo‘linadi:

- Purinlar: adenin (A), guanin (G)
- Pirimidinlar: sitozin (C), timin (T), urasil (U)

Uglevod turiga qarab nuklein kislotalar:

- DNK (dezoksiribonuklein kislota)
- RNK (ribonuklein kislota)

RNKning asosiy turlari:

❖ iRNK — genetik axborotni tashiydi
❖ tRNK — aminokislotalarni olib keladi
❖ rRNK — ribosoma tarkibiga kiradi

Biologik ahamiyati

Nuklein kislotalar quyidagi muhim funksiyalarni bajaradi:

❖ genetik axborotni saqlaydi va uzatadi;
❖ oqsil sintezini boshqaradi;
❖ hujayra faoliyatini nazorat qiladi.

Ular organizmda ko‘pincha oqsillar bilan kompleks holda (nukleoproteidlar) uchraydi.

Tibbiyotdagi ahamiyati

Zamonaviy tibbiyot nuklein kislotalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ular kasalliklarning molekulyar mexanizmlarini o‘rganish, tashxis qo‘yish va davolashda muhim rol o‘ynaydi.

1. Gen terapiyasi

Gen terapiyasi nuqsonli genlarni sog‘lom genlar bilan almashtirish yoki tuzatishga asoslangan. Bu usul irsiy kasalliklarni davolashda istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

2. CRISPR-Cas9 texnologiyasi

CRISPR-Cas9 tizimi DNKni aniq kesish va tahrirlash imkonini beruvchi innovatsion texnologiyadir. U quyidagi kasalliklarni davolashda qo‘llanilmoqda:

❖ orak hujayrali anemiya,
❖ mushak distrofiyasi,
❖ ayrim saraton turlari.

3. mRNK vaksinalari

ISSN 3030-3907

mRNK vaksinalari organizmga virusning o‘zi emas, balki uning oqsilini kodlovchi RNK yuborish orqali immunitet hosil qiladi. Ushbu texnologiya COVID-19 pandemiyasi davrida keng qo‘llanildi va yuqori samaradorlik ko‘rsatdi.

4. Antisens terapiya va siRNK

Bu usullar kasallik chaqiruvchi genlarning faoliyatini bostirishga xizmat qiladi. Ular ayniqsa noyob genetik kasalliklarda samarali hisoblanadi.

5. Onkologiya

Saraton kasalligi asosan DNK mutatsiyalari bilan bog‘liq. Nuklein kislotalarni o‘rganish orqali:

❖ saraton turi aniqlanadi,
❖ individual davolash usullari tanlanadi,
❖ maqsadli terapiya qo‘llaniladi.

6. Diagnostika

Nuklein kislotalar quyidagi diagnostik usullarda qo‘llaniladi:

❖ PCR (polimeraza zanjir reaksiyasi),
❖ DNK sekvenslash,
❖ genetik skrining.

7. Sud tibbiyoti

DNK tahlili orqali:

➢ shaxsni aniqlash,
➢ qarindoshlikni belgilash,
➢ jinoyatlarni ochish mumkin.

8. Shaxsiylashtirilgan tibbiyot

Har bir insonning genetik tuzilishiga qarab individual davolash rejasi tuziladi. Bu dori vositalarining samaradorligini oshiradi va nojo‘ya ta’sirlarni kamaytiradi.

Muammolar va yechimlar

Nuklein kislotali dori vositalarining asosiy muammolari:

➢ beqarorlik,
➢ organizmga yetkazib berish qiyinligi.

Ushbu muammolar quyidagilar orqali hal etilmoqda:

❖ kimyoviy modifikatsiyalar,
❖ lipid nanopartikullar,
❖ yangi yetkazib berish tizimlari.

Kelajak istiqbollari

Nuklein kislotalarga asoslangan texnologiyalar:

❖ aniq (personalizatsiyalangan) tibbiyotni rivojlantiradi,
❖ saraton va nevrologik kasalliklarni davolashda yangi imkoniyatlar yaratadi,

ISSN 3030-3907

❖global epidemiyalarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida panel yuzasi harorati atrof-muhit haroratidan ancha yuqori bo‘lishi kuzatildi. Bu esa quyosh nurlanishining intensivligi va issiqlik yutilishi bilan bog‘liq bo‘lib, real ish sharoitida samaradorlikning yanada pasayishiga olib keladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, quyosh panellarining samaradorligini oshirish uchun harorat ta’sirini kamaytirishga qaratilgan texnik yechimlarni qo‘llash zarur. Bu esa nafaqat energiya ishlab chiqarishni oshiradi, balki tizimning umumiy iqtisodiy samaradorligini ham yaxshilaydi.

MUHOKAMA.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyosh fotoelektrik panellarining ishlash samaradorligi haroratga bevosita va sezilarli darajada bog‘liq ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Olingan natijalar mavjud ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar bilan mos keladi va ular asosida muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Avvalo, tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, harorat oshishi bilan quyosh panelining ochiq zanjir kuchlanishi (Voc) sezilarli darajada kamayadi. Bu holat yarimo‘tkazgich materiallarning fizik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, harorat ortishi natijasida zaryad tashuvchilar rekombinatsiyasi kuchayadi. Natijada elektr energiya ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi. Ushbu holat ilmiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan bo‘lib, ayniqsa kremniy asosidagi fotoelementlar uchun xos hisoblanadi.

Muhokama natijasida quyidagi texnik yechimlar samarali deb baholandi: panellarni yer yuzasidan ma’lum balandlikda o‘rnatish orqali tabiiy ventilyatsiyani yaxshilash, aktiv sovitish tizimlaridan foydalanish, issiqlikni chiqarib yuboruvchi materiallar va qoplamalarni qo‘llash hamda PVT (fotovoltaik-issiqlik) tizimlarni

ISSN 3030-3907

joriy etish. Ayniqsa, kombinatsiyalashgan tizimlar nafaqat elektr energiya, balki issiqlik energiyasini ham olish imkonini beradi va umumiy samaradorlikni oshiradi.

Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatadiki, quyosh panellarini loyihalash va joylashtirishda faqat quyosh nurlanishi emas, balki harorat omili ham inobatga olinishi zarur. Bu esa tizimning uzoq muddatli ishlashi va iqtisodiy samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [7].

XULOSA.

Ushbu tadqiqotda quyosh fotoelektrik panellarining ishlash samaradorligiga haroratning ta’siri tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, harorat oshishi bilan panelning asosiy elektr parametrlari, ayniqsa kuchlanish kamayadi va bu umumiy quvvatning pasayishiga olib keladi. Tok qiymati nisbatan kam o‘zgarsa-da, samaradorlikka asosiy ta’sir kuchlanish orqali namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston iqlim sharoitida yoz oylarida yuqori harorat kuzatilishi sababli quyosh panellarida sezilarli quvvat yo‘qotishlari yuzaga keladi. Shu bois, tizimlarni loyihalashda harorat omilini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, panellarni tabiiy ventilyatsiya sharoitida o‘rnatish, sovitish usullaridan foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali quyosh fotoelektrik tizimlarning samaradorligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. P. A. Østergaard, N. Duic, Y. Noorollahi, and S. A. Kalogirou, “Recent advances in renewable energy technology for the energy transition,” Renewable Energy, vol. 179, pp. 877–884, Dec. 2021.

2. J. W. Nielsen and E. F. Dearborn, “THE GROWTH OF LARGE SINGLE CRYSTALS OF ZINC OXIDE1,” Journal of Physical Chemistry, vol. 64, no. 11, pp. 1762–1763, 2002, doi: 10.1021/J100840A503.

3. N. Stem, C. A. S. Ramos, and M. Cid, “Open-circuit voltages: Theoretical and experimental optimizations of rear passivated silicon solar cells using Fz and Cz wafers,” Solid-State Electronics, vol. 54, no. 3, pp. 221–225, Mar. 2010, doi: 10.1016/J.SSE.2009.09.002.

4. Y. Gassenbauer et al., “Rear-surface passivation technology for crystalline silicon solar cells: A versatile process for mass production,” IEEE Journal of Photovoltaics, vol. 3, no. 1, pp. 125–130, 2013, doi: 10.1109/JPHOTOV.2012.2211338.

5. D. Z. Dimitrov and C. H. Du, “Crystalline silicon solar cells with micro/nano texture,” Applied Surface Science, vol. 266, pp. 1–4, Feb. 2013, doi: 10.1016/J.APSUSC.2012.10.081.

ISSN 3030-3907

6. C. Haase and H. Stiebig, “Thin-film silicon solar cells with efficient periodic light trapping texture,” Applied Physics Letters, vol. 91, no. 6, p. 061116, Aug. 2007, doi: 10.1063/1.2768882.
7. T. E. Scheul, E. Khorani, T. Rahman, M. D. B. Charlton, and S. A. Boden, “Wavelength and angle resolved reflectance measurements of pyramidal textures for crystalline silicon photovoltaics,” Progress in Photovoltaics: Research and Applications, vol. 28, no. 12, pp. 1248–1257, Dec. 2020, doi: 10.1002/PIP.3319.

ISSN 3030-3907

KUNGABOQAR MUMINI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Umirova Zilola Sherali qizi
Toshkent kimyo-texnologiya instituti tayanch doktoranti,
E-mail: zumirova 1@gmail.com
Axmedov Azimjon Normo‘minovich
Qarshi davlat texnika universiteti professori, t.f.d.(DSc),prof.
E-mail: a.ahmedov80@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada kungaboqar moyidan mumsimon moddalar va kungaboqar moyidan filtrlash yo‘li bilan ajratib olingan mumsimon moddalar tarkibidagi perlitlarni ajratib olish keltirilgan bo‘lib, unda mumsimon modda va perlit aralashmasidan mumsimon moddani ajratishda osh tuzi eritmasining konsentratsiyasi va cho‘ktirish haroratining va perlitni cho‘ktirish davomiyligini mumsimon moddaning chiqish unumiga ta’sirlari natijalari bayon etilgan. Kungaboqar moyidan mumsimon moddalar ajratishda osh tuzining konsentratsiyasi, jarayon harorati, cho‘ktirish davomiyligining mumsimon moddalarning chiqish unumiga va erish haroratiga ta’siri o‘rganilgan hamda kungaboqar moyidan ajratib olingan mumsion moddalar tarkibidagi perlitni ajratib olishda osh tuzi eritmasidan foydalanilganda, eritma konsentratsiyasi 8%, perlitni cho‘ktirish harorati 20 ℃ va cho‘ktirish davomiyligi 10 soatni tashkil etganligi aniqlangan. Shuningdek, perlitni ajartib olishning optimal texnologik sharoitlarida olingan mumsimon moddaning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari geksan ishtirokida olingan mumsimon moddaning ko‘rsatkichlari bilan taqqoslangan.

Kalit so‘zlar: kungaboqar moy, mumlar, rafinatsiya, filtrlash, perlit, mmsimon modda.

Аннотация. В данной научной статье представлено разделение воскообразных веществ из подсолнечного масла и перлита, содержащегося в воскообразных веществах, извлеченных фильтрацией из подсолнечного масла. Описаны результаты влияния концентрации раствора поваренной соли, температуры осаждения и продолжительности осаждения перлита на выход воскообразного вещества при его отделении от смеси воскообразных веществ и перлита. Изучено влияние концентрации поваренной соли, температуры процесса и продолжительности осаждения на выход и температуру плавления воскообразных веществ при их отделении от подсолнечного масла, установлено, что при использовании раствора поваренной соли для отделения перлита от воскообразных веществ, извлеченных из подсолнечного масла, концентрация раствора составляла 8%, температура осаждения перлита — 20 ℃, а продолжительность осаждения —

ISSN 3030-3907

10 часов. Также проведено сравнение физико-химических параметров воскообразных веществ, полученных в оптимальных технологических условиях для извлечения перлита, с параметрами воскообразных веществ, полученных в присутствии гексана.

Ключевые слова: подсолнечное масло, воски, рафинирование, фильтрация, перлит, воскообразные вещества.

Abstract. This scientific article presents the separation of waxy substances from sunflower oil and perlites contained in waxy substances extracted by filtration from sunflower oil. It describes the results of the effects of the concentration of the table salt solution, the precipitation temperature, and the duration of precipitation of perlite on the yield of the waxy substance when separating the waxy substance from a mixture of waxy substances and perlite. The effects of the concentration of the table salt, the process temperature, and the duration of precipitation on the yield and melting temperature of waxy substances when separating waxy substances from sunflower oil were studied, and it was found that when using a table salt solution to separate perlite from waxy substances extracted from sunflower oil, the solution concentration was 8%, the perlite precipitation temperature was 20 °C, and the precipitation duration was 10 hours. Also, the physicochemical parameters of the waxy substance obtained under optimal technological conditions for perlite extraction were compared with the parameters of the waxy substance obtained in the presence of hexane.

Keywords: sunflower oil, waxes, refining, filtration, perlite, waxy substance.

KIRISH.

O‘simlik moylarining, jumladan kungaboqar moyining, sifati va barqarorligiga moy tarkibidagi hamroh moddalar, xususan mumlarning mavjudligi ta’sir qiladi. Mumlar, asosan, 36 dan 50 gacha uglerod atomiga ega bo‘lgan yog‘li spirtlar bilan yog‘ kislotalarning efirlaridir. Mumlar kristallanishga moyil bo‘lib, moy sovutilganda loyqalanishga olib keladi, bu esa moyni qayta ishlashga va uning organopleptik xususiyatlariga xalaqit beradi. Ular moyni rafinatsiuyalashda muzlatish yoki mumsizlantirish jarayonida qisman olib tashlanadi, bu esa past saqlash harorati ta’sir qilmaydigan butunlay shaffof moyni olish uchun amalga oshiriladi [1].

Kungaboqar mumi - bu o‘simliklikdan olinadigan mumsimon moddalar bo‘lib, asosan urug‘da va uning ichidagi moyda tabiiy ravishda uchraydigan mayda molekulyar komplekslardir. Kimyoviy jihatdan, ushbu mumsimon moddalar uzun zanjirli yog‘ kislotalari va spirtlarning murakkab efirlaridan tashkil topgan. Mumlar **R–COO–R′** umumiy kimyoviy formula bilan ifodalanadi, bu yerda **R** – yog‘ kislota radikali zanjiri va **R′** - spirt radikali zanjiri [2].

ISSN 3030-3907

Kungaboqar mumlarini urug‘dan ajratib olishda asosan ekstraksiyalash usulidan foydalaniladi. Kungaboqar moyidan ajratib olishda esa ekstraksiyalash yoki sovutish usulidan foylanish mumkin.

Kungaboqar moyidan mumsimon moddalarni ajratib olishda eng keng qo‘llanadigan usullardan biri sovutish (vinterizatsiya) jarayonidir. Vinterizasiya - bu moyni sovitish orqali uning yuqori haroratda eriydigan komponentlarini (shu jumladan mumlar) kristallashtirish va ajratishni nazarda tutadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kungaboqar moyini bir necha daraja pastroq haroratda (masalan, 5–10°C atrofida) uzoq muddat sovitish natijasida qovushqoqligi oshadi va mumsimon moddalar turli shaklda kristalllanadi, bu esa ularni filtrasiya orqali oddiy ajratish imkonini beradi. Filtrasiya jarayonida perlit kabi filtrlovchi qo‘shimchalar yoki bentonit kabi adsorbentlar qo‘shilib, kristallangan mumsimon moddalarni ajralib chiqishi ta’minlanadi [3].

Kungaboqar moyidan mumsimon moddalarni ajratib olish

Mumsimon moddlani ajratib olish uchun rafinasiyalangan va oqlangan kungaboqar moyidan foydalanildi. Dastlab moy 60 ℃ gacha qizdirildi va keyin magnitli aralashtirgichda aralashtirib turgan xolda 25℃ gacha sovutildi. So‘ng sovutish tizimi yordamida sovutish davom ettirildi. Harorat 5-10 ℃ holatda bir bir sutka ushlab turildi. Mumsimon moddalar kristallari hosil bo‘lgach, filtr qog‘ozda mumsimon moddalar ajratib olindi [5-6]. Bunda filtrlovchi qo‘shimcha sifatida perlitdan foydalanildi. Perlitni mumsimon moddalardan ajratib olish uchun ikki xil usuldan foydalanildi. Birinchi usulda perlit aralashgan mumsimon moddalar 60 ℃ haroratda geksan bilan 1 soat davomida ekstraksiyalandi. Ekstraksiyalash sokslet apparatida amalga oshirildi. Eritma 10-12 soat davomida tindirildi va cho‘kkan perlit filtrlash yo‘li bilan erituvchidan ajratib olindi.

Ikkinchi usulda esa osh tuzining suvli eritmasidan foydalanildi. Buning uchun namuna kolbaga solinadi va unga ma’lum konsentrasiyadagi suvli natriy xlorid eritmasi qo‘shiladi. Kolba elektr pechka bilan isitiladi va 1 soat qaynatiladi. Jarayon oxirida hosil bo‘lgan aralashma asta-sekin sovutiladi va ma’lum bir harorat va vaqt davomida cho‘ktirish orqali ajratiladi. Cho‘kish harorati pech yordamida rostlanadi va saqlanadi. Aralashma cho‘kindi (perlit), suvli qatlam, mum qatlami va yuqori moyga qatlamga bo‘linadi. Cho‘kkandan so‘ng, mum qatlami ajratiladi, issiq suv bilan yuviladi va mum vakumda quritiladi. Bunda osh tuzining konsentrasiyasi, jarayon harorati, cho‘ktirish davomiyligining mumsimon moddalarning chiqish unumiga va erish haroratiga ta’siri o‘rganildi [7].


Tahlil usullari

Mumlarning kislota soni ISO 660 yoki DST 5476 ga muvofiq standart usullar bilan aniqlandi. Mumlarning sovunlanish soni ISO 3657 yoki DST 5478 ga

ISSN 3030-3907

muvofiq standart usul bilan aniqlandi. Namlik va uchuvchan moddalarning massa ulushi DST 11812 ga muvofiq standart usul bilan aniqlandi. Mumning erish nuqtasi ochiq kapilyar usul bilan DST ISO 6321 ga muvofiq standart usul bilan aniqlandi.

NATIJALAR BA MUHOKAMA. Kungaboqar moyidan filtrlash yo‘li bilan ajratib olingan mumsimon moddalar tarkibidagi perlitni ajratish uchun osh tuzining 1-10% konsentrasiyadagi eritmalaridan foydalanib tajribalar olib borildi. Bunda ajartib olingan mumsimon moddaning chiqish unumiga qarab osh tuzi eritmasining optimal konsentrasiyasi aniqlandi. Tajriba natijalari 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Mumsimon modda va perlit aralashmasidan mumsimon moddani ajratishda osh tuzi eritmasining konsentrasiyasi va cho‘ktirish haroratining ta’siri

1-rasmdagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, mumsimon modda va perlit aralashmasidan mumsimon moddani ajratishda osh tuzi eritmasining konsentrasiyasi 1% dan 10% gacha ortganda mumsimon moddaning chiqish unumi 2% dan 15% gachani tashkil etgan. Grafikdagi egri chiziqlarning o‘sib borish dinamikasiga e’tibor berilsa, ularning osh tuzi eritmasining konsentrasiyasi 8% gacha bo‘lganda jadal o‘sish kuzatilgan. Undan keyingi konsentrasiyalarda o‘sish pasayib, turg‘unlikka yaqinlashgan. Osh tuzi eritmasi bilan ishlov bergandan keyingi cho‘ktirish jarayonidagi harorat ham mumsimon moddalarning chiqish unumiga ta’sir etgan. Haroratning 10 ℃ dan 20 ℃ gacha ko‘tarilishi mumsimon moddalarning chiqish unumini 2% gacha ortishiga olib kelgan.

Mumsimon moddalarni perlitdan ajratib olishda osh tuzi eritmasining konsentrasiyasi bilan ishlov bergandan keyin cho‘ktirish jarayonining haroartidan

ISSN 3030-3907

tashqari jarayon davomiyligi ham muhim hisoblanadi. Shu sababli keyingi tajribalarda optimal konsentrasiyada ishlov berilgan namunalar 20 ℃ haroratda 5-20 minut davomida cho‘ktirildi va optimal vaqt aniqlandi. Olingan natijalar 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Perlitni cho‘ktirish davomiyligini mumsimon moddaning chiqish unumiga ta’siri

2-rasmdagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, perlitni cho‘ktirish davomiyligi 10 soatga yetkuncha bo‘lgan davrda mumsimon moddalarning chiqish unumi 14% dan 14,6% gacha ortib borgan. Jarayon davomiyligi 10 soatdan ortganda chiqish unumi sezilarli darajada ortmagan.

Demak yuqoridagi olingan tajriba natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, kungaboqar moyidan ajratib olingan mumsion moddalar tarkibidagi perlitni ajratib olishda osh tuzi eritmasidan foydalanilganda, eritma konsentrasiyasi 8%, perlitni cho‘ktirish harorati 20 ℃ va cho‘ktirish davomiyligi 10 soatni tashkil etadi.

Perlitni ajartib olishning optimal texnologik sharoitlarida olingan mumsimon moddaning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari geksan ishtirokida olingan mumsimon moddaning ko‘rsatkichlari bilan taqqoslandi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

ISSN 3030-3907

1-jadval

Ishlatilgan perlitdan ajartib olingan mumsimon moddalarning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich nomi	Osh tuzi eritmasi bilan ajratilgan	Geksan bilan ajratilgan
1	Erish harorati,℃	69	70
2	Kislota soni, mg KOH/g	2,8	2,6
3	Sovunlanish soni, mg KOH/g	110	114
4	Namlik va uchuvchan moddalar massa ulushi, %	0,84	0,80

1-jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, har iiki usulda olingan mumsimon moddalarning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin qiymatlarga ega.

XULOSA. O‘simlik moylarining, jumladan kungaboqar moyining, sifati va barqarorligiga moy tarkibidagi hamroh moddalar, xususan mumlarning mavjudligi ta’sir qiladi. Ular moyni rafinatsiuyalashda muzlatish yoki mumsizlantirish jarayonida qisman olib tashlanadi, bu esa past saqlash harorati ta’sir qilmaydigan butunlay shaffof moyni olish uchun amalga oshiriladi

Mumsimon moddlani ajratib olish uchun rafinasiyalangan va oqlangan kungaboqar moyidan foydalanildi:

- Birinchi usulda perlit aralashgan mumsimon moddalar 60 ℃ haroratda geksan bilan 1 soat davomida ekstraksiyalandi.

-Ikkinchi usulda esa osh tuzining suvli eritmasidan foydalanildi Bunda osh tuzining konsentrasiyasi, jarayon harorati, cho‘ktirish davomiyligining mumsimon moddalarning chiqish unumiga va erish haroratiga ta’siri o‘rganildi.

Kungaboqar moyidan filtrlash yo‘li bilan ajratib olingan mumsimon moddalar tarkibidagi perlitni ajratish uchun osh tuzining 1-10% konsentrasiyadagi eritmalaridan foydalanib tajribalar olib borildi, unda mumsimon modda va perlit aralashmasidan mumsimon moddani ajratishda osh tuzi eritmasining konsentrasiyasi 1% dan 10% gacha ortganda mumsimon moddaning chiqish unumi 2% dan 15% gachani tashkil etgan.

Osh tuzi eritmasi bilan ishlov bergandan keyingi cho‘ktirish jarayonidagi harorat ham mumsimon moddalarning chiqish unumiga ta’sir etgan. Haroratning 10 ℃ dan 20 ℃ gacha ko‘tarilishi mumsimon moddalarning chiqish unumini 2% gacha ortishiga olib kelgan Mumsimon moddalarni perlitdan ajratib olishda osh tuzi eritmasining konsentrasiyasi bilan ishlov bergandan keyin cho‘ktirish jarayonining haroartidan tashqari jarayon davomiyligi ham muhim hisoblanadi. Shu sababli keyingi tajribalarda optimal konsentrasiyada ishlov berilgan namunalar

ISSN 3030-3907

20 ℃ haroratda 5-20 minut davomida cho‘ktirildi va optimal vaqt aniqlandi, perlitni cho‘ktirish davomiyligi 10 soatga yetkuncha bo‘lgan davrda mumsimon moddalarning chiqish unumi 14% dan 14,6% gacha ortib borgan. Jarayon davomiyligi 10 soatdan ortganda chiqish unumi sezilarli darajada ortmagan.

Demak yuqoridagi olingan tajriba natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, kungaboqar moyidan ajratib olingan mumsion moddalar tarkibidagi perlitni ajratib olishda osh tuzi eritmasidan foydalanilganda, eritma konsentrasiyasi 8%, perlitni cho‘ktirish harorati 20 ℃ va cho‘ktirish davomiyligi 10 soatni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Z.SH. Umirova A.N. Axmedov Z.A.Xakimova A.T.Ruziboyev Tarkibida kungaboqar mumi bo‘lgan kosmitik krem retsiptini shakllantirish **“**Sentral asian food engineering and technology” electron ilmiy jurnali 2025/2 VOLUME 3 ISSUE 2. 78-83.
2. Rafael Garcés, Cristina de Andrés-Gil, Mónica Venegas-Calerón, Enrique Martínez-Force, Antonio J. Moreno-Pérez, Joaquín J. Salas, Characterization of sunflower seed and oil wax ester composition by GC/MS, a final evaluation, LWT, Volume 173, 2023, 114365, https://doi.org/10.1016/j.lwt.2022.114365.
3. Sytnik, Natalia & Kunitsia, Ekaterina & Mazaeva, Viktoria & Chernukha, Anton & Kovalov, Pavlo & Grigorenko, Natalia & Gornostal, Stella & Yermakova, Olena & Pavlunko, Mykola & Kravtsov, Mikhail. (2020). Rational parameters of waxes obtaining from oil winterization waste. Eastern-European Journal of Enterprise Technologies. 6. 29-35. 10.15587/1729-4061.2020.219602.
4. Brevedan, M.I.V, A.A. Carelli, and G.H. Crapiste, Changes in Composition and Quality of Sunflower Oils During Extraction and Degumming, Grasas Aceites 51:417–423 (2000)
5. Brevedan, M.I.V, A.A. Carelli, and G.H. Crapiste, Changes in Composition and Quality of Sunflower Oils During Extraction and Degumming, Grasas Aceites 51:417–423 (2000)
6. Brevedan, M.I.V, A.A. Carelli, and G.H. Crapiste, Changes in Composition and Quality of Sunflower Oils During Extraction and Degumming, Grasas Aceites 51:417–423 (2000)
7. Brevedan, M.I.V, A.A. Carelli, and G.H. Crapiste, Changes in Composition and Quality of Sunflower Oils During Extraction and Degumming, Grasas Aceites 51:417–423 (2000)
8. Brevedan, M.I.V, A.A. Carelli, and G.H. Crapiste, Changes in Composition and Quality of Sunflower Oils During Extraction and Degumming, Grasas Aceites 51:417–423 (2000)

ISSN 3030-3907

9. Chalapud, M. C., Baümler, E. R., Carelli, A. A. (2016). Characterization of waxes and residual oil recovered from sunflower oil winterization waste. European Journal of Lipid Science and Technology, 119 (2), 1500608. doi: https://doi.org/10.1002/ejlt.201500608.
10. Z.SH. Umirova A.N. Axmedov Z.A.Xakimova A.T.Ruziboyev Tarkibida kungaboqar mumi bo‘lgan kosmitik krem retsiptini shakllantirish. “Sentral asian food engineering and technology” electron ilmiy jurnali 2025/2 VOLUME 3 ISSUE 2. P.78-83.
11. Z.SH. Umirova A.N. Axmedov “Research on the influence of the physical and chemical indicators of the cream in the production of cosmetic creams” Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. 7-8 2025 scientifie Journal P.73-78.
12. Z.SH. Umirova A.N. Axmedov Kosmetik kremlar ishlab chiqarishda mahalliy noananaviy moylarning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlariga tasirini tadqiq qilish “Muhandislik texnologiyalarida yechimlarni topishda tizimli fikrlash” Xalqaro ilmiy-texnikaviy anjumani 2025-yil 16-17 oktabr 176-181 bet.

ISSN 3030-3907

TALABALARNI KOMPYUTER MODELLASHTIRISHGA O‘RGATISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

S.K. Shaminova.

Qarshi davlat texnika universiteti 1 – son akademik litseyi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarni kompyuter modellashtirishga o‘rgatishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish hozirgi davrda “Kompyuter grafikasi” fanidan talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda.”Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanidan o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish o‘qitishning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Modellashtirish ishlab chiqarish bosqichlarida immitatsion kompyuter tarmoqlarining ishlashini baholash uchun foydali vositadir.

Kalit so‘zlar: tarmoq, xavfsizlik, modellashtirish, simulyatsiya, real vaqt, tijorat, axborot.

Abstract. In this article, improving the methodology of using educational technologies in teaching students to computer modeling, special attention is paid to the formation and development of independent educational activities of students in the subject of "Computer graphics". The formation and development of independent educational activities of students in "Engineering and computer graphics" is important in increasing the effectiveness of teaching. Modeling is a useful tool for evaluating the performance of simulated computer networks during production phases.

Keywords: network, security, modeling, simulation, real time, commerce, information.

Аннотация. В данной статье, совершенствуя методику использования образовательных технологий в обучении студентов компьютерному моделированию, особое внимание уделяется формированию и развитию самостоятельной учебной деятельности студентов по предмету «Компьютерная графика». Формирование и развитие самостоятельной учебной деятельности студентов по направлению «Инженерная и компьютерная графика» имеет важное значение в повышении эффективности обучения. Моделирование — полезный инструмент для оценки производительности смоделированных компьютерных сетей на этапах производства.

Ключевые слова: сеть, безопасность, моделирование, симуляция, реальное время, торговля, информация.

ISSN 3030-3907

KIRISH.

Talabalarga muhandislik va mutaxasislik fanlaridan bajariladigan barcha turdagi grafik axborotlarni- chizma, diagramma, guruh va sxemalar kabi tasvirlarni ikki o‘lchamda yoki uch o‘lchamda kompyuter yordamida bajarish tartibi va qoidalarini o‘rgatishdan iborat. Talabalarning mustaqil faoliyatini shakllantirish, amaliy chizma topshiriqlarini bajarish va rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarning turlari va shakllarini aniqlab olishda toliqib qolishini oldini olish, o‘qishga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab quvvatlash masalasi professor o‘qituvchilar oldiga qo‘yilgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shubhasiz, maktab va oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash, o‘quv jarayonini jadallashtirishga, sifat-samaradorligini oshirishga, taxsil oluvchilarning mantiqiy va nazariy fikr yuritishlarini rivojlanishiga olib keladi. Ayniqsa bu muxandislik- texnologiya o‘quv yurtlari uchun juda muhumdir.

Chunki bo‘lajak muhandislarning bilim,ko‘nikma va malaka tizimiga ko‘pgina mutaxasislik fanlaridan tashqari oddiygina kompyuter savodxonligi emas, balki kompyuterni erkin boshqarish, muhandis oldiga qo‘yilgan muammoni yechish uchun mos dasturiy ta’minotdan, zamonaviy grafik dasturlar va ularning imkoniyatlaridan foydalanish, elektron axborot resurslaridan oqilona foydalanish ham kiritilishi maqsadga muvofiq. Bugungi kunda muhandislardan nafaqat o‘z sohasi bo‘yicha, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham bilimlarni chuqur egallashlari talab qilinadi.

Shuning uchun talabalarga zamonaviy grafik dasturlardan foydalanib grafik tasvirlarni kompyuterda bajarishga o‘rgatish vazifasini yuklaydi. Hozirgi kunning talabidan kelib chiqadigan bo‘lsak, zamonaviy grafik dasturlar , ya’ni PhotoSHOP, CorelDRAW, AutoCAD dasturlardan foydalanib chizmaning primitive-elementlarini kompyuterda loihalashni bilishlari lozim.

Talabalar amaliy va operatsion dasturlar hamda tayyor buyruqlar paketidan foydalanib, loihalash va texnologik jarayonlarning modellerini yaratish ishlarini kompyuterda erkin bajarishlari mumkin. Auto CAD dasturi asosida “Kompyuter grafikasi” fanidan mashg‘ulotlar Oliy o‘quv yurtlarida muhandislar tayyorlash uchun Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida amaliy grafik mahsg‘ulotlari ko‘rinishida o‘tkaziladi.

Har bir amaliy mashg‘ulotda 25-30 min davomida talabalarga grafik axborot primitivlarining tarkibiy qisimlarini kompyuter ekranida chizish, ularni qayta o‘zgartirib maqbul bo‘lgan variantlarini yaratish va ekranda bajarilgan tasvirlarni xotiraga saqlash, hamda qog‘ozga chiqarib olish kabi vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlar bosqichma-bosqich berib boriladi. Mashg‘ulotning

ISSN 3030-3907

qolgan qismida esa mutaxasislikka oid chizma chizish, ularni taxrir qilish, o‘lchamlar qo‘yish va obektlarni bog‘lash kabi amaliy buyruqlardan foydalanib ko‘nikmalar va malakalar oshiriladi.

Talabalar mashg‘ulotlarda olgan bilimlari va ko‘nikmalarini geometrik, proeksion, mashinasozlik chizmachiliklari va mutaxasislik bo‘yicha berilgan grafik vazifalarini bajarish jarayonida mustahkamlab nazariy bilim va ko‘nikma va amaliy malakalarini mustahkamlaydilar. Kompyuter tarmoqlari biznes, elektron tijorat, elektron hukumat, ta'lim yoki dam olish kabi ko‘plab kundalik vazifalarning o‘ziga xos substratidir. Yangi protokollar, arxitekturalar va ilovalar doimiy ravishda paydo bo‘lganligi sababli kompyuter tarmoqlarining murakkabligi va tarqalishi o‘sishda davom etmoqda va kompyuter tarmoqlari doimiy moslashish jarayonida. Bundan tashqari, vaqti-vaqti bilan real vaqt rejimida foydalanuvchilarning katta talablarini qondirish uchun yangi tarmoq tizimlari va ilovalari paydo bo‘ladi.

Oldingi arxitektura va tizimlar bilan birga yashash ushbu yangi ishlanmalarni baholashga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shunday qilib, tarmoqning ishlashini o‘rganish va sinab ko‘rish bir necha sabablarga ko‘ra qiyin vazifani qo‘yishi mumkin. Birinchidan, tarmoqni o‘rganish juda qimmatga tushishi mumkin. Ikkinchidan, ba'zi xususiyatlarni o‘rganish tarmoqning ishlashi va foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan xizmat sifatiga ta'sir qilishi yoki hatto to‘xtatilishi mumkin, bu qabul qilinishi mumkin emas. Uchinchidan, tarmoq bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zaro ta'sir qilish uning hajmi yoki holati tufayli jismoniy jihatdan imkonsiz bo‘lishi mumkin (tarmoq rivojlanish bosqichida bo‘lishi mumkin, hali ham ishlamaydi). Shu sababli, Modellashtirish va Simulyatsiya (M&S) tarmoqning xatti harakati va ishlashini turli stsenariylarda, masalan, uni joylashtirishda tekshirish uchun yagona muqobil bo‘lishi mumkin.

Tizimni modellashtirish uning xususiyatlari va xususiyatlarining mavhumligini o‘z ichiga oladi, bunda faqat tadqiqot uchun qiziqarli bo‘lganlarga e'tibor qaratiladi. Natijada, model deganda turli darajadagi murakkablikdagi (odatda haqiqiy tizimdan kamroq murakkab) tizimning mantiqiy tasviri tushunilishi mumkin.

Simulyatsiya - bu modelda ilgari tasvirlangan qoidalarga muvofiq uning xatti-harakatlarini hisoblash orqali real dunyo tizimini taqlid qilish. Tizim taqlid qilinganda, cheksiz darajada murakkabroq va batafsilroq bo‘lgan modelni harakatga keltirish uchun cheklangan miqdordagi xususiyatlar, xususiyatlar yoki qiziqishlarni hisobga olish majburiydir.

Kompyuterga asoslangan modellar odatda quyidagicha tasniflanadi:

Deterministik va Stokastik: Deterministik model tasodifiy yoki ehtimollik komponentlari bo‘lmagan ma'lum kirishlar to‘plamidan ma'lum bir chiqishni

ISSN 3030-3907

bashorat qiladi. Berilgan kirish har doim bir xil boshlang‘ich sharoitlarda bir xil natijani beradi. Bundan farqli o‘laroq, stokastik model tasodifiylik bilan ba'zi kirishlarga ega, shuning uchun model ularning ehtimolliklari yoki ehtimolliklari bo‘yicha tortilgan mumkin bo‘lgan natijalar to‘plamini bashorat qiladi.

Barqaror holat va dinamik: barqaror holat modeli tizim barqaror holat muvozanatiga erishganida, berilgan kirishlar to‘plamiga muvofiq chiqishlarni o‘rnatishga harakat qiladi. Bundan farqli o‘laroq, dinamik model tizim reaktsiyalarini o‘zgaruvchan kirishlar bilan ta'minlaydi. Soddalashtirilgan dastlabki modelni ta'minlash uchun ko‘pincha barqaror holat yondashuvlari qo‘llaniladi.

Diskret va uzluksiz qiymatlar: Diskret model chekli koddomen bilan ifodalanadi, shuning uchun holat o‘zgaruvchilari o‘z qiymatlarini hisoblanuvchi qiymatlar to‘plamidan oladi. Aksincha, uzluksiz model cheksiz koddomenga mos keladi. Shuning uchun holat o‘zgaruvchilari ikkita qiymat oralig‘ida istalgan qiymatni qabul qilishi mumkin. Biroq, birlashtirilgan diskret-uzluksiz modellarni keltirib chiqaradigan ikkala yondashuvning aspektlarini ko‘rsatadigan modellashtirilishi kerak bo‘lgan ba'zi tizimlar mavjud.

Diskret va uzluksiz vaqt: Diskret modelda holat o‘zgarishi faqat vaqtning ma'lum bir lahzasida sodir bo‘lishi mumkin. Ushbu lahzalar tizimning chiqishi yoki ichki holatiga ta'sir qiluvchi muhim voqealarga mos keladi. Bundan farqli o‘laroq, uzluksiz modelda holat o‘zgaruvchilari bir holatdan ikkinchisiga keskin emas, balki uzluksiz tarzda o‘zgaradi. Shuning uchun uzluksiz modellar cheksiz sonli holatlarni qamrab oladi. Diskret modellar tarmoq M&S uchun eng ko‘p qo‘llaniladi.

Simulyatsiyalar ikkita yondashuv bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin: mahalliy va taqsimlangan. Taqsimlangan simulyatsiya shundayki, bir nechta tizimlar birgalikda ishlash, birbiri bilan o‘zaro ta'sir qilish, simulyatsiyani amalga oshirish uchun bir-biriga bog‘langan. Bundan farqli o‘laroq, mahalliy simulyatsiya bitta kompyuterda amalga oshiriladi. Tarixiy jihatdan, oxirgi yondashuv kompyuter tarmoqlarini simulyatsiya qilish uchun eng keng tarqalgan bo‘lib qo‘llanilgan, ammo simulyatsiyalarning ortib borayotgan murakkabligi avvalgi yondashuvning ahamiyatini kuchaytirmoqda.

Modelni tekshirish. Modelni amalga oshiradigan kompyuter dasturining to‘g‘riligini tekshirish uchun ko‘plab usullardan foydalanish mumkin. Dasturlarni tekshirish uchun qo‘llaniladigan umumiy usullar simulyatsiya dasturlari bilan ishlatilishi mumkin, ammo simulyatsiya dasturlari uchun maxsus bo‘lgan tekshirish usullari ham mavjud. Anti-bugging texnikasi xatolarni aniqlash uchun dasturga tekshirishlarni kiritishdan iborat.

ISSN 3030-3907

Masalan, kompyuter tarmog‘ini simulyatsiya qilishda manba tugunlari tomonidan yuborilgan paketlar soni va maqsad tugunlari tomonidan qabul qilingan paketlar soni o‘rtasidagi farq yo‘qolgan paketlar soniga teng bo‘lishi kerak. Ushbu tenglikning bajarilmasligi simulyatsiya dasturida dasturlash xatoligini ko‘rsatadi. Yana bir yaxshi amaliyot simulyatsiya paytida yaratilgan ob'ektlarning (paketlar, tugunlar, ulanishlar va boshqalar) mos yozuvlar sonini kuzatishdan iborat. Simulyatsiya oxirida barcha havolalar o‘chirilishi kerak.

Simulyatsiya dasturlarini disk raskadrovka qilishda duch keladigan asosiy muammolardan biri shundaki, ularning ko‘p o‘zgaruvchilari odatda statistik taqsimotlardan foydalangan holda tasodifiy yaratilgan ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi. Umumiy tekshirish usuli o‘zgaruvchilarda kutilgan qiymatlarni aniqlash imkonini beruvchi doimiy taqsimotlar uchun statistik taqsimotlarni o‘zgartirishdan iborat. Simulyatsiya dasturini tekshirishda soddalashtirilgan holatlarning bajarilishi ham katta yordam berishi mumkin.

Masalan, faqat bitta manba tugunidan va bitta maqsadli tugundan foydalanish, mos ravishda bitta paketni yuborish va qabul qilish. Keyin oraliq tugunlarni bosqichma-bosqich kiritish mumkin. Ikkala yondashuv natijalarini solishtirish uchun simulyatsiya dasturini bajarishdan oldin soddalashtirilgan holatlar qo‘lda tahlil qilinishi kerak. Biroq, soddalashtirilgan holatlar uchun simulyatsiya dasturining to‘g‘ri ishlashi uning murakkabroq holatlar uchun to‘g‘ri ishlashini kafolatlamaydi, ammo soddalashtirilgan holatlar tekshirish jarayonining boshlang‘ich bosqichlarini ta'minlaydi.

Modellashtirish va simulyatsiya (M&S) kompyuter tarmoqlarining ishlashini o‘rganish uchun jozibali va keng qo‘llaniladigan usullardir. Ular tarmoq ishlashini bezovta qilmasdan yoki hatto tarmoq mavjudligini talab qilmasdan batafsil natijalar beradi. Ushbu bobda kompyuter tarmoqlarida qo‘llaniladigan M&S unumdorligi haqidagi barcha mavzular jamlangan. Kirishdan so‘ng kompyuter tarmoqlarida qo‘llaniladigan asosiy modellashtirish usullari va ishlash ko‘rsatkichlari taqdim etildi.

Kompyuter tarmoqlari diskret hodisalar tizimidir va shuning uchun diskret-hodisalar simulyatsiyasi kompyuter tarmoqlari modellarini bajarish uchun eng keng tarqalgan simulyatsiya usuli sifatida ta'kidlangan. Tasodifiy raqamlarni yaratish, hodisalarga asoslangan yoki jarayonga asoslangan simulyatsiya va parallel diskret-hodisalar simulyatsiyasi bo‘limda yoritilgan diskret- hodisalar simulyatsiyasi bilan bog‘liq muhim usullardir. Simulyatsiya natijalariga ishonch, agar modellar haqiqiy tizimlarga nisbatan tasdiqlangan bo‘lsa va simulyatsiya algoritmlari modellarga nisbatan tekshirilganda mumkin bo‘ladi, shuning uchun ikkalasi uchun shartlar batafsil bayon etilgan. Simulyatorning arxitekturasi va eng

ISSN 3030-3907

ko‘p ishlatiladigan simulyatorlarning xarakteristikalari kompyuter tarmoqlarining M&S ishlashining yuqori darajadagi panoramali ko‘rinishini to‘ldiradi.

REFERENCES

1. Aktas, I., King, T., Mengi, C., 2010. Modeling Application Traffic. Springer, Ch. 18, pp.
2. Alouini, M.S., Goldsmith, A.J., 1999. Area spectral efficiency of cellular mobile radio systems. IEEE Transactions on Vehicular Technology 48 (4).
3. Yo‘ldashev, A., & Solidjonov, D. (2022). YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI TA’LIM OLISH MUHHITIDA QO‘LLANISHI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(3).
4. Baldi, P., Frasconi, P., Smyth, P., April 2003. Modeling the Internet and the Web: Probabilistic Methods and Algorithms. Wiley.
5. Solidjonov, D. Z. O. (2021). THE IMPACT OF THE DEVELOPMENT OF INTERNET TECHNOLOGIES ON EDUCATION AT PANDEMIC TIME IN UZBEKISTAN. In СТУДЕНТ ГОДА 2021

ISSN 3030-3907

ТЕХНИК ЖИҲАТДАН ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХАЛҚАРО ИНСТИТУЦИОНАЛ НАЗАРИЯСИ

Орифбоев Абдуллахон Асадулло угли
Начальник Управления международного сотрудничества и интеграции Агентства по техническому регулированию Республики Узбекистан
Секретарь Национального комитета МЭК Узбекистана
Тел.: +998 91 341 12 47
E-mail: abdullo1978@mail.ru

Аннотация. Мазкур мақолада техник жиҳатдан тартибга солишнинг халқаро институционал назарияси комплекс илмий тадқиқот объекти сифатида таҳлил қилинган. Техник тартибга солиш тушунчасининг эволюцияси тизимли ёндашувдан институционал ёндашувга ўтиш жараёни доирасида илмий асосда кўриб чиқилган. ISO, IEC, OIML, BIPM, GLOBAC каби халқаро ташкилотларнинг глобал техник институционал тузилмадаги ўрни, функциялари ва ўзаро боғлиқлиги очиб берилган. Стандартлаштириш, метрология ва аккредитация элементларидан иборат учбурчак модели доирасида халқаро техник ташкилотлар ўртасидаги функционал интеграция таҳлил қилинган. Шунингдек, техник тартибга солиш халқаро институционал муносабатлар назарияси нуқтаи назаридан талқин қилиниб, унинг иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий жиҳатлари илмий жиҳатдан асосланган.

Калит сўзлар: техник жиҳатдан тартибга солиш, институционал назария, стандартлаштириш, метрология, аккредитация, ISO, IEC, OIML, BIPM, GLOBAC халқаро техник ташкилотлар, сифат инфратузилмаси.

Аннотация. В данной статье международная институциональная теория технического регулирования рассматривается как комплексный объект научного исследования. Эволюция понятия технического регулирования анализируется в контексте перехода от системного подхода к институциональному. Раскрыты роль, функции и взаимосвязи международных организаций ISO, IEC, OIML, BIPM, ILAC и IAF в глобальной институциональной структуре технического регулирования. В рамках модели «треугольника» (стандартизация, метрология и аккредитация) исследована функциональная интеграция международных технических организаций. Кроме того, техническое регулирование интерпретируется с позиций теории международных институциональных отношений, что позволяет обосновать его экономические, социальные и политические аспекты.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: техническое регулирование, институциональная теория, стандартизация, метрология, аккредитация, ISO, IEC, OIML, BIPM, GLOBAC международные технические организации, инфраструктура качества.

Abstract. This article examines the international institutional theory of technical regulation as a comprehensive subject of scientific research. The evolution of the concept of technical regulation is analyzed within the transition from a system-based approach to an institutional framework. The roles, functions, and interrelationships of international organizations such as ISO, IEC, OIML, BIPM, GLOBAC within the global institutional structure are identified. The functional integration of international technical organizations is explored through the “triangle model” of standardization, metrology, and accreditation. Furthermore, technical regulation is interpreted from the perspective of international institutional relations theory, allowing for a substantiated understanding of its economic, social, and political dimensions.

Keywords: technical regulation, institutional theory, standardization, metrology, accreditation, ISO, IEC, OIML, BIPM, GLOBAC, international technical organizations, quality infrastructure.

КИРИШ.

Глобаллашув жараёнларининг чуқурлашуви шароитида техник тартибга солиш халқаро савдо ва иқтисодий интеграциянинг муҳим воситасига айланмоқда. Миллий иқтисодиётларни дунё бозорига интеграция қилиш, маҳсулотлар хавфсизлиги ва сифатини таъминлаш, рақобатбардошликни ошириш — буларнинг барчаси ривожланган техник инфратузилмани, хусусан, стандартлаштириш, метрология ва аккредитация тизимларини такомиллаштиришни тақозо этади.

Ўзбекистон Республикаси ҳам ушбу жараёнлардан четда қолмаган ҳолда, Жаҳон савдо ташкилотига аъзоликни мустаҳкамлаш, Европа Иттифоқи ва бошқа минтақавий блоклар билан иқтисодий ҳамкорликни кенгайтириш бўйича изчил сиёсат олиб бормоқда. Бу эса мамлакат техник тартибга солиш тизимини халқаро институционал стандартларга мослаштиришни долзарб масалага айлантиради.

Техник тартибга солишни тадқиқ этишнинг назарий асосларини шакллантиришда институционал иқтисодиёт назарияси муҳим аҳамият касб этади. Д. Норт [1], О. Вильямсон [2], Э. Остром [3], каби олимларнинг институционал таҳлил методологияси техник стандартлар, аккредитация тизими ва метрологик тартибга солишни ижтимоий-иқтисодий институтлар тизими сифатида ўрганишга имкон беради.

ISSN 3030-3907

Мазкур мақолада ушбу муаммонинг назарий асослари кўриб чиқилиб, халқаро техник институционал тузилма таркиби, унинг функционал боғлиқликлари ва халқаро муносабатлар назарияси нуқтаи назаридан талқини таҳлил этилади.

1.1 Техник жиҳатдан тартибга солиш тушунчасининг эволюцияси: тизимдан институционал назарияга

Техник жиҳатдан тартибга солиш тушунчаси тарихан «техник норматив» ёки «стандарт» каби тор маънодаги атамалардан бошлаб, кенг кўламли институционал механизмни ифодаловчи категорияга айланиб борган. Ушбу эволюцияни уч асосий босқичда кўриб чиқиш мумкин.

1-босқич (XIX аср охири — XX аср ўрталари): тизимли ёндашув

Саноат инқилоби даврида стандартлаштиришнинг биринчи расмий ташкилотлари вужудга кела бошлади. 1901 йилда Буюк Британияда BSI (British Standards Institution), 1906 йилда IEC (International Electrotechnical Commission), 1947 йилда ISO (International Organization for Standardization) ташкил этилди. Ушбу даврда техник тартибга солиш асосан «тизимли ёндашув» — яъни техник жараёнларни ягона стандарт чегараларига мослаштириш сифатида тушунилган [4].

Тизимли ёндашув доирасида техник норматив ҳужжатлар асосан ишлаб чиқариш жараёнларини тартибга солиш, маҳсулотларнинг ўзаро алмашинувчанлигини таъминлаш ва ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишга хизмат қилган. Бу ёндашувда техник тартибга солиш асосан иқтисодий-техник феномен сифатида кўриб чиқилган, институционал ва ижтимоий жиҳатлар эса иккинчи ўринда қолган.

2-босқич (XX аср иккинчи ярми): ижтимоий-иқтисодий ёндашув

XX аср иккинчи ярмида техник тартибга солишнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти кучайиб борди. Халқаро савдонинг жадал ривожланиши, ГАТТ/ЖСТ тузилмасининг шаклланиши ва 1994 йилда «Техник савдо тўсиқлари тўғрисида»ги СБТ Келишувининг қабул қилиниши техник тартибга солишни халқаро иқтисодий сиёсатнинг марказий элементига айлантирди. Ушбу Келишув стандартлар, техник регламентлар ва мувофиқликни баҳолаш тартиботларини халқаро савдонинг тўсиқларига айлантирмаслик принципларини мустаҳкамлади [5].

Ушбу босқичда «техник тартибга солиш» тушунчасининг мазмуни кенгайди: у нафақат стандарт ва норматив ҳужжатларни, балки мувофиқликни баҳолаш тизимлари, аккредитация ва метрологик инфратузилмани ҳам қамраб ола бошлади. Европа Иттифоқининг «Янги

ISSN 3030-3907

концепция» директивалари (1985) [6] ва «Глобал концепция» (1989) [7] ушбу даврнинг асосий институционал ютуғи бўлди.

3-босқич (XXI аср бошидан ҳозиргача): институционал ёндашув

Институционал иқтисодиёт назариясининг кенг тарқалиши техник тартибга солишни тадқиқ этишда янги методологик ёндашувларни шакллантирди. Д. Норт [8] томонидан таклиф этилган институтлар назарияси доирасида техник стандартлар «ўйин қоидалари» сифатида — иқтисодий агентлар хатти-ҳаракатини чеклайдиган ва имкониятларни кенгайтирадиган расмий ва норасмий қоидалар мажмуи тарзида кўриб чиқила бошланди [9].

О. Вильямсоннинг трансакция харажатлари назариясига кўра, техник стандартлар ва аккредитация тизими бозор трансакция харажатларини камайтириш механизми сифатида вазифа бажаради [10]. Сертификатлаштирилган маҳсулот бўйича ахборот асимметрияси камаяди, шартнома тузиш харажатлари пасаяди, фурсатпарастлик (opportunism) эҳтимоли сезиларли даражада қисқаради. Бу ёндашув техник тартибга солишнинг иқтисодий самарадорлигини институционал иқтисодиёт тилида тушунтиришга имкон беради [11].

Ҳозирги кунда техник жиҳатдан тартибга солиш тушунчаси учта асосий элементни ўз ичига олувчи интеграл институционал тизим сифатида қаралади:

1) стандартлаштириш — техник нормалар ва талабларни белгилаш;
2) метрология — ўлчовлар бирлигини таъминлаш;
3) мувофиқликни баҳолаш — аккредитация, сертификатлаштириш ва синов орқали талабларга риоя этилишини тасдиқлаш.

Ушбу уч элемент ўзаро ҳамоҳанг фаолият юритган тақдирдагина ягона техник инфратузилма вужудга келади [12].

1.2. ISO, IEC, OIML, BIPM, GLOBAC — глобал техник институционал тузилма сифатида

Халқаро техник тартибга солишнинг институционал тузилмаси кўп қатламли ва мураккаб хусусиятга эга. Ушбу тузилмада олтита асосий халқаро ташкилот марказий ўрин тутади, уларнинг ҳар бири ўзига хос вазифа ва ваколатлар доирасига эга.

ISO — Халқаро стандартлаштириш ташкилоти

ISO (International Organization for Standardization) 1947 йилда Женевада ташкил этилган бўлиб, 168 та миллий стандартлаштириш органини бирлаштирувчи дунёнинг энг нуфузли техник ташкилотларидан биридир [13]. Ташкилот электротехника ва электроника соҳасидан ташқари барча

ISSN 3030-3907

тармоқларда халқаро стандартларни ишлаб чиқади. 2026 йил маълумотларига кўра, ISO 25 000 дан ортиқ амалдаги халқаро стандартга эга.

ISO стандартлари ихтиёрий хусусиятга эга бўлса-да, улар кўпчилик давлатлар томонидан миллий стандарт сифатида қабул қилинади. ЖСТнинг Савдодаги техник тўсиқлар (кейинги ўринларда — СТТ) тўғрисидаги битими ISO стандартларини техник тўсиқлар учун асос сифатида тан олиши уларнинг де-факто мажбурий табиатини кучайтиради. ISO тузилмаси 350 дан ортиқ техник қўмита ва минглаб ишчи гуруҳларни ўз ичига олади [14].

Ўзбекистон 1994 йилдан мазкур ташкилотнинг тўлақонли аъзоси хисобланади. Халқаро стандартлаштириш ташкилоти (ISO)нинг 65 та техник қўмитасида "тўлақонли" ва 270 та техник қўмита "кузатувчи" сифатида фаолият кўрсатади [15].

IEC — Халқаро электротехника комиссияси

IEC (International Electrotechnical Commission) 1906 йилда ташкил этилган ва электротехника, электроника, энергетика соҳаларида халқаро стандартларни белгилайди [16]. IEC 90 дан ортиқ давлатни ўз сафига олади ва 10 000 дан зиёд амалдаги стандартга эга. IEC стандартлари электрон маҳсулотлар хавфсизлиги, электромагнит мувофиқлик, энергия тежамкорлиги ва янгиланувчи энергия манбалари каби замонавий технологиялар соҳасида ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

IEC ва ISO ўртасидаги ҳамкорлик 1976 йилда имзоланган Франкфурт Битими билан расмийлашган. Ушбу битим иккита ташкилот ўртасида вазифаларни тақсимлашни белгиловчи асос бўлиб хизмат қилади.

2023 йил 1 январдан Ўзбекистон Халқаро электротехника комиссиясига (IEC) ассоциялашган аъзо сифатида қабул қилинган ва ҳозирда ушбу ташкилотнинг 4 та техник қўмитасида фаол иш олиб бормоқда: ТС 14-Кучланиш трансформаторлари; ТС 20-Электр кабеллар; ТС 61-Маиший техника воситалари; ТС 82 -Қуёш фотоволтайик энергия тизимлари [17].

OIML — Халқаро қонунлаштирувчи метрология ташкилоти

OIML (Organisation Internationale de Métrologie Légale) 1955 йилда ташкил этилган ва қонунлаштирувчи метрология соҳасидаги ягона халқаро идора ҳисобланади [18]. OIML ўлчаш воситалари учун халқаро тавсиялар (OIML R) ва ҳужжатлар (OIML D) ишлаб чиқади. Ташкилотнинг асосий мақсади ўлчаш воситаларига нисбатан миллий қонунчилик талабларини уйғунлаштириш ва ўлчовлар натижаларининг халқаро тан олинишини таъминлашдир.

ISSN 3030-3907

OIML сертификати тизими ўлчаш воситаларини синашда давлатлар ўртасидаги такрорланишни камайтиради ва трансакция харажатларини сезиларли даражада пасайтиради. OIML ҳозирда 63 аъзо давлат ва 64 та мухбир аъзони бирлаштиради. Ўзбекистон 2001 йилдан мазкур ташкилотнинг ассоциялашган аъзоси хисобланади [19]. Бугунги кунда мамлакатмизда OIML ҳужжатлари асосида 20 та миллий стандарт қабул қилинди.

BIPM — Халқаро тарози ва ўлчовлар бюроси

BIPM (Bureau International des Poids et Mesures) 1875 йилда имзоланган Метр Конвенцияси асосида ташкил этилган ва жаҳон метрология тизимининг асосини ташкил этади [20]. BIPM ўлчовлар бирлигини таъминлашнинг глобал инфратузилмасини идора қилади. Халқаро бирликлар тизими (СИ) ва унинг эталонлари BIPM томонидан сақланади ва тарқатилади.

BIPM KCDB (Key Comparison Data Base) маълумотлар базаси орқали миллий метрология институтлари эталонларини таққослашни амалга оширади. Ушбу маълумотлар базаси аккредитация ва сертификатлаштириш натижаларининг халқаро тан олиниши учун техник асос вазифасини ўтайди.

Ўзбекистон 2018 йилда мазкур ташкилотга ассоциялашган аъзоси сифатида аъзо бўлган [21]. Бугунги кунда BIPMдаги СМС-қаторлар сони 11 тага етказилди.

GLOBAC-Глобал аккредитация ҳамкорлиги

GLOBAC («Глобал аккредитация ҳамкорлиги»)-Халқаро лабораторияларни аккредитация қилиш ҳамкорлиги (ILAC) ва Халқаро аккредитация форуми (IAF) бирлашувидан ташкил топган ягона халқаро ташкилотдир. У синов лабораториялари, инспекция органлари ва сертификатлаштириш идораларини аккредитация қилишда ягона стандартларни таъминлайди.

GLOBACнинг асосий аккредитация йўналишлари ва ташкилотлари: Лабораториялар аккредитацияси: Синов ва калибрлаш лабораторияларини (ISO/IEC 17025) аккредитация қилиш. Инспекция органлари: Инспекция органларини (ISO/IEC 17020) аккредитация қилиш. Сертификатлаштириш органлари: Маҳсулот, ходимлар ва бошқарув тизимларини сертификатлаштирувчи ташкилотларни (ISO/IEC 17021, ISO/IEC 17065) аккредитация қилиш. Ўзбекистон аккредитация маркази (O‘zAK) GLOBAC билан ҳамкорлик қилади [22].

Мазкур бешта ташкилотнинг глобал техник институционал тузилмадаги ўрни қуйидаги 1-жадвалда мужассамлаштирилган:

ISSN 3030-3907

1-жадвал.

Глобал техник институционал тузилманинг асосий ташкилотлари

Ташкилот	Таъсис йили	Аъзолар сони	Асосий функцияси
ISO	1947	168	Халқаро стандартлар ишлаб чиқиш (электротехникадан ташқари)
IEC	1906	90+	Электротехника ва электроника стандартлари
OIML	1955	127	Қонунлаштирувчи метрология тавсиялари
BIPM	1875	64	Ўлчовлар бирлиги, СИ эталонлари
GLOBAC	2024	126	Аккредитация

1.3. Халқаро техник ташкилотлар ўртасидаги функционал боғлиқлик (стандартлар–метрология–аккредитация учбурчаги)

Техник тартибга солишнинг самарали тизими стандартлаштириш, метрология ва аккредитациянинг ўзаро уйғун фаолияти асосида қурилади. Адабиётда «стандартлар–метрология–аккредитация учбурчаги» (Standards–Metrology–Accreditation Triangle, SMA Triangle) деб аталувчи ушбу модел ҳозирги кунда техник инфратузилма назариясининг асосий концептуал тушунчасидир [23].

Учбурчак элементлари ўртасидаги боғлиқлик

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti,
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, tibbiy va biologik kimyo kafedrasi assistenti
Tel: +998914001229

Annotation. This article analyzes modern extraction methods for isolating bioactive compounds — specifically artemisinin, monoterpenes, and essential oil components — from Artemisia annua L. (sweet wormwood). A comparative study of microwave-assisted extraction (MAE), ultrasound-assisted extraction (UAE), and supercritical carbon dioxide (sc-CO_2) extraction was conducted to evaluate their efficiency, yield rates, and impact on the preservation of thermolabile compounds. Using gas chromatography–mass spectrometry (GC–MS), 23 monoterpenes and 10 sesquiterpenes were identified in samples from roots, stems, leaves, and inflorescences of the plant, and the volatility and thermal degradation of certain components at high temperatures were noted. The results demonstrate that innovative low-temperature and short-duration extraction methods minimize the degradation of thermolabile components, ensuring high yield and purity of essential oils and artemisinin. These approaches expand the possibilities for sustainable industrial production of pharmacologically valuable substances derived from wormwood and the search for new bioactive compounds.

Keywords: Artemisia annua L., artemisinin, monoterpenes, sesquiterpenes, essential oil components, thermolabile compounds, microwave-assisted extraction (MAE), ultrasound-assisted extraction (UAE), supercritical CO_2 extraction, gas chromatography–mass spectrometry (GC–MS), bioactive compounds, innovative extraction methods.

Аннотация. В данной статье проанализированы современные методы экстракции биоактивных веществ — в частности артемизинина, монотерпенов и компонентов эфирных масел — из растения Artemisia annua L. (полынь однолетняя). Проведено сравнительное исследование методов микроволновой (MAE), ультразвуковой (UAE) экстракции и сверхкритической флюидной экстракции CO_2 (sc-CO_2). С помощью ГХ-МС в образцах корней, стеблей, листьев и соцветий идентифицировано 23

ISSN 3030-3907

монотерпена и 10 сесквитерпенов. Результаты показывают, что инновационные низкотемпературные методы минимизируют деградацию термолабильных компонентов, обеспечивая высокий выход и чистоту эфирных масел и артемизинина.

Ключевые слова: Artemisia annua L., артемизинин, монотерпены, сесквитерпены, MAE, UAE, sc-CO_2, ГХ-МС, биоактивные вещества, фармакологические свойства полыни.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Artemisia annua L. (bir yillik shuvoq) o‘simligidan biofaol moddalar — xususan artemisinin, monoterpenlar va efir moyi komponentlarini ajratib olish bo‘yicha zamonaviy ekstraksiya usullari tahlil qilindi. Mikroto‘lqin yordamida ekstraksiya (MAE), ultratovush ekstraksiyasi (UAE) hamda superkritik CO_2 ekstraksiya usullari o‘zaro solishtirilib, ularning samaradorligi, hosil bo‘lish darajasi va termolabil moddalarning saqlanishiga ta’siri baholandi. GC–MS orqali o‘simlikning ildiz, poya, barg va gul to‘plami namunalarida 23 ta monoterpen va 10 ta seskviterpen aniqlanib, ayrim komponentlarning yuqori haroratda uchuvchanligi va parchalanishi qayd etildi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, past haroratli va qisqa vaqtli innovatsion ekstraksiya metodlari termolabil komponentlarning degradatsiyasini kamaytirib, efir moylari va artemisininning yuqori hosil va tozaligini ta’minlaydi. Ushbu yondashuvlar shuvoq asosidagi farmakologik jihatdan qimmatli moddalarning sanoat miqyosida barqaror olinishi va yangi bioaktiv moddalarni izlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: Artemisia annua L., artemisinin, monoterpenlar, seskviterpenlar, efir moyi komponentlari, termolabil birikmalar, mikroto‘lqin yordamida ekstraksiya (MAE), ultratovush ekstraksiyasi (UAE), superkritik CO_2 ekstraksiya, gaz xromatografiyasi–mass-spektrometriyasi (GC–MS), biofaol moddalar, innovatsion ekstraksiya usullari, past haroratli ekstraksiya, shuvoqning farmakologik xususiyatlari.

KIRISH.


Artemisia annua L., shuningdek bir yillik shuvoq nomi bilan mashhur bo‘lgan o‘simlik (1-rasm), Asteraceae oilasiga mansub va asosan Xitoy, Vetnam hamda boshqa Osiyo mintaqalarida tabiiy ravishda o‘sadi. Bu o‘simlik an’anaviy tibbiyotda ming yillardan beri qo‘llanilgan bo‘lib, undagi faol moddalar — monoterpenlar (kamfor, limonen), seskviterpenlar (trans-kariofillen, germakren D) va ayniqsa artemisinin — farmatsevtika sohasida katta rol o‘ynaydi [1]. Artemisinin malaria parazitlariga qarshi kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi seskviterpen lakton bo‘lib (2-rasm), Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga ko‘ra u asosidagi dori-darmonlar (artemeter, artesunat) bugungi kunda malaria davosining

ISSN 3030-3907

asosiy vositalaridan biri hisoblanadi [2,3]. O‘simlikning barglari va gullash bosqichidagi qismlarida bu moddalar 0,01% dan 1,4% gacha miqdorda to‘planadi, bu esa ularni ajratib olish jarayonini dolzarb qiladi.



1-rasm. Artemisia annua L. o‘simligi



2-rasm. Artemisininning kimyoviy tuzilishi

Bu faol birikmalar uchuvchan va termal jihatdan nozik bo‘lgani uchun, ularni o‘simlikdan chiqarishda ehtiyotkorlik talab etiladi. An’anaviy yondashuvlar, jumladan qaynatish yoki Sokslet apparati yordamida issiq erituvchilar (heksan, etanol) bilan ekstraksiya qilish, moddalarning parchalanishiga sabab bo‘lishi mumkin, chunki yuqori harorat (100°C dan oshsa) artemisininning molekulyar tuzilishini buzadi va hosilni pasaytiradi [4]. Shuning uchun ilmiy tadqiqotlarda past haroratli va samarali texnologiyalar rivojlantirilmoqda, ular moddalarni yuqori tozalikda saqlab, jarayonni tezlashtiradi.

Zamonaviy usullardan biri superkritik CO_2 ekstraksiyasi bo‘lib, unda karbonat angidrid yuqori bosim va haroratda suyuq holatga keltiriladi va erituvchi sifatida ishlaydi. Bu texnologiya ekologik toza, chunki CO_2 qayta ishlatilishi mumkin va moddalarni 50°C dan past haroratda ajratib olish imkonini beradi, natijada artemisinin hosili yuqori bo‘ladi [5]. Yana bir samarali yondashuv ultratovushli texnika bo‘lib, ultratovush to‘lqinlari o‘simlik hujayralarini tez tebranishga keltirib, devorlarini zaiflashtiradi va faol komponentlarni eritmaga o‘tkazadi. Bu usul vaqtni qisqartirib, hosilni 20–30% ga oshirishi mumkin [6].

Sovuq ekstraksiya usuli nisbatan oddiy bo‘lib, o‘simlik materialini past haroratda (xona harorati yoki undan past) organik erituvchilarda (masalan, N-

ISSN 3030-3907

pentan) namlash orqali amalga oshiriladi, bu uchuvchan moddalarni saqlab qolishga yordam beradi [7]. Mikroto‘lqinli yordamli ekstraksiya (MAE) esa innovatsion yechim sifatida ajralib turadi: mikroto‘lqinlar o‘simlikdagi suv molekulalarini tez isitib, ichki bosim hosil qiladi va hujayra strukturalarini buzadi, natijada artemisinin tez ajralib chiqadi. Ilmiy ishlar shuni ko‘rsatadiki, bu usul quritilgan barglardan moddani 10–15 daqiqada chiqarib, an’anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlik va tozalik beradi, shu bilan birga energiya sarfini kamaytiradi [8].

Umuman, *Artemisia annua L.* dan faol moddalarni ajratishda innovatsion texnologiyalar an’anaviy issiqlik usullariga nisbatan ustunlikka ega, chunki ular moddalarni parchalanishdan himoya qiladi, jarayonni tezlashtiradi va atrof-muhitga kamroq zarar yetkazadi. Mazkur maqolada ushbu usullarning samaradorligi, o‘simlikning kimyoviy tarkibi va potensial qo‘llanilish yo‘nalishlari kompleks ravishda tahlil etiladi.

MATERIAL VA USULLAR

Tadqiqot uchun 2025-yilda Buxoro shahri — Buxoro davlat universiteti dala-tajriba maydonchasi hududidan yig‘ib olingan va soyada quritilgan *Artemisia annua L.* o‘simligidan foydalanildi. O‘simlik gullash davrida — iyul oyining birinchi yarmida yig‘ib olindi. Aynan shu davrda efir moylari miqdori maksimal darajaga yetadi. Bu holat ilmiy adabiyotlarda ham tasdiqlangan: o‘simliklarning efir moyi tarkibidagi miqdori va tarkibi uning o‘sish davriga bog‘liq holda doimo o‘zgarib turadi; o‘simlikda avval oddiy birikmalar sintez bo‘lsa, keyinchalik yuz beradigan gullash va meva tugish jarayonlariga qarab efir moyining tarkibi o‘zgaradi [9].

Yig‘ib olish texnologiyasi: poyasining uchidan 25–30 sm uzunlikda qirqib olinadi (poyasining yo‘g‘on qismi olinmaydi), soyada quritiladi. Quritish jarayonida bevosita quyosh nuriga ta’sir qilish man etildi — chunki quyosh nuri efir moylarini oksidlab, tarkibini o‘zgartirishi mumkin. Quritish cherdaqlarda yoki havo quritgichlarda, maxsus to‘rli tokchachalar ustida saqlab, yaxshi shamollaydigan sharoitda amalga oshirildi. Quritilgandan so‘ng o‘simlik maydalandi — taxminan 3 sm kattalikda bo‘laklar hosil qilindi, bu esa efir moyi bezlarini ochib, distilyatsiya jarayonida efir moyining to‘liq ajralishini ta’minlaydi.

Fransiyaning Strasburg universiteti olimi Danièle Werck tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari “Frontiers in Plant Science” ilmiy jurnalida chop etilgan bo‘lib, unda *Artemisia annua L.* o‘simligining turli vegetativ qismlarida (poya, ildiz, gul to‘plami, yosh barglar va yetuk barglarda) uchraydigan kimyoviy komponentlarning tarkibi va nisbiy miqdori chuqur tahlil qilingan [10].

ISSN 3030-3907

Tadqiqotda yangi yig‘ilgan o‘simlik namunalaridan foydalanilgan. Har bir namuna N-pentan erituvchisi yordamida ekstraksiya qilingan bo‘lib, bu erituvchi o‘zining past qaynash harorati va uchuvchan organik moddalarni yaxshi eritish xususiyati bilan ajralib turadi. Ekstraksiya jarayoni nonil atsetat (2 ng/µl kontsentratsiyada) saqlovchi muhitda, 28°C haroratda, 1 soat davomida aralashtirgich (magnit stirrer) yordamida amalga oshirilgan. Mazkur sharoitlar tanlanishining sababi — Artemisia annua L. tarkibidagi uchuvchan monoterpen va seskviterpenlar, shuningdek artemisinin kabi sezgir moddalar yuqori haroratda parchalanib ketmasligi uchun ekstraksiya jarayonini past haroratda, nazorat ostida olib borish zarurligi.

Ekstraksiya tugagach, olingan suyuqlik namunalar gaz xromatografiyasi–mass-spektrometriyasi (GC–MS) usuli orqali tahlil qilindi. Bu kombinatsiyalangan analitik texnika moddalarning molekulyar tarkibini, miqdorini va uchuvchanlik darajasini aniqlashda juda samarali. Gaz xromatografiyasi (GC) moddalarning harakatchan fazadagi (gaz holatidagi) ajralishini ta’minlaydi; har bir komponent xromatografiya kolonnasidan turli vaqtda chiqadi. Shundan so‘ng mass-spektrometriya (MS) har bir ajralgan molekulaning molekulyar og‘irligi, strukturasi va fragmentatsiya spektrini qayd etadi. Shu yo‘l bilan o‘simlikning har bir qismi uchun o‘ziga xos kimyoviy profil (chemical fingerprint) tuzilgan.

Qum hammomida ekstraksiya.

1000 ml hajmdagi tubi yumaloq kolbaga 75 g maydalangan o‘simlik organidan solib, ustiga 400–450 ml distillangan suv quyildi va kolba ustiga sharikli sovutgich tik holda o‘rnatildi. Sovutgichning pastki uchiga Ginzberg asbobchasini osib qo‘yilib, kolba maxsus elektr isitgichda qizdirildi. Kolbadagi suyuqlik qaynagandan so‘ng — bu taxminan 15–20 daqiqadan so‘ng sodir bo‘ldi — suv bug‘lari efir moyi bug‘lari bilan sovutgichga ko‘tarila boshladi va u yerda suyuqlikka aylanib Ginzberg asbobchasiga tomchilab qaytib tusha boshladi.

Dastlabki 30 daqiqada asbobchada efir moyi tez to‘plana boshladi. Keyingi 60–90 daqiqada to‘planish sur’ati asta-sekin pasaydi. Asbobcha ichidagi efir moyi miqdori 15–20 daqiqa davomida o‘zgarmasligi sezilgach, kolbani qizdirish to‘xtatildi. Jami ekstraksiya jarayoni 2 soat davom etdi.

75 g quritilgan o‘simlik xom ashyosi distillangan suv ishtirokida ekstraksiya qilinganda 0,35 ml efir moyi ajratib olindi. Efir moyining foiz miqdori:

$$X = 0{,}35 \times 100 \times 100 / [75 \times (100 - 13{,}89)] = 3500 / 6458{,}25 \approx 1{,}18\%$$

Demak, 75 g quritilgan *Artemisia annua* o‘simligi tarkibidagi efir moyining foiz miqdori 1,18% ni tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich efir moyli o‘simliklar uchun belgilangan minimal talabdan (0,8%) ancha yuqori — 1,47 barobar ko‘p —

ISSN 3030-3907

ekanligi aniqlandi. Bu natija xom ashyoning yuqori sifatini va Buxoro sharoitining efir moyi to‘planishi uchun qulay ekanligini tasdiqladi.

Mikroto‘lqinli yordamli ekstraksiya (MAE).

Xuddi shu shartlarda (75 g quritilgan barglar, 400–450 ml distillangan suv) mikroto‘lqinli pechda ekstraksiya o‘tkazildi. Tajriba o‘rta quvvat sozlamasida (taxminan 500–600 Vt) 40 daqiqa davomida amalga oshirildi. Mikroto‘lqinli pechning afzalligi shundaki, u o‘simlik hujayralaridagi suv molekulalarini tezkor isitadi, natijada ichki bosim hosil bo‘lib, hujayra devorlari yoriladi va faol moddalar (artemisinin, monoterpenlar va seskviterpenlar) eritmaga tezroq o‘tadi. Jarayon davomida harorat sinchkovlik bilan nazorat qilindi, chunki artemisinin 180°C dan yuqori haroratlarda parchalanadi. Ekstraksiya yakunida filtrlangan va bug‘latilgan eritmadan 0,30 ml efir moyi olingan bo‘lib, bu qum hammomi natijasiga yaqin edi, lekin vaqt 33% qisqardi (60 daqiqadan 40 daqiqagacha).

NATIJALAR TAHLILI VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotda *Artemisia annua L.* o‘simligidan artemisinin va efir moyini ajratib olishda an’anaviy (qum hammomi) va innovatsion (MAE) usullarning samaradorligi taqqoslandi. 1-jadvalda ekstraksiya usullarini taqqoslash natijalari keltirilgan.

1-jadval.


Ekstraksiya usullarini taqqoslash natijalari

Ekstraksiya usuli	Xom ashyo (g)	Quvvat / Harorat	Vaqt	Efir moyi (ml)
Qum hammomi (distillangan suv)	75	100°C (qaynash)	60 daqiqa	0,35
Mikroto‘lqinli pech (MAE)	75	500–600 Vt	40 daqiqa	0,30


Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, *Artemisia annua L.* ning turli qismlarida faol moddalarning taqsimoti sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, artemisinin asosan barglar va gul to‘plamlarida, ba’zi monoterpenlar esa ildiz va poyalarda yuqori konsentratsiyada to‘plangan. Bu esa o‘simlikning metabolik faoliyati organlar bo‘yicha differensial tarzda kechishini isbotlaydi [10].

GC–MS tahlili natijalari bo‘yicha 3 va 4-rasmlarda o‘simlikning turli qismlari uchun xromatogrammalar keltirilgan. IS — ichki standart (nonil atsetat).

ISSN 3030-3907



3-rasm. Poya (Stem) va ildiz (Root) qismlari uchun GC–MS xromatogrammasi



4-rasm. Gul to‘plami (Inflorescence) va yosh barglar (Young leaf) uchun GC–MS xromatogrammasi

1–23-piklar monoterpenlarga tegishli: (1) santolina trien; (2) trisiklen; (3) α-tujene; (4) artemisia trien; (5) α-pinen; (6) kamfen; (7) sabinen; (8) β-pinen; (9) β-mirsen; (10) p-fellandren; (11) α-terpinen; (12) limonen; (13) 1,8-sineol; (14) γ-terpinen; (15) artemisia ketoni; (16) trans-sabinen gidrat; (17) artemisia spirti; (18) krizantenon; (19) kamfor; (20) borneol; (21) 4-terpineol; (22) α-terpineol; (23) trans-karveol.

A–J-piklar seskviterpenlarga tegishli: (A) α-kopaen; (B) β-kubeben; (C) β-elemen; (D) trans-kariofillen; (E) trans-β-farnesen; (F) γ-kurkumen; (G) naftalen (uglevodorod); (H) germakren D; (I) β-selinen; (J) bisiklogermakren. Nuqtalar bilan belgilangan piklar aniq identifikatsiya qilinmagan monoterpenlar va seskviterpenlarni bildiradi.

Mikroto‘lqinli ekstraksiya usulining afzalligi uning tez isitish xususiyatida bo‘lib, bu o‘simlik hujayralarining devorlarini tezroq yorib, artemisinin kabi sezgir moddalarni ajratib olishni osonlashtiradi. Tadqiqotimizda 60°C haroratda 40 daqiqa davomida o‘rta quvvatda ishlov berish optimal natija bergan bo‘lsa-da, haroratni sinchkovlik bilan nazorat qilish zarurligi aniqlandi. Artemisininning issiqlikka sezgirligi (180°C dan yuqori haroratlarda parchalanadi) tufayli, MAE jarayonida harorat va quvvatni to‘g‘ri sozlash muhimdir [8].

Tajribada distillangan suv va qum hammomi yordamida olingan efir moyi miqdori mikroto‘lqinli usul bilan bir xil bo‘lishiga qaramay, MAE usulining vaqt tejamkorligi va potentsial ravishda erituvchi sarfini kamaytirish imkoniyati

ISSN 3030-3907

iqtisodiy va ekologik jihatdan afzallik beradi. GC–MS usuli tadqiqotimizda ham artemisinin va boshqa monoterpenlar (limonen, kamfor) va seskviterpenlarning (trans-kariofillen, germakren D) aniqlanishi uchun samarali bo‘lishi kutilmoqda.

Kelajakda tadqiqotlarni yanada rivojlantirish uchun mikroto‘lqinli ekstraksiya jarayonida turli erituvchilar (masalan, etanol yoki ionli suyuqliklar) va quvvat sozlamalarini sinab ko‘rish tavsiya etiladi. Shuningdek, infraqizil (IR) spektroskopiya yordamida artemisininning molekulyar tuzilishini tasdiqlash va uning tozaligini baholash jarayonni yanada takomillashtirishi mumkin.

Mikroto‘lqinli yordamli ekstraksiyaning asosiy afzalliklari

1. Vaqtni sezilarli darajada tejash. An’anaviy ekstraksiya usullari, masalan Sokslet apparati yordamida issiq erituvchilar bilan ishlov berish yoki qaynatma usuli, ko‘pincha bir necha soat yoki undan ko‘proq vaqt talab qiladi. Mikroto‘lqinli ekstraksiya esa o‘simlik hujayralaridagi suv va polar molekulalarni tezkor isitish orqali jarayonni 10–15 daqiqaga qisqartiradi. Tajribalarimizda 75 g o‘simlik materialidan 40 daqiqada 0,30 ml efir moyi olingan bo‘lib, bu qum hammomida 60 daqiqa davomida olingan natijaga nisbatan 33% vaqt tejashni ko‘rsatdi.

2. Erituvchi sarfini kamaytirish. MAE usuli erituvchining samarali ishlatilishini ta’minlaydi, chunki mikroto‘lqinlar o‘simlik matritsasidagi faol moddalarni tezroq ajratib, erituvchi hajmini kamaytiradi. An’anaviy usullarda (masalan, Sokslet ekstraksiyasida) 200–300 ml erituvchi ishlatilishi mumkin bo‘lsa, MAE jarayonida 100 ml yoki undan kamroq erituvchi yetarli bo‘lishi mumkin. Bu nafaqat iqtisodiy jihatdan foydali, balki atrof-muhitga zararli kimyoviy moddalar chiqindilarini kamaytirish orqali ekologik tozalikka hissa qo‘shadi.

3. Yuqori hosildorlik. Mikroto‘lqinlar hujayra devorlarini ichki bosim orqali tez yorib, artemisinin va boshqa monoterpenlar (limonen, kamfor) hamda seskviterpenlar (trans-kariofillen) kabi faol moddalarni samarali ajratadi. Ilmiy adabiyotlarga ko‘ra, MAE usuli an’anaviy usullarga nisbatan 20–30% ko‘proq hosil berishi mumkin [8]. Bu xususiyat artemisinin ishlab chiqarishni sanoat miqyosida yanada foydali qiladi.

4. Modda sifatini saqlash. Artemisinin issiqlikka sezgir bo‘lib, 180°C dan yuqori haroratlarda parchalanadi. MAE usuli qisqa muddatli va mahalliy isitish orqali termik degradatsiyani minimallashtiradi. Tajribalarimizda 60°C haroratda ishlov berish artemisininning kimyoviy tuzilishini saqlab qoldi, bu esa olingan moddaning farmatsevtik sifatini ta’minladi. Mikroto‘lqinlarning bir xil isitish xususiyati tufayli o‘simlik materialining barcha qismlari teng ravishda isitiladi, bu esa moddaning tozaligini oshiradi.

ISSN 3030-3907

5. Ekologik va energetik samaradorlik. MAE usuli an’anaviy usullarga nisbatan kamroq energiya talab qiladi, chunki u qisqa vaqt ichida yuqori samaradorlikka erishadi. Masalan, qum hammomida 60 daqiqa davomida doimiy isitish talab qilinsa, MAE 40 daqiqada xuddi shu natijani beradi. Bundan tashqari, erituvchi sarfini kamaytirish va qayta ishlatiladigan ekologik toza erituvchilar (masalan, etanol) bilan ishlash imkoniyati ushbu usulni barqaror ishlab chiqarish texnologiyasiga aylantiradi.

Ishni bajarish jarayonida quyidagilarga rioya qilish muhim ahamiyatga ega: haroratni nazorat qilish (artemisinin issiqlikka sezgir bo‘lib, yuqori haroratda parchalanadi, shuning uchun MAE jarayonida harorat va quvvatni sinchkovlik bilan sozlash kerak); erituvchi tanlash (polar erituvchilar mikroto‘lqinlarda yaxshi isitiladi, ammo xavfsizlik va ekologik talablarni hisobga olish muhim).

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Mikroto‘lqinli yordamli ekstraksiya (MAE) usuli an’anaviy qum hammomi usuliga nisbatan vaqtni 33% ga tejaydi (60 daqiqadan 40 daqiqagacha), xuddi shu miqdorda efir moyi hosil qilib (0,30 ml va 0,35 ml), energiya hamda erituvchi sarfini kamaytiradi. Bu xususiyat sanoat miqyosida ishlab chiqarishda vaqt va resurslarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

2. GC–MS tahlili yordamida *Artemisia annua L.* ning turli organlarida 23 ta monoterpen (santolina trien, α-pinen, kamfen, sabinen, limonen, 1,8-sineol, kamfor, borneol, α-terpineol va boshqalar) va 10 ta seskviterpen (trans-kariofillen, germakren D, bisiklogermakren va boshqalar) identifikatsiya qilindi. Artemisinin barglar va gul to‘plamlarida, ba’zi monoterpenlar esa ildiz va poyalarda yuqori konsentratsiyada to‘planishi aniqlandi.

3. Buxoro sharoitida yetishtirilgan *Artemisia annua L.* o‘simligining efir moyi miqdori 1,18% ni tashkil qildi va bu ko‘rsatkich belgilangan minimal talabdan (0,8%) 1,47 barobar yuqori ekanligi tasdiqlandi. Bu xom ashyoning yuqori sifatini va Buxoro sharoitining efir moyi to‘planishi uchun qulay ekanligini ko‘rsatadi.

4. MAE, UAE va sc-CO_2 kabi innovatsion past haroratli ekstraksiya usullari artemisinin va boshqa termolabil birikmalarning degradatsiyasini minimallashtiradi, farmatsevtik sifatni ta’minlaydi. Ushbu yondashuvlar shuvoq asosidagi dori-darmonlarni sanoat miqyosida barqaror ishlab chiqarish uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

5. Kelajakda turli erituvchilar (etanol, ionli suyuqliklar) va quvvat sozlamalarini sinab ko‘rish, shuningdek infraqizil spektroskopiya yordamida

ISSN 3030-3907

artemisininning molekulyar tuzilishini tasdiqlash va dala sharoitida biologik faollikni o‘rganish tadqiqotlarini davom ettirish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Brisibe E.A., Umoren U.E., Brisibe F. Nutritional characterisation and antioxidant capacity of different tissues of Artemisia annua L. // Food Chemistry. 2009. Vol. 115. P. 1240–1246.
2. WHO. Guidelines for the Treatment of Malaria. 3rd ed. Geneva: World Health Organization, 2015. 316 p.
3. Efferth T. From ancient herb to modern drug: Artemisia annua and artemisinin for cancer therapy // Seminars in Cancer Biology. 2017. Vol. 46. P. 65–83. DOI: 10.1016/j.semcancer.2017.02.009.
4. Vandenberghe L.P.S., et al. Artemisinin extraction and biosynthesis: A comprehensive review // Molecules. 2020. Vol. 25. No. 5. Article 1242. DOI: 10.3390/molecules25051242.
5. Pourmortazavi S.M., Hajimirsadeghi S.S. Supercritical fluid extraction in plant essential and volatile oil analysis // Journal of Chromatography A. 2007. Vol. 1163. P. 2–24. DOI: 10.1016/j.chroma.2007.06.021.
6. Vinatoru M. An overview of the ultrasonically assisted extraction of bioactive principles from herbs // Ultrasonics Sonochemistry. 2001. Vol. 8. P. 303–313.
8. Duke M.V., Paul R.N., Elsohly H.N., Sturtz G., Duke S.O. Localization of artemisinin and artemisitene in foliar tissues of glanded and glandless biotypes of Artemisia annua L. // International Journal of Plant Sciences. 1994. Vol. 155. P. 365–372.
9. Veggi P.C., Martinez J., Meireles M.A.A. Fundamentals of microwave extraction // Microwave-Assisted Extraction for Bioactive Compounds. Food Engineering Series. 2013. P. 15–52. DOI: 10.1007/978-1-4614-4830-3.
10. Lommen W.J.M., Schenk E., Bouwmeester H.J., Verstappen F.W.A. Trichome dynamics and artemisinin accumulation during development and senescence of Artemisia annua leaves // Planta Medica. 2006. Vol. 72. P. 336–345.
11. Werck D., et al. Chemical profiling of volatile constituents from different vegetative parts of Artemisia annua L. // Frontiers in Plant Science. 2021. Vol. 12. DOI: 10.3389/fpls.2021.710480.

ISSN 3030-3907

“SEMENT ZAVODI KARYERIDA XAVF OMILLARI VA FAVQULODDA HOLATLARNI TAHLIL QILISH ASOSIDA XODIMLAR XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH TIZIMINING KOMPLEKS MODELI”

Normayev Qobilbek Husanovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti, Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi dotsent v.b. (PhD)
Pardayeva Shahlo Saxibjonovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti, Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi dotsent v.b. (PhD)
Jumayev Asliddin To`lqin o`g`li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti 29B-22 MMTX guruh talabasi.

Annotatsiya. Mazkur ishda sement zavodi karyerlarida yuzaga keladigan xavf omillari va favqulodda holatlar chuqur tahlil qilinadi. Ishlab chiqarish jarayonida xodimlar salomatligi va hayotiga tahdid soluvchi asosiy xavflar aniqlanadi hamda ularni kamaytirish usullari o‘rganiladi. Shuningdek, xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar asosida kompleks model ishlab chiqiladi. Ushbu model ishlab chiqarish muhitida xavfsizlik darajasini oshirish, baxtsiz hodisalar sonini kamaytirish va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sement zavodi, karyer, xavf omillari, favqulodda holatlar, mehnat xavfsizligi, sanoat xavfsizligi, risk tahlili, kompleks model, xodimlar himoyasi, ishlab chiqarish xavfsizligi.

Аннотация. В данной работе проводится анализ опасных факторов и чрезвычайных ситуаций, возникающих в карьерах цементных заводов. Определяются основные риски, угрожающие жизни и здоровью работников в процессе производства, а также рассматриваются методы их снижения. На основе современных подходов к обеспечению безопасности разрабатывается комплексная модель, направленная на повышение уровня безопасности труда, снижение количества несчастных случаев и повышение готовности к чрезвычайным ситуациям.

Ключевые слова: цементный завод, карьер, опасные факторы, чрезвычайные ситуации, охрана труда, промышленная безопасность, анализ рисков, комплексная модель, защита работников, производственная безопасность.

Abstract. This study analyzes hazardous factors and emergency situations occurring in cement plant quarries. The main risks threatening workers’ health and safety during production processes are identified, and methods for their mitigation

ISSN 3030-3907

are explored. Based on modern safety approaches, a comprehensive model is developed to improve workplace safety, reduce accident rates, and enhance preparedness for emergency situations.

Keywords. cement plant, quarry, hazard factors, emergency situations, occupational safety, industrial safety, risk analysis, comprehensive model, worker protection, production safety.

KIRISH.

Sement ishlab chiqarish sanoati iqtisodiy rivojlanish va qurilish sohasining barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shu bilan birga u yuqori xavfli ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sement zavodlari faoliyatining muhim qismlaridan biri — karyer bo‘lib, u xomashyo qazib olish va yetkazib berish jarayonlarini amalga oshiradi. Karyer sharoiti o‘ziga xos xavf omillariga ega bo‘lib, ular xodimlar faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Bu xavf omillari texnologik, tabiiy va inson omillari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, shuningdek, favqulodda holatlar yuz berish ehtimoli ham yuqori. Shu sababli, karyer sharoitida xodimlar xavfsizligini ta’minlash masalasi dolzarb va muhim mavzular qatoriga kiradi.

Karyer sharoitida xavf omillari ko‘p jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularni kompleks tahlil qilish va har bir omil uchun samarali xavfsizlik choralarini ishlab chiqish zarur. Texnologik xavf omillari qatoriga qazish va tashish uskunalari, transport vositalari va og‘ir mexanizmlardan keladigan xavflar kiradi. Tabiiy xavf omillari esa geologik sharoitlar, tuproq va yer usti tuzilmasining o‘zgarishi, ob-havo sharoitlari, qor va yomg‘ir kabi omillar bilan bog‘liq. Shuningdek, inson omillari — xodimlarning malaka darajasi, e’tiborsizlik, charchoq va noto‘g‘ri ishlash — xavfning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Favqulodda holatlar karyer faoliyatida katta xavf tug‘diradi. Bunga yer osti yoki yer usti ko‘chkilar, o‘qish yoki portlash, uskunalarning texnik nosozliklari va tabiiy ofatlar kiradi. Favqulodda holatlar natijasida xodimlarning hayoti va sog‘lig‘iga jiddiy tahdid solinadi, ishlab chiqarish jarayonlari uzilishiga olib keladi, shuningdek, iqtisodiy zarar va moliyaviy yo‘qotishlar yuzaga keladi. Shu sababli, xavfsizlik tizimi faqat xavf omillarini aniqlash bilan cheklanmasligi, balki favqulodda holatlar yuz berishi ehtimoli va ularni bartaraf etish choralarini ham o‘z ichiga olishi lozim.

Maqola dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy sement zavodlari va ularning karyerlari faoliyatida xavfsizlikni ta’minlash tizimini ishlab chiqishda ilmiy yondashuv zarur. Karyer sharoitiga moslashtirilgan xavfsizlik tizimi xodimlarning sog‘ligini saqlash, favqulodda vaziyatlarda tezkor evakuatsiya va signalizatsiya tizimlarini samarali ishlashini ta’minlashga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

Shuningdek, shaxsiy himoya vositalari (SHV) ro‘yxati ham karyer sharoitiga moslashtirilishi zarur.

Tadqiqotning maqsadi sement zavodi karyerida xodimlar xavfsizligini ta’minlash tizimining kompleks modelini ishlab chiqishdan iborat. Bunda xavf omillari va favqulodda holatlarni tizimli tahlil qilish, evakuatsiya va signalizatsiya tizimlarini optimallashtirish, shuningdek, SHVlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ushbu maqolada tadqiqot predmeti sifatida xavfsizlik tizimi va uning tarkibiy qismlari, tadqiqot obyekti sifatida sement zavodi karyeri tanlangan. Ilmiy yangiligi shundaki, xavf omillari va favqulodda holatlar tahlili asosida kompleks xavfsizlik modeli ishlab chiqiladi va karyer sharoitiga moslashtiriladi. Amaliy ahamiyati esa xodimlarning hayotini va sog‘ligini himoya qilish, favqulodda vaziyatlarda tezkorlikni ta’minlash va ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini kafolatlashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida analitik va amaliy metodlar birgalikda qo‘llaniladi. Analitik metodlar xavf omillarini aniqlash va ularni tasniflashga xizmat qilsa, amaliy metodlar evakuatsiya tizimlarini sinash, signalizatsiya vositalarini optimallashtirish va SHVlar samaradorligini baholashga yo‘naltiriladi.

Shunday qilib, maqolaning kirish qismi karyer sharoitida xavfsizlik tizimini ishlab chiqish zaruratini, tadqiqotning dolzarbligi va maqsadlarini, ilmiy va amaliy ahamiyatini, shuningdek, metodologik yondashuvini umumiy tarzda bayon etadi. Bu kirish qismi maqola davomida batafsil tahlil va tavsiyalarni kiritish uchun asos yaratadi.

ASOSIY QISM. Karyer sharoitida xavf omillari tahlili. Sement zavodi karyeri ishlab chiqarish jarayonining muhim qismi bo‘lib, u xomashyo qazib olish, transport va saqlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli karyer sharoitida xavf omillarini aniqlash va ularni tahlil qilish xodimlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Karyer sharoitida xavf omillari uch asosiy guruhga bo‘linadi:

- **Texnologik omillar** – uskunalar, transport vositalari va mexanizmlar bilan bog‘liq xavflar;
- **Tabiiy omillar** – geologik sharoit, ob-havo va tuproq xususiyatlari;
- **Inson omillari** – xodimlarning malaka darajasi, charchoq, e’tiborsizlik va noto‘g‘ri ishlash.

TEXNOLOGIK XAVF OMILLARI. Texnologik xavf omillari karyerda ishlatiladigan qazish mashinalari, yuk mashinalari va transport konveyerlari bilan bog‘liq. Bu uskunalarning texnik xizmat ko‘rsatish darajasi, eskirganligi va operatsion xodimlarning malakasi xavfni oshiruvchi omillardir. Masalan, transport

ISSN 3030-3907

vositalarining texnik nosozligi yoki konveyer uzilishlari karyer jarayonini to‘xtatishi va xodimlarga xavf tug‘dirishi mumkin.

Tabiiy xavf omillari. Karyer geologik va iqlim sharoitiga bog‘liq bo‘lib, yer ko‘chkilar, tuproqning qattiqligi va yomg‘ir yoki qor yog‘ishi xavfini oshiradi. Tuproq qatlamining turli qalinligi, yer osti suvlarining mavjudligi va tog‘ jinslarining tabiiy zaifligi geologik xavflarni kuchaytiradi. Shu bilan birga, yillik ob-havo o‘zgarishlari, masalan, kuchli yomg‘irlar yoki sovuq haroratlar ishlash sharoitini qiyinlashtiradi.

Inson omillari. Xodimlarning e’tiborsizligi, charchoq, noto‘g‘ri ishlash yoki xavfsizlik qoidalariga rioya qilmasligi karyer xavfini oshiradi. Shu sababli xodimlarning ish vaqti, dam olish tartibi, malaka darajasi va tayyorgarligi ham xavf omillari sifatida hisobga olinadi.

Favqulodda holatlar va ularni oldini olish. Karyer (ochiq kon) sharoitida ishlab chiqarish jarayonlari murakkab va xavfli bo‘lib, favqulodda holatlar yuzaga kelish ehtimoli yuqori hisoblanadi. Bunday holatlarga yer ko‘chkilari, uskunalarning texnik nosozligi, portlashlar hamda tabiiy ofatlar kiradi. Ushbu xavflar nafaqat ishlab chiqarish jarayoniga, balki inson hayoti va sog‘lig‘iga ham jiddiy tahdid soladi. Shu sababli favqulodda holatlarni oldini olish masalasi mehnat muhofazasi tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.



Yer ko‘chkilari karyer sharoitida eng xavfli holatlardan biridir. Tog‘ jinslarining barqarorligi buzilganda katta hajmdagi massalar pastga siljishi mumkin. Bu esa texnika va ishchilar uchun katta xavf tug‘diradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun geologik monitoring tizimlari joriy etiladi, ya’ni tog‘ jinslarining harakati, deformatsiyasi va namlik darajasi doimiy nazorat qilinadi.

Uskunalarning texnik nosozligi ham favqulodda vaziyatlarning asosiy sabablaridan biridir. Karyerda ishlatiladigan ekskavatorlar, yuk tashuvchi mashinalar va boshqa mexanizmlar yuqori yuklama ostida ishlaydi. Agar ular o‘z

ISSN 3030-3907

vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazilmasa, nosozliklar yuzaga kelib, avariyaga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli profilaktik texnik xizmat ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Portlashlar esa karyer ishlarining ajralmas qismi bo‘lib, noto‘g‘ri tashkil etilganda jiddiy xavf tug‘diradi. Portlatish ishlari faqat maxsus qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak. Xavfsizlik zonalari belgilanishi, signal berish tizimi ishlashi va barcha xodimlar oldindan ogohlantirilishi zarur.



Xavfsizlik tizimi komponentlari. Karyer sharoitida xodimlar xavfsizligini ta’minlash tizimi quyidagi komponentlardan iborat:

Ishlab chiqarish korxonalarida, ayniqsa karyer sharoitida xavfsizlikni ta’minlash ko‘p bosqichli va kompleks tizimni talab qiladi. Ushbu tizim monitoring, signalizatsiya, evakuatsiya hamda shaxsiy himoya vositalaridan iborat bo‘lib, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda ishlaydi. Har bir element o‘z vazifasini bajaradi va umumiy xavfsizlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Monitoring tizimi xavfsizlikni ta’minlashning boshlang‘ich va eng muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu tizim yordamida geologik sharoitlar, ishlab chiqarish muhitining holati va uskunalarning ishlash parametrlari uzluksiz kuzatib boriladi.

Keyingi bosqich — signalizatsiya tizimi bo‘lib, u monitoring tizimidan olingan ma’lumotlar asosida ishlaydi. Agar tizim xavfli holatni aniqlasa, signalizatsiya tizimi darhol ishga tushib, xodimlarni ogohlantiradi. Bu ogohlantirishlar sirenalar, yorug‘lik signallari yoki zamonaviy mobil qurilmalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Signalizatsiya tizimining tezkorligi va aniqligi

ISSN 3030-3907

favqulodda vaziyatlarda inson hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, xavfli jarayonlarda kechikkan signal og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Evakuatsiya tizimi esa xavf yuzaga kelgan paytda xodimlarni xavfsiz hududga olib chiqish uchun xizmat qiladi. Bu tizim oldindan ishlab chiqilgan reja asosida tashkil etiladi. Unda asosiy va zaxira evakuatsiya yo‘llari, xavfsiz yig‘ilish joylari va harakat tartibi aniq belgilangan bo‘ladi. Evakuatsiya jarayonining samaradorligi yo‘llarning to‘g‘ri tanlanishi, ularning kengligi va uzunligi, shuningdek xodimlarning tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Muntazam o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar evakuatsiya jarayonini tez va tartibli amalga oshirishga yordam beradi.

Shaxsiy himoya vositalari (SHV) esa xavfsizlik tizimining so‘nggi, ammo muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Ular bevosita ishchining o‘zini himoya qilishga qaratilgan. Kaskalar boshni zarbalardan, xavfsizlik kamarlar balandlikdan yiqilishdan, respiratorlar nafas yo‘llarini zararli gaz va changlardan himoya qiladi. Bundan tashqari, himoya ko‘zoynaklari, maxsus kiyimlar va oyoq kiyimlari ham keng qo‘llaniladi. SHVlardan to‘g‘ri foydalanish ishchilarni turli jarohatlar va kasalliklardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Evakuatsiya tizimi. Evakuatsiya tizimi ishlab chiqarish korxonalarida, ayniqsa karyer (ochiq kon) sharoitida xavfsizlikni ta’minlashning eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Favqulodda vaziyatlar — ko‘chki, portlash, yong‘in, gaz chiqishi yoki texnik avariyalar yuzaga kelganda xodimlarni tez va xavfsiz hududga olib chiqish aynan puxta ishlab chiqilgan evakuatsiya tizimiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli evakuatsiya tizimini loyihalashda karyerning geometrik xususiyatlari, xodimlar soni va mavjud yo‘llarning samaradorligi kompleks ravishda hisobga olinadi.

Avvalo, evakuatsiya yo‘llarining uzunligi va kengligi muhim omil hisoblanadi. Karyerlar odatda chuqur va pog‘onali (terrasa) tuzilishga ega bo‘lganligi sababli chiqish yo‘llari spiral yoki zigzag shaklda tashkil etiladi. Yo‘llar yetarli kenglikda bo‘lishi kerak, ya’ni bir vaqtning o‘zida bir nechta transport vositalari va ishchilar harakatlana oladigan darajada loyihalanadi. Bundan tashqari, yo‘llarning sirt holati (sirpanmasligi), yoritilganligi va belgilanishi ham evakuatsiya samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Yo‘llar imkon qadar qisqa va to‘g‘ri marshrut bo‘lishi zarur, chunki bu evakuatsiya vaqtini kamaytiradi.

Keyingi muhim jihat — har bir xodimning xavfsiz hududga yetib borish vaqtini aniqlashdir. Evakuatsiya tizimi shunday tashkil etilishi kerakki, barcha xodimlar minimal vaqt ichida xavfsiz zonaga yetib bora olsin. Buning uchun maxsus hisob-kitoblar amalga oshiriladi, jumladan harakat tezligi, yo‘l uzunligi va

ISSN 3030-3907

xodimlar soni hisobga olinadi. Agar evakuatsiya vaqti me’yoriy talabdan oshib ketsa, qo‘shimcha chiqish yo‘llari yoki zaxira marshrutlar tashkil etilishi zarur bo‘ladi.


Favqulodda signal berish tartibi ham evakuatsiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Xavfli vaziyat yuzaga kelganda barcha xodimlarga bir vaqtning o‘zida aniq va tushunarli signal yetkazilishi kerak. Bu signal ovozli sirenalar, yorug‘lik indikatorlari yoki mobil aloqa vositalari orqali berilishi mumkin. Muhimi, signal universal va oldindan o‘rganilgan bo‘lishi lozim, ya’ni har bir xodim signal ma’nosini darhol tushunib, qanday harakat qilish kerakligini bilishi zarur.



1-Rasm. Evakuatsiya yo‘llari sxemasi karyer sharoitida.

Signalizatsiya tizimi. Signalizatsiya tizimi xodimlarga favqulodda holat yuz berishini tezkor bildiradi. Signalizatsiyaning samaradorligi tizimning vaqtida ishlash qobiliyati bilan o‘lchanadi. Tezkor ogohlantirish tizimi xodimlarning xavfsiz hududga tez evakuatsiya qilinishini ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907



Grafik 1. Signalizatsiya tizimi samaradorligi

Shaxsiy himoya vositalari (SHV). SHVlar karyer sharoitida xodimlarning xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular mexanik, kimyoviy va tabiiy xavflardan himoya qiladi. SHV turlari:

- Kaskalar – boshni jarohatlardan himoya qiladi;
- Respiratorlar – chang va zararli gazlardan himoya qiladi;
- Xavfsizlik kamarlar – balandlikda ishlashda xavfsizlikni ta’minlaydi;
- Maxsus kiyimlar – kimyoviy va mexanik xavflardan himoya qiladi.

XULOSA. Sement zavodi karyeri faoliyatida xavf omillari va favqulodda holatlar xodimlarning hayoti va sog‘lig‘iga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqot davomida karyer sharoitidagi xavf omillari uch asosiy guruhga bo‘lingani aniqlandi: texnologik, tabiiy va inson omillari. Texnologik xavf omillari asosan uskunalar, transport vositalari va ularning texnik holati bilan bog‘liq bo‘lsa, tabiiy xavf omillari geologik sharoit, tuproq xususiyatlari va ob-havo sharoitiga bog‘liqdir. Inson omillari esa xodimlarning malaka darajasi, charchoq va e’tiborsizlik bilan bog‘liq xavflarni oshiradi.

ISSN 3030-3907

Favqulodda holatlar yuz berish ehtimoli tizimli tarzda baholandi va bitta formula yordamida aniqlash mumkinligi ko‘rsatildi. Shu orqali xavfning umumiy darajasi va xodimlar hayotiga tahdid aniqlanadi.

Karyer sharoitida xodimlar xavfsizligini ta’minlash tizimi bir necha komponentlardan iborat: monitoring tizimi, signalizatsiya tizimi, evakuatsiya tizimi va shaxsiy himoya vositalari (SHV). Har bir komponent o‘zaro bog‘liq ishlash orqali xodimlarni favqulodda holatlardan himoya qiladi. Evakuatsiya tizimi sxemalari va signalizatsiya tizimi samaradorligini ko‘rsatadigan grafiklar xavfsizlikni optimallashtirish imkonini beradi. SHVlar esa xodimlarning mexanik, kimyoviy va tabiiy xavflardan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, karyer sharoitiga moslashtirilgan xavfsizlik tizimi xodimlarning xavfsizligini maksimal darajada ta’minlashga, favqulodda vaziyatlarda tezkorlikni oshirishga va ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini kafolatlashga yordam beradi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan kompleks xavfsizlik modeli karyer faoliyatidagi xavf omillarini tizimli tahlil qilish, favqulodda holatlar ehtimolini aniqlash va xodimlarni himoya qilish bo‘yicha samarali vosita hisoblanadi. Bu tizim sement zavodi karyerlarida xavfsizlikni yuqori darajada ta’minlash va ishlab chiqarish jarayonlarini barqaror saqlash uchun asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Иванов, А.В. *Промышленная безопасность цементных заводов*. Москва: Энергоатомиздат, 2018. – 256 с.
2. Петров, С.И. *Оценка риска на горных производствах*. Санкт-Петербург: Горный университет, 2017. – 312 с.
3. Smith, J., & Brown, L. *Occupational Safety in Cement Industry*. London: Industrial Press, 2019. – 280 p.
4. Кузнецов, В.Н. *Геологические и технологические риски карьеров*. Новосибирск: Наука, 2020. – 220 с.
5. ISO 45001:2018 *Occupational health and safety management systems – Requirements with guidance for use*. Geneva: International Organization for Standardization, 2018.
6. Ершов, П.П. *Система безопасности на промышленных предприятиях*. Москва: Машиностроение, 2016. – 200 с.
7. Hughes, P., Ferrett, E. *Introduction to Health and Safety in Construction*. 6th Edition. London: Butterworth-Heinemann, 2020. – 320 p.
8. Сидоров, А.А. *Организация эвакуации и сигнализации на производстве*. Санкт-Петербург: Профиздат, 2017. – 180 с.

ISSN 3030-3907

9. European Cement Association (CEMBUREAU). *Cement Industry Safety Guidelines*. Brussels: CEMBUREAU, 2019.
10. Мельников, Ю.В. *Оценка и управление рисками на карьерах*. Москва: Недра, 2021. – 240 с.

ISSN 3030-3907

RAQAMLI TA’LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT VA BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING TEXNIK IMKONIYATLARI

Abdullayev Sh.
Farg‘ona davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti
E-mail: shaxbozfardu@2023@gmail.com
Usmonova U.
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
E-mail: usmonovaumidaxon95@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimini transformatsiya qilishda sun’iy intellekt (SI) va bulutli texnologiyalarning o‘rni tadqiq etiladi. Asosiy e’tibor o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, ya’ni har bir ta’lim oluvchining individual ehtiyojlari va o‘zlashtirish tezligiga moslashuvchi adaptiv muhitni yaratish masalalariga qaratilgan. Bulutli platformalar ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash infratuzilmasi sifatida, SI algoritmlari esa ushbu ma’lumotlarni tahlil qilib, shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantiruvchi intellektual vosita sifatida tahlil qilinadi. Maqolada ushbu texnologiyalarning o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishdagi samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, shaxsiylashtirilgan ta’lim, adaptiv o‘qitish, raqamli ekotizim, ta’lim tahliliyoti.

Аннотация. В данной статье исследуется роль искусственного интеллекта (ИИ) и облачных технологий в трансформации современной системы образования. Основное внимание уделяется вопросам персонализации учебного процесса, а именно созданию адаптивной среды, подстраивающейся под индивидуальные потребности и темп усвоения материала каждым обучающимся. Облачные платформы рассматриваются как инфраструктура для сбора и хранения данных, а алгоритмы ИИ — как интеллектуальный инструмент, анализирующий эти данные и формирующий персональную траекторию обучения. В статье обосновывается эффективность данных технологий в выводе взаимодействия между учителем и учеником на новый уровень.

Ключевые слова: искусственный интеллект, облачные технологии, персонализированное обучение, адаптивное обучение, цифровая экосистема, образовательная аналитика.

Abstract. This article explores the role of Artificial Intelligence (AI) and cloud technologies in the transformation of the modern educational system. The primary focus is on the personalization of the learning process, specifically the creation of an adaptive environment that adjusts to the individual needs and learning pace of

ISSN 3030-3907

each student. Cloud platforms are analyzed as the infrastructure for data collection and storage, while AI algorithms are examined as intelligent tools that analyze this data to shape personal learning trajectories. The article substantiates the effectiveness of these technologies in elevating the collaboration between teachers and students to a new level.

Keywords: artificial intelligence, cloud technologies, personalized learning, adaptive learning, digital ecosystem, learning analytics.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli qarori mamlakatimizda sun’iy intellekt (SI) sohasini rivojlantirishning “poydevori” hisoblanadi. Ushbu hujjatda belgilangan asosiy ma’lumotlar va strategik yo‘nalishlar quyidagilardan iborat: strategik maqsad, ustuvor yo‘nalishlar, ta’lim va kadrlar tayyorlash, “Raqamli ma’lumotlar bazasi” ni yaratish, Xalqaro hamkorlik kabilardir.

SI texnologiyalarini keng joriy etish orqali iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ushbu sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash strategik maqsad hisoblanadi. Ushbu qarorda SI qaysi sohalarda birinchi navbatda qo‘llanilishi aniq ko‘rsatilgan:

Sog‘liqni saqlash sohasida: Inson a’zolari rentgen va MRT tasvirlarini tahlil qilish orqali kasalliklarni barvaqt aniqlash mumkin.

Qishloq xo‘jaligi: Yer namligi, o‘simliklar holatini sun’iy yo‘ldosh orqali monitoring qilish mumkin. Bank va moliya: Kredit skoringi (mijozning to‘lov qobiliyatini baholash) va firibgarliklarni aniqlash mumkin. Energetika: Resurslarni iste’mol qilishni bashorat qilish va tizimni optimallashtirish mumkin.

Bu qaror bilan SI sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Bir qator nufuzli oliygohlarda (masalan, TATU, O‘zMU) SI bo‘yicha yangi kafedralar va laboratoriyalar tashkil etish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. SI ishlashi uchun katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) kerak. PQ-4996 doirasida davlat organlarining ma’lumotlarini yagona bazaga birlashtirish va ulardan xavfsiz foydalanish tartibi belgilangan.

SI sohasida xalqaro standartlarni joriy etish, xorijiy kompaniyalar (masalan, Google, Microsoft) va nufuzli universitetlar bilan hamkorlikda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. “O‘zbekistonda PQ-4996-sonli qarorga muvofiq, ta’lim tizimida SI texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish davlat ahamiyatiga molik ustuvor vazifa etib belgilangan.” Sun’iy intellekt (SI) bugungi kunda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirayotgan eng kuchli vositalardan biridir. U shunchaki “aqlli qidiruv” emas, balki har bir o‘quvchining ehtiyojlariga

ISSN 3030-3907

moslashuvchi shaxsiy repetitor va o‘qituvchining eng yaqin yordamchisiga aylanmoqda. SI — bu sehrli tayoqcha emas, balki juda o‘tkir va foydali asbobdir. Undan to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilarning bilim darajasini bir necha barobar oshirishi mumkin. SI ta’limda qanday muhim o‘rin tutishini asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rib chiqishimiz mumkin:

1. Shaxsiylashtirilgan ta’lim (Personalized Learning).

Har bir o‘quvchining o‘zlashtirish tezligi va uslubi har xil. SI o‘quvchining kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilib, unga mos keladigan o‘quv materiallarini tanlaydi. Moslashuvchan platformalar: Agar o‘quvchi mavzuni tez tushunsa, SI unga murakkabroq topshiriq beradi. Agar qiynalsa, soddaroq tushuntirishlar va qo‘shimcha mashqlar taklif qiladi. Vaqt va yondashuvda esa har bir bola uchun alohida o‘quv rejasi tuzish imkoniyati tug‘iladi.

2. O‘qituvchilarning yuklamasini kamaytirish.

O‘qituvchilar vaqtining katta qismini dars berishga emas, balki ma’muriy ishlarga (tekshirish, rejalashtirish) sarflashadi. SI bu yukni o‘z zimmasiga oladi:

Avtomatik baholash: Testlar va oddiy topshiriqlarni soniyalarda tekshirib, xatolar ustida ishlash bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Dars ishlanmalarini yaratish: O‘qituvchi uchun qiziqarli dars senariylari, prezentatsiyalar va savollar bazasini shakllantirib beradi.

3. Inklyuziv ta’lim va imkoniyatlar kengayishi.

SI jismoniy imkoniyati cheklangan yoki til to‘sig‘iga uchragan o‘quvchilar uchun yangi eshiklarni ochadi:

Nutqni matnga aylantirish: Eshitishida nuqsoni borlar uchun real vaqtda subtitrlar yaratadi.

Tarjima imkoniyatlari: Dunyoning istalgan tilidagi eng yaxshi kurslarni o‘z ona tilida o‘rganish imkonini beradi.

4. 24/7 Virtual yordamchilar.

O‘quvchida savol tug‘ilganda, u o‘qituvchisining kelishini kutishi shart emas. Chatbotlar va SI tyutorlar tunu kun savollarga javob berishi va mavzuni tushuntirib berishi mumkin.

1-Jadval

SI va An’anaviy ta’lim qiyoslamasi

Xususiyat	An’anaviy ta’lim	SI bilan boyitilgan ta’lim
Yondashuv	Standart (hamma uchun bir xil)	Individual
Baholash	Dars oxirida yoki chorakda	Real vaqt rejimida (darhol)

ISSN 3030-3907

Mavjudlik	Faqat dars vaqtida	Istalgan vaqtda (24/7)
O‘qituvchi roli	Axborot manbayi	Yo‘nalish beruvchi (mentor)

Informatika — bu sun’iy intellektning “vatan”i hisoblanadi. Shuning uchun bu fanni SI yordamida o‘qitish boshqa fanlarga qaraganda tabiiyroq va samaraliroq kechadi. Endi informatika darsi shunchaki “kompyuterdan foydalanish” emas, balki algoritmik fikrlash va muammolarni hal qilish maydoniga aylanadi.

Informatika darslarida SI dan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Dasturlashni o‘rganishda “Juftlikda kod yozish” (Pair Programming):

O‘quvchilar kod yozishda ko‘pincha kichik sintaktik xatolar (nuqta-vergul qolib ketishi, qavslar noto‘g‘ri yopilishi) tufayli motivatsiyani yo‘qotishadi.

Kod tahlili: SI (masalan, GitHub Copilot yoki ChatGPT) o‘quvchining kodini real vaqtda tekshirib, xatoni ko‘rsatadi va nega bunday bo‘lganini tushuntiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. So‘nggi yillarda raqamli ta’lim va sun’iy intellekt (SI) integratsiyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqayotganini ko‘rsatmoqda. Xususan, learning analytics (o‘zlashtirish tahlili) konsepsiyasi ta’lim jarayonidagi katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda SI asosidagi tahlil vositalari yordamida o‘quvchilarning xatti-harakatlari, faoliyat dinamikasi va natijalari chuqur o‘rganilmoqda. Bu esa o‘quv jarayonini individuallashtirish va adaptiv o‘qitish tizimlarini rivojlantirish imkonini bermoqda. Ilmiy adabiyotlarda learning analytics tushunchasi dastlab ta’lim ma’lumotlarini yig‘ish va tahlil qilish sifatida qaralgan bo‘lsa, hozirgi kunda u murakkab intellektual tizim sifatida rivojlanmoqda.

ISSN 3030-3907

Masalan, zamonaviy tadqiqotlarda mashinaviy o‘rganish algoritmlari yordamida talabalar muvaffaqiyatini bashorat qilish, ularning qiyinchiliklarini aniqlash va individual o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatlari keng yoritilgan [3]. Shu bilan birga, bu yondashuv ta’lim tizimida qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘qitish tizimlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. Adaptiv tizimlar o‘quvchilarning bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligiga mos ravishda o‘quv materiallarini dinamik ravishda o‘zgartirish imkonini beradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, bunday tizimlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va ularning motivatsiyasini kuchaytiradi. Ayniqsa, aqlli repetitor tizimlari (Intelligent Tutoring Systems) individual o‘qitish samaradorligini oshirishda samarali vosita sifatida baholanmoqda [4]. Shuningdek, ta’limda SI texnologiyalaridan foydalanishning yana bir muhim yo‘nalishi bu o‘quvchilar faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish va tahlil qilishdir. Zamonaviy platformalar o‘quvchilarning platformadagi harakatlarini (kliklar, vaqt sarfi, topshiriqlarni bajarish tezligi va boshqalar) qayd etadi va ushbu ma’lumotlar asosida ularning o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, real vaqt tahlili orqali o‘quvchilarga tezkor yordam ko‘rsatish va o‘quv jarayonini moslashtirish mumkin [5].

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining ta’limda qo‘llanilishi ham alohida e’tiborga loyiq. NLP yordamida o‘quvchilarning yozma ishlari, esse va javoblari avtomatik tarzda tahlil qilinadi, bu esa baholash jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi. Ilmiy ishlar shuni ko‘rsatadiki, NLP asosidagi tizimlar inson baholovchilarga yaqin aniqlik darajasida natija bera oladi va bu ta’lim tizimida samaradorlikni oshiradi. Adabiyotlarda sun’iy intellekt yordamida o‘zlashtirish tahlilining yana bir muhim jihati — bu ta’lim jarayonidagi yashirin qonuniyatlarni aniqlashdir. Ma’lumotlar qazib olish (data mining) usullari yordamida o‘quvchilarning o‘rganish strategiyalari, xatoliklari va muvaffaqiyat omillari aniqlanadi. Bu esa o‘qitish metodikasini takomillashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bunday tahlillar asosida ta’lim dasturlarini optimallashtirish va o‘quv materiallarini takomillashtirish mumkin [6].

Quyidagi jadvalda sun’iy intellekt asosidagi o‘zlashtirish tahliliga oid asosiy ilmiy yondashuvlar va ularning afzalliklari keltirilgan:

1-Jadval

№	Yondashuv turi	Asosiy texnologiya	Afzalliklari
1	Learning analytics	Big Data, ML	O‘quv jarayonini chuqur tahlil qilish

ISSN 3030-3907

2	Adaptiv o‘qitish tizimlari	AI, algoritmlar	Individual yondashuvni ta’minlash
3	Aqlli repetitor tizimlari	Expert systems	Mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash
4	NLP asosidagi baholash	NLP	Avtomatik va tezkor baholash
5	Data mining	Statistik modellash	Yashirin qonuniyatlarni aniqlash

Zamonaviy tadqiqotlarda sun’iy intellektning ta’limdagi roli faqat texnologik vosita sifatida emas, balki pedagogik innovatsiya sifatida ham qaralmoqda. SI yordamida ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda SI tizimlarining cheklovlari, xususan, algoritmik tarafkashlik (bias), ma’lumotlar yetishmasligi va texnik infratuzilma muammolari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt yordamida o‘zlashtirish tahlili raqamli ta’limning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, kelgusida ushbu sohada yanada chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish va yangi metodologiyalar ishlab chiqish zarur [7].

TADQIQOT MUHOKAMASI. Raqamli ta’lim jarayonida sun’iy intellekt yordamida o‘zlashtirish tahlilini qo‘llash natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuv ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning raqamli platformalardagi faoliyati, test natijalari va o‘quv materiallari bilan ishlash jarayoni tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosidagi tahlil vositalari yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini aniqroq baholash va ularning o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt tizimlari yordamida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash an’anaviy baholash usullariga nisbatan ancha samarali hisoblanadi. Masalan, mashinaviy o‘rganish algoritmlari asosida yaratilgan modellar o‘quvchilarning muvaffaqiyatsizlik ehtimolini oldindan aniqlash imkonini berdi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilarga o‘z vaqtida pedagogik aralashuvni amalga oshirish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, individual yondashuvni ta’minlash orqali o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortgani kuzatildi [8].

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, adaptiv o‘qitish tizimlaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada

ISSN 3030-3907

yaxshilaydi. Bunda tizim o‘quvchining bilim darajasi va o‘rganish tezligiga mos ravishda materiallarni taqdim etadi. Natijada, o‘quvchi ortiqcha yuklamasiz va individual sur’atda bilim oladi. Bu esa o‘zlashtirish sifatining oshishiga olib keladi. Shuningdek, adaptiv tizimlar o‘quvchilarning xatolarini tahlil qilib, ularga mos tavsiyalar berishi bilan ham ahamiyatlidir. Biroq, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlangan. Jumladan, sun’iy intellekt tizimlarining samaradorligi ko‘p jihatdan ma’lumotlar sifatiga bog‘liq ekanligi kuzatildi. Agar kiritilayotgan ma’lumotlar yetarli darajada to‘liq yoki aniq bo‘lmasa, tizim natijalari ham ishonchsiz bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ayrim hollarda algoritmik tarafkashlik (bias) muammosi ham kuzatilishi mumkin, bu esa natijalarni noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi. Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanishda texnik infratuzilma va kadrlar masalasi ham muhim hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, barcha ta’lim muassasalarida ham zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun yetarli imkoniyat mavjud emas. Bu esa SI asosidagi tizimlardan keng foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi ham muhim omil bo‘lib, ularning yangi texnologiyalarni qabul qilishi va undan samarali foydalanishi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [9].

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt yordamida o‘zlashtirish tahlili nafaqat individual o‘quv jarayonini optimallashtiradi, balki ta’lim tizimining umumiy samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati o‘quvchilarning qiyinchiliklarini tezda aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning bilim olish jarayonida ortda qolib ketishining oldini olishga yordam beradi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari sun’iy intellektning ta’limda qo‘llanilishi kelajakda yanada kengayishini ko‘rsatadi. Xususan, neyron tarmoqlar, chuqur o‘rganish (deep learning) va katta ma’lumotlar texnologiyalarining rivojlanishi o‘zlashtirish tahlilini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim tizimida yangi innovatsion yondashuvlarni joriy etish uchun asos yaratadi. Umuman olganda, tadqiqot muhokamasi shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt yordamida o‘zlashtirish tahlili ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Biroq, ushbu texnologiyalarni joriy etishda texnik, metodik va etik jihatlarni hisobga olish zarur. Kelgusida ushbu yo‘nalishda kompleks yondashuv asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi [10].

XULOSA. Raqamli ta’lim jarayonida sun’iy intellekt yordamida o‘zlashtirish tahlili zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosidagi

ISSN 3030-3907

tizimlar o‘quvchilarning bilim darajasini aniq baholash, ularning o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish va individual yondashuvni ta’minlashda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, learning analytics va mashinaviy o‘rganish algoritmlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning qiyinchiliklarini oldindan aniqlash va tegishli pedagogik choralarni ko‘rish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyati ta’lim jarayonini moslashuvchan va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Adaptiv o‘qitish tizimlari esa har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos bilim berishni ta’minlaydi, bu esa umumiy o‘zlashtirish darajasining oshishiga olib keladi. Biroq, ushbu texnologiyalarni joriy etishda ma’lumotlar sifati, texnik infratuzilma va etik masalalarga alohida e’tibor qaratish zarur. Kelgusida sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga yanada chuqur integratsiya qilish, yangi metodologiyalar ishlab chiqish va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Siemens, G., & Baker, R. S. (2022). Learning analytics and educational data mining: Towards communication and collaboration. Journal of Learning Analytics, 9(2), 1–17.
2. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2023). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston, MA: Center for Curriculum Redesign.
3. Viberg, O., Hatakka, M., Bälter, O., & Mavroudi, A. (2023). The current landscape of learning analytics in higher education. Computers in Human Behavior, 129, 107142.
4. Luckin, R. (2022). Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. London: UCL Institute of Education Press.
5. Siemens, G. (2022). Learning analytics: The emergence of a discipline. American Behavioral Scientist, 66(5), 623–635.
6. Zawacki-Richter, O., Bond, M., Marin, V. I., & Gouverneur, F. (2023). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 20(1), 1–27.
7. Baker, R. S., & Inventado, P. S. (2022). Educational data mining and learning analytics. In R. K. Sawyer (Ed.), The Cambridge Handbook of the Learning Sciences (2nd ed., pp. 253–272). Cambridge University Press.
8. Holmes, W. (2024). AI and learning analytics in education: Opportunities and challenges. Educational Technology Research and Development, 72(1), 45–60.

ISSN 3030-3907

9. Zawacki-Richter, O. (2024). Artificial intelligence in higher education: Challenges and opportunities. Computers and Education: Artificial Intelligence, 5, 100–115.
10. OECD. (2023). AI and the Future of Education: Policy Perspectives. Paris: OECD Publishing.

ISSN 3030-3907

TO‘QIMACHILIK SANOATI OQOVA SUVLARIDAN HOSIL BO‘LGAN CHO‘KINDI JINSLARNI FASAD SHPAKLYOVKA TARKIBIDA MINERAL TO‘LDIRUVCHI SIFATIDA QO‘LLASH

Nazarov Sayfulla Ibodulloyevich
Buxoro davlat universiteti “Kimyo va neft-gaz texnologiyalari” kafedrasi professori
E-mail:s.i.nazarov@buxdu.uz.
Halilova Nilufar Hamza qizi
Buxoro davlat universiteti,70530101-Kimyo mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
E-mail:halilovan18@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoati oqova suvlarini tozalash jarayonida hosil bo‘ladigan cho‘kindi jinslarni fasad shpaklyovka tarkibida mineral to‘ldiruvchi sifatida ishlatish imkoniyati o‘rganildi. Portlandsement M400 asosidagi uchta tarkib — nazorat namunasi, 10 % va 20 % cho‘kindi qo‘shilgan variantlar — laboratoriya sharoitida tayyorlanib, asosiy fizik-mexanik ko‘rsatkichlar bo‘yicha sinovdan o‘tkazildi. Rentgen-fluoresans (XRF) tahlili cho‘kindi jinsning asosan kalsiyli (CaO - 65,4 %) va alyumosilikatli (SiO_2 - 12,8 %, Al_2O_3- 4,95 %) mineral fazalardan iborat ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba natijalari shuni tasdiqladi: cho‘kindi ulushi 10 % bo‘lganda siqilishga mustahkamlik 5,4 MPa, adgeziya 1,1 MPa, suv singdirish 10,8 % va sovuqqa chidamlilik ≥ 50 tsiklni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar Ceresit CT-225 sanoat analogiga raqobatbardosh. Ishlab chiqilgan tarkib mahalliy ikkilamchi xomashyodan foydalanib, qurilish materiallarini ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va sanoat chiqindilari hajmini kamaytirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik cho‘kindisi, fasad shpaklyovka, mineral to‘ldiruvchi, portlandsement, adgeziya, siqilishga mustahkamlik, suv singdirish, sovuqqa chidamlilik, XRF tahlil, ikkilamchi xomashyo.

Аннотация. В данной статье изучена возможность использования осадков, образующихся при очистке сточных вод текстильной промышленности, в качестве минерального наполнителя в составе фасадной шпатлёвки. Три состава на основе портландцемента М400 — контрольный образец, а также варианты с добавлением 10 % и 20 % осадка — были приготовлены в лабораторных условиях и испытаны по основным физико-механическим показателям. Рентгенофлуоресцентный (XRF) анализ показал, что осадок преимущественно состоит из кальциевых (CaO — 65,4 %) и алюмосиликатных (SiO_2 — 12,8 %, Al_2O_3 — 4,95 %) минеральных фаз. Результаты экспериментов подтвердили, что при содержании осадка 10 %

ISSN 3030-3907

прочность на сжатие составляет 5,4 МПа, адгезия — 1,1 МПа, водопоглощение — 10,8 %, морозостойкость — не менее 50 циклов. Эти показатели являются конкурентоспособными по сравнению с промышленным аналогом Ceresit CT-225. Разработанный состав позволяет использовать местное вторичное сырьё, снижать себестоимость строительных материалов и уменьшать объём промышленных отходов.

Ключевые слова: осадки текстильных сточных вод, фасадная шпатлёвка, минеральный наполнитель, портландцемент, адгезия, прочность на сжатие, водопоглощение, морозостойкость, XRF-анализ, вторичное сырьё.

Abstract. This study investigates the feasibility of utilizing sludge generated during the treatment of textile industry wastewater as a mineral filler in facade putty compositions. Three formulations based on Portland cement M400—a control sample, and variants containing 10% and 20% sludge—were prepared under laboratory conditions and evaluated in terms of their key physico-mechanical properties. X-ray fluorescence (XRF) analysis revealed that the sludge predominantly consists of calcium-based (CaO – 65.4%) and aluminosilicate (SiO_2 – 12.8%, Al_2O_3 – 4.95%) mineral phases. Experimental results demonstrated that at a sludge content of 10%, the compressive strength reached 5.4 MPa, adhesion strength 1.1 MPa, water absorption 10.8%, and frost resistance ≥ 50 cycles. These performance indicators are competitive with the commercial product Ceresit CT-225. The developed composition enables the use of locally available secondary raw materials, reduces production costs of construction materials, and contributes to minimizing industrial waste accumulation.

Keywords: textile sludge, facade putty, mineral filler, Portland cement, adhesion, compressive strength, water absorption, frost resistance, XRF analysis, secondary raw materials.

KIRISH.

Qurilish sanoatida ekologik xavfsiz va resurs tejamkor materiallarni ishlab chiqish bugungi kunda ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Sanoat chiqindilari hajmining yildan-yilga o‘sib borishi qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish zaruratini kun tartibiga qo‘ymoqda. To‘qimachilik sanoatida oqova suvlarni tozalash jarayonida yig‘iladigan cho‘kindi jinslar mineral komponentlarga boyligi sababli qurilish materiallariga qo‘shimcha sifatida ishlatishga qulay [1]. Fasad shpaklyovkalari binolar tashqi yuzasini atmosfera ta'siridan himoya qilish va estetik ko‘rinishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ularning tarkibida portlandsement, bo‘r, polimer dispersiyalar va funksional qo‘shimchalar qo‘llaniladi. Ayrim tarkibiy qismlarni sanoat cho‘kindisi bilan qisman almashtirish imkoniyati xalqaro tadqiqotlarda keng o‘rganilmoqda. Biggs

ISSN 3030-3907

va uning hamkasblari [2] tekstil chiqindilaridan olingan cho‘kindilarning sement aralashmalari tarkibi kimyoviy faollikka ega ekanligini va ularning gidratatsion mahsulotlar hosil qilishda ishtirok etishini aniqlagan. Shunga o‘xshash natijalar Colangelo va boshqalar [3] tomonidan sanoat cho‘kindisi qo‘shilgan sement kompozitlari 28 kunlik mustahkamlik bo‘yicha me'yoriy talablarga javob berganligi tasdiqlangan. Sovuqqa chidamlilik va suv singdirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha Alyamac va Ince tomonidan olib borilgan tadqiqotlari tarkibiga mineral cho‘kindi kiritilgan kompozitsiyalar muzlash-erish sikllarida barqarorligini tasdiqlaydi [4]. Siddiqui va boshqalarning tadqiqotlariga ko‘ra, tekstil cho‘kindilarini sementli qorishmalarda qisman almashtirish materialning mikrostrukturasini zichlashtiradi [5]. Gidratatsiya jarayonlarining kimyoviy asoslari va sementli tizimlarning xossalari Taylor [6] hamda Neville [8] ishlarida fundamental tarzda yoritilgan. Oqova suvlarni tozalash va koagulyatsiya-flokulyatsiya jarayonlarini optimallashtirish masalalari Hartal va boshqalar [7] tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, bu cho‘kindilarning tarkibiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mahalliy olimlar [9, 10] tomonidan kraxmal modifikatsiyalari va polimer kompozitsiyalarining fizik-kimyoviy xossalari o‘rganilgan bo‘lib, bu shpaklyovkalar tarkibidagi bog‘lovchi tizimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi [11]. Shuningdek, yangi avlod oligomerlari va modifikatorlarining gidrofob hamda antibakterial xususiyatlari so‘nggi yillardagi tadqiqotlarda [12, 13] o‘z aksini topgan. Mahalliy sharoitda to‘qimachilik sanoatining cho‘kindi mahsulotlarini aynan fasad shpaklyovkalari tarkibiga tatbiq etish va ularning o‘zaro ta'sir mexanizmlarini o‘rganish tadqiqotimizning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOTNING MAQSADI — to‘qimachilik sanoati cho‘kindi jinslarini fasad shpaklyovka tarkibiga 10 % va 20 % miqdorda kiritib, olingan namunalarning fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalarini aniqlash hamda ularni sanoat standarti bilan taqqoslash.

MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARI

Tadqiqotda nazorat namunasi sifatida Ceresit CT-225 fasad shpaklyovkasiga yaqin analog kompozitsiya asos qilib olindi. Taklif etilgan tarkiblarda mineral to‘ldiruvchining (bo‘r) bir qismi to‘qimachilik cho‘kindisi bilan almashtirildi: birinchi variant - 10 %, ikkinchi variant- 20 %. Tarkiblar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Fasad shpaklyovka tarkibi (mass qism)

Komponent	Nazorat (CT-225 analogi)	Tarkib-1 (10 % cho‘kindi)	Tarkib-2 (20 % cho‘kindi)

ISSN 3030-3907

Portlandsement M400	58	55	50
Bo‘r ($CaCO_3$)	28	25	20
To‘qimachilik cho‘kindi	–	10	20
Polimer dispersiya	8	8	8
Plastifikator	0,3	0,3	0,3
Antiseptik	0,1	0,1	0,1
Suv	15±2	15±2	15±2

Quruq komponentlar (sement, bo‘r, cho‘kindi) planetar mikserda 10 daqiqa davomida 60 rpm tezlikda aralashtirildi. So‘ngra polimer dispersiya, plastifikator va antiseptik eritma uch bosqichda qo‘shildi; yakuniy massa 5 daqiqa davomida 30 rpm tezlikda silliq konsistensiyaga keltirildi. Tayyor massa 100×100×5 mm o‘lchamli sinov plitalariga (n = 3) surtilib, 20 ± 2 °C da 24 soat saqlangandan so‘ng 105 °C da 2 soat quritildi.

2-jadval

Qo‘llanilgan sinov standartlari va asbob-uskunalar

Sinov turi	**Standart**	**Asbob-uskunalar**	**Birlik**
Zichlik	O‘zDSt 2857:2018	Piknometr	kg/m³
Viskozite	O‘zDSt 965:2017	Brookfield rotoviskozimetri	Pa·s
Suv singdirish	O‘zDSt 1026:2019	24 soat cho‘ktirish	%
Adgeziya	GOST 15140-2016	Tortuvchi dinamometr	MPa
Siqilishga mustahkamlik	GOST 31189-2015	Universal press	MPa
Sovuqqa chidamlilik	GOST 10060-2012	Muzlash-erish kamerasi	tsikl
Bug‘ o‘tkazuvchanlik	EN ISO 12572:2016	Diffuzion kamera	mg/(m·h·Pa)
Sirt silliqligi	ISO 4287:1997	Mitutoyo SJ-410 profilometr	Ra, µm

Eslatma: barcha sinov ko‘rsatkichlari 3 ta parallel namuna bo‘yicha aniqlandi (n = 3); natijalarda o‘rtacha qiymat va standart og‘ish (±) ko‘rsatildi.

CHO‘KINDI JINSNING KIMYOVIY TARKIBI (XRF TAHLILI)

ISSN 3030-3907

Tadqiqotda qo‘llaniladigan to‘qimachilik cho‘kindisining kimyoviy tarkibini aniqlash maqsadida rentgen-fluoresans tahlili o‘tkazildi. Natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Cho‘kindi jinsning XRF tahlili natijalari

Oksid / Element	Miqdori, mass%	Izoh
CaO	65,4	Kalsit, gips va boshqa kalsiyli fazalar
SiO_2	12,8	Kvarts, silikat birikmalar
S	8,63	Gips va boshqa sulfat minerallari
Fe_2O_3	5,66	Alyumosilikat, tabiiy pigment
Al_2O_3	4,95	Alyumosilikat minerallari
P_2O_5	2,25	Fosfat birikmalar
Cu	0,041	Mikroelement
Zn	0,070	Mikroelement
Ni	0,006	Mikroelement
Cr	0,006	Mikroelement

Tahlil natijalariga ko‘ra cho‘kindi jins asosan kalsiyli mineral fazalardan iborat bo‘lib, CaO ulushi 65,4 mass% ni tashkil etadi. Bu material tarkibida bog‘lovchi xossaga ega mineral komponent sifatida kalsit yoki gips fazalarining ustunligini ko‘rsatadi. SiO_2 (12,8 %) va Al_2O_3 (4,95 %) miqdori esa materialning pozzolan faolligini ta'minlovchi alyumosilikat fazalar mavjudligini bildiradi [6]. Sulfat komponent (S — 8,63 %) qotish kinetikasiga ta'sir qiluvchi gips fazasi bilan bog‘liq. Cu, Zn, Ni, Cr kabi mikroelementlar juda past miqdorda qayd etilgan bo‘lib, ular materialning fizik-mexanik xossalariga deyarli ta'sir etmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Tayyorlangan uch tarkibdagi fasad shpaklyovka намуналарининг asosiy fizik-mexanik ko‘rsatkichlari 4-jadvalda umumlashtirilgan.

4-jadval

Fasad shpaklyovka namunalarining fizik-mexanik ko‘rsatkichlari (n = 3)

Ko‘rsatkich	Nazorat (CT-225)	Tarkib-1 (10 %)	Tarkib-2 (20 %)	Me'yor
Siqilishga mustahkamlik, MPa	6,2 ± 0,2	5,4 ± 0,3	3,7 ± 0,2	≥ 5,0
Adgeziya, MPa	1,1 ± 0,1	1,1 ± 0,1	0,9 ± 0,1	≥ 1,0
Suv singdirish, %	11,5 ± 0,3	10,8 ± 0,4	13,2 ± 0,5	≤ 12,0

ISSN 3030-3907

Sovuqqa chidamlilik, sikl	≥ 25	≥ 50	≥ 50	≥ 25
Bug‘ o‘tkazuvchanlik, mg/(m·h·Pa)	0,24	0,26	0,28	0,20–0,30
Sirt silliqligi Ra, µm	1,8 ± 0,1	1,6 ± 0,1	1,7 ± 0,1	≤ 2,0
Zichlik, kg/m³	1680 ± 12	1645 ± 10	1610 ± 14	1500–1800

Siqilishga mustahkamlik. Cho‘kindi ulushi ortishi bilan siqilishga mustahkamlik pasayish tendensiyasi kuzatildi: nazorat namunasida 6,2 ± 0,2 MPa, Tarkib-1 da 5,4 ± 0,3 MPa, Tarkib-2 da esa 3,7 ± 0,2 MPa. Tarkib-1 ko‘rsatkichi GOST 31189-2015 bo‘yicha talab qilinadigan 5,0 MPa chegarasida, Tarkib-2 esa bu chegaradan past. Mustahkamlikning kamayishi cho‘kindi jinslar kiritilishi bilan sement gidratatsion mahsulotlari (C–S–H, C–A–H) hosil bo‘lish zichligining pasayishi bilan izohlanadi [2]. Biggs va boshq. [2] o‘xshash tajribada 12 % cho‘kindi qo‘shilganda 5,1 MPa natija olgan — bu bizning Tarkib-1 ko‘rsatkichiga yaqin.

Adgeziya. Tarkib-1 ning adgeziya qiymati 1,1 ± 0,1 MPa bo‘lib, nazorat namunasi bilan teng darajada. Bu natija polimer dispersiya va mayda fraksiyali cho‘kindi zarrachalarining sirt bilan to‘liq kontaktini ta'minlaganligi bilan tushuntiriladi. Tarkib-2 da adgeziya 0,9 ± 0,1 MPa ga tushgan — me'yor chegarasidan ozgina past. Alyamac va Ince [4] o‘z tadqiqotlarida 15 % gacha cho‘kindi qo‘shilganda adgeziya 1,0–1,2 MPa oralig‘ida saqlanganini ko‘rsatgan.

Suv singdirish. Tarkib-1 ning suv singdirish ko‘rsatkichi 10,8 ± 0,4 % bo‘lib, nazorat namunasidan (11,5 %) past. Bu natija cho‘kindi jinslarning g‘ovak strukturasini qisman to‘ldirishi va sement matritsasining zichlashishi bilan izohlanadi [3]. Tarkib-2 da esa suv singdirish 13,2 ± 0,5 % gacha oshib, me'yor chegarasini (≤ 12,0 %) oshib ketdi.

Sovuqqa chidamlilik. Ikkala tajriba tarkibi ham ≥ 50 muzlash-erish tsikliga bardosh berdi — bu nazorat namunasining ko‘rsatkichidan (≥ 25 tsikl) ikki barobar yuqori. Bunday yaxshi natija cho‘kindi jinslar tarkibidagi alyumosilikat fazalarining gidratatsion struktura bilan mustahkam kimyoviy bog‘lanishi natijasida erishildi. Colangelo va boshq. [3] ham shunga o‘xshash mexanizmni tasvirlab, sovuqqa chidamlilik oshishini SiO_2 va Al_2O_3 ning aktiv ishtiroki bilan bog‘lagan.

Bug‘ o‘tkazuvchanlik va sirt silliqligi. Barcha uch tarkib bug‘ o‘tkazuvchanlik bo‘yicha EN ISO 12572:2016 me'yor diapazoniga (0,20–0,30

ISSN 3030-3907

mg/(m·h·Pa)) to‘liq mos keldi. Sirt silliqligi bo‘yicha Tarkib-1 (Ra = 1,6 ± 0,1 μm) nazorat namunasidan (1,8 ± 0,1 μm) yaxshiroq natija ko‘rsatdi, bu fasadning estetik ko‘rinishi uchun afzallik hisoblanadi.

XULOSA.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida to‘qimachilik sanoati oqova suvlaridan hosil bo‘lgan cho‘kindi jinslar (CaO - 65,4 %, SiO_2 - 12,8 %, Al_2O_3 - 4,95 %) fasad shpaklyovka tarkibida aktiv mineral komponent sifatida qo‘llash uchun kimyoviy jihatdan yaroqli ekani aniqlandi. Cho‘kindi ulushi 10 % bo‘lganda siqilishga mustahkamlik (5,4 ± 0,3 MPa), adgeziya (1,1 ± 0,1 MPa), suv singdirish (10,8 ± 0,4 %) va sovuqqa chidamlilik (≥ 50 tsikl) kabi asosiy ko‘rsatkichlar amaldagi standartlarga to‘liq javob berib, Ceresit CT-225 sanoat analogi bilan raqobatbardosh natijalar ko‘rsatdi. Cho‘kindi miqdorini 20 % ga oshirish esa material xossalarining yomonlashishiga olib keladi, shu sababli optimal diapazon 10–15 % deb belgilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamza M., Seghir N.T., Guettala S. Valorization of textile sludge as a supplementary cementitious material // Journal of Building Engineering. – 2022. – Vol. 45. – Art. 103562. – DOI: 10.1016/j.jobe.2021.103562.
2. Biggs T., Dyson J., Bhattacharya S. Pozzolanic activity of textile effluent treatment sludge in cementitious systems // Construction and Building Materials. – 2021. – Vol. 269. – Art. 121318. – DOI: 10.1016/j.conbuildmat.2020.121318.
3. Colangelo F., Cioffi R., Montagnaro F., Santoro L. Soluble salt removal from MSWI fly ash and its use as supplementary cementitious material // Waste Management. – 2012. – Vol. 32. – P. 1179–1185. – DOI: 10.1016/j.wasman.2011.12.013.
4. Alyamac K.E., Ince R. A preliminary concrete mix design for RCA concrete based on the properties of fractions of RCA // Construction and Building Materials. – 2009. – Vol. 23. – P. 1784–1791.
5. Siddiqui M.A., Maurya A.K., Ansari M.A. Utilization of textile sludge as partial replacement of cement in mortar mixes // Construction and Building Materials.– 2022.–Vol.342.–Art.127982.–DOI: 0.1016/j.conbuildmat.2022.127982.
6. Taylor H.F.W. Cement Chemistry. 2nd ed. – London: Thomas Telford, 1997. – 459 p.
7. Hartal O., Madinzi A., Rifi S.K. Optimization of coagulation-flocculation for wastewater from vegetable oil refineries // Environmental and Molecular Mutagenesis. – 2024. – Art. 100957. – DOI: 10.1016/j.enmm.2024.100957.
8. Neville A.M. Properties of Concrete. 5th ed. – Harlow: Pearson Education, 2011. – 846 p.

ISSN 3030-3907

9. Назаров С. И. Получение крахмалофосфата и загусток на его основе //Ученый XXI века. – 2016. – №. 2-3.
10. Назаров С. И., Мухитдинова Х. С. Загустки на основе модифицированного крахмала и его применение при печатании //Вестник магистратуры. – 2017. – №. 2-1. – С. 23.
11. Amonov M. R. Nazarov S. I., Jumaev J. K., & Abdullaeva D. U. Physico-chemical properties of compositions based on natural and synthetic polymers //Technical Sciences. – 2015.
12. Nazarov S. I., Nurqulov F.N., Sharipov M.S., Ruziyev Y. B., & Nazarov N. I. Synthesis of oligomer based on sodium polysulfide and hydrolyzed ed-20 epoxy resin: structure and properties //Journal of Chemistry and Technologies. – 2025. – Т. 33. – №. 3. – С. 611-620.
13. Холов А. А. Файзиев, Ж. Б., Назаров, С. И., Назаров, Н. И. Изучение влияния концентрации модификатора на гидрофобные и антибактериальные свойства тканей //Universum: технические науки. – 2025. – Т. 8. – №. 10 (139). – С. 5-10.

ISSN 3030-3907

YER OSTI SUVLARINING FILTRATSIYA JARAYONLARINI BIR JINSLI BO‘LMAGAN KO‘P QATLAMLI G‘OVAK MUHITDA TASHQI OMILLAR TA’SIRINI HISOBGA OLGAN HOLDA MODELLASHTIRISH

Adizova Fotima Ma’ruf qizi

Buxoro Davlat universiteti Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalari kafedrasi tayanch doktoranti

E-mail: adizovafotima571@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bir jinsli bo‘lmagan ko‘p qatlamli g‘ovak muhitda yer osti suvlarining filtratsiya jarayonlarini modellashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotning dolzarbligi tabiiy-geologik qatlamlarning fizik xossalari turlicha bo‘lishi hamda yog‘in, bug‘lanish, infiltratsiya va gidravlik bosim kabi tashqi omillarning filtratsiya rejimiga sezilarli ta’siri bilan izohlanadi. Ishda ko‘p qatlamli muhit uchun ikki o‘lchovli matematik model taklif qilinib, unda o‘tkazuvchanlik koeffitsienti, g‘ovaklilik va piezoo‘tkazuvchanlik parametrlari qatlamlar bo‘yicha o‘zgaruvchan deb qabul qilindi. Masalani sonli yechish uchun chekli ayirmali sxema asosida algoritm ishlab chiqildi. Hisoblash tajribalari tashqi yuklamalar o‘zgarishi, qatlamlararo farqlar va chegaraviy shartlar filtratsiya tezligi hamda bosim maydoniga qanday ta’sir ko‘rsatishini ochib berdi. Tadqiqot natijalari gidrogeologik prognozlash, sug‘oriladigan hududlar holatini baholash va yer osti suvlaridan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: yer osti suvlari, filtratsiya, g‘ovak muhit, ko‘p qatlamli muhit, matematik modellashtirish, tashqi omillar, chekli ayirmali usul, gidrogeologiya.

Аннотация. В статье рассматривается задача моделирования процессов фильтрации подземных вод в неоднородной многослойной пористой среде с учетом влияния внешних факторов. Актуальность исследования обусловлена различием физических свойств природно-геологических слоев, а также существенным воздействием осадков, испарения, инфильтрации и гидравлического давления на фильтрационный режим. В работе предложена двумерная математическая модель для многослойной среды, где коэффициенты проницаемости, пористости и пьезопроводности считаются переменными по слоям. Для численного решения задачи разработан алгоритм на основе конечно-разностной схемы. Результаты вычислительных экспериментов показали влияние внешних нагрузок, межслойных различий и граничных условий на поле давления и скорость фильтрации. Полученные результаты могут быть использованы при гидрогеологическом

ISSN 3030-3907

прогнозировании, оценке состояния орошаемых территорий и рациональном использовании подземных водных ресурсов.

Ключевые слова: подземные воды, фильтрация, пористая среда, многослойная среда, математическое моделирование, внешние факторы, конечно-разностный метод, гидрогеология

Abstract. This article considers the problem of modeling groundwater filtration processes in a heterogeneous multilayer porous medium under the influence of external factors. The relevance of the study is explained by the variability of physical properties across geological layers and by the significant impact of precipitation, evaporation, infiltration, and hydraulic loading on the filtration regime. A two-dimensional mathematical model is proposed for the multilayer medium, where permeability, porosity, and piezoconductivity are assumed to vary by layer. A numerical algorithm based on a finite-difference scheme is developed for solving the problem. Computational experiments reveal how external loads, interlayer contrasts, and boundary conditions affect the pressure field and filtration velocity. The obtained results are useful for hydrogeological forecasting, assessment of irrigated territories, and rational groundwater management.

Keywords: groundwater, filtration, porous medium, multilayer medium, mathematical modeling, external factors, finite-difference method, hydrogeology

KIRISH.

Yer osti suvlarining harakati va filtratsiya jarayonlarini to‘g‘ri baholash suv resurslarini boshqarish, meliorativ holatni nazorat qilish, qurilish xavfsizligini ta’minlash va ekologik monitoringni tashkil etishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ko‘p qatlamli va bir jinsli bo‘lmagan g‘ovak muhitlarda suv oqimining xatti-harakati ancha murakkab bo‘lib, qatlamlarning fizik-mexanik xossalari, geologik tuzilishi hamda tashqi ta’sir omillari bilan belgilanadi.

Amaliyotda ko‘plab hududlarda tuproq va tog‘ jinslari bir xil emas, balki turli o‘tkazuvchanlikka, g‘ovaklilikka va suv sig‘imiga ega bo‘lgan qatlamlardan tashkil topgan. Bunday sharoitda atmosfera yog‘inlari, sirtqi suvlarning sizib kirishi, irrigatsion yuklama, bug‘lanish, drenaj tarmoqlari va bosim chegaralari yer osti suvlarining filtratsion rejimini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Shu sababli bunday muhit uchun real sharoitga yaqin matematik model yaratish gidrogeologik prognozlashning muhim vazifalaridan biridir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi bir jinsli bo‘lmagan ko‘p qatlamli g‘ovak muhitda tashqi omillar ta’sirini hisobga olgan holda yer osti suvlarining filtratsiya jarayonini ifodalovchi matematik modelni ishlab chiqish, uni sonli usul asosida yechish va asosiy parametrlarning jarayon dinamikasiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

ISSN 3030-3907

Ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, taklif etilgan modelda filtratsiya muhiti qatlamlar bo‘yicha o‘zgaruvchan parametrlarga ega deb qaraladi, tashqi ta’sirlar esa vaqt va fazoga bog‘liq manba hadlari hamda chegaraviy shartlar orqali ifodalanadi. Bu esa real gidrogeologik tizimlarning murakkabligini nisbatan to‘liq aks ettirishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

G‘ovak muhitlarda suyuqlik harakatini tavsiflashga oid fundamental yondashuvlar Darcy qonuni va filtratsiyaning differensial tenglamalariga asoslanadi. Ushbu yo‘nalishning nazariy poydevori klassik gidrogeologik ishlarda keng yoritilgan [1]-[3]. Darcy qonuni asosida yer osti suvlarining bosim gradienti ta’siridagi harakati tavsiflanadi va keyinchalik bu yondashuv ko‘p qatlamli hamda anizotrop muhitlar uchun umumlashtirilgan.

Yer osti suvlari oqimini modellashtirish masalalari Freeze va Cherry, de Marsily hamda Bear tomonidan batafsil o‘rganilgan bo‘lib, ularda qatlamlarning fizik xossalari, bosim sathi dinamikasi va chegaraviy shartlarning ta’siri chuqur tahlil qilingan [2]-[4]. Mazkur manbalarda filtratsiya jarayonlari bir jinsli muhit uchun ancha sodda ko‘rinishda qaralgan bo‘lsa-da, keyingi tadqiqotlarda ko‘p qatlamli va bir jinsli bo‘lmagan tuzilmalar uchun murakkab modellar taklif etilgan.

Ko‘p qatlamli suvli gorizontlarda oqim masalalari Hantush va Jacob ishlarida bosimli hamda yarim bosimli qatlamlar uchun tahlil qilingan [5]. Ularning natijalari qatlamlararo almashinuv va bosimning vaqt bo‘yicha tarqalishini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Theis modeli esa quduq atrofidagi bosim pasayishini baholashda klassik yechim sifatida keng qo‘llanadi [6].

Namlanmagan va qisman to‘yingan g‘ovak muhitlarda suyuqlik harakatini tavsiflash uchun Richards tenglamasi muhim o‘rin tutadi [7]. Ushbu yondashuv infiltratsiya, bug‘lanish va sirtqi yuklama kabi tashqi omillarni hisobga olish uchun qulay nazariy asos yaratadi. Zamonaviy sonli modellashtirish ishlarida esa MODFLOW kabi dasturiy paketlar keng qo‘llanib, geologik qatlamlarning notekisligi va murakkab chegara shartlarini hisobga olish imkoniyati kengaygan [8].

So‘nggi yillarda ko‘p qatlamli g‘ovak muhitlar uchun sonli usullarning samaradorligi, ayniqsa chekli ayirmali va chekli elementli yondashuvlar doirasida keng tadqiq etilmoqda [8]-[11]. Bu tadqiqotlarda asosiy e’tibor heterogen parametrlarni diskret muhitda to‘g‘ri ifodalash, hisoblash turg‘unligini ta’minlash va model natijalarini real dala ma’lumotlariga moslashtirishga qaratilgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud ishlarda ko‘pincha ayrim tashqi omillar alohida ko‘rib chiqilgan, biroq ko‘p qatlamli bir jinsli bo‘lmagan muhitda ularning

ISSN 3030-3907

kompleks ta’sirini hisobga oluvchi soddalashtirilgan va amaliyotga yo‘naltirilgan modellar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Masalaning qo‘yilishi. Filtratsiya jarayoni ikki o‘lchovli sohada qaraladi. Muhit N ta qatlamdan iborat bo‘lib, har bir qatlam uchun filtratsiya koeffitsienti, g‘ovaklilik va piezoo‘tkazuvchanlik turlicha bo‘ladi. Tashqi omillar sifatida atmosfera yog‘inlari, infiltratsiya, bug‘lanish, sug‘orish yuklamasi, drenaj va tashqi gidravlik bosim hisobga olinadi.

Matematik model. Yer osti suvlari bosim funksiyasi $h(x,y,t)$uchun umumlashgan filtratsiya tenglamasi qabul qilinadi:

$$S(x,y)\frac{\partial h}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x}\left(k_x(x,y)\frac{\partial h}{\partial x}\right) + \frac{\partial}{\partial y}\left(k_y(x,y)\frac{\partial h}{\partial y}\right) + q(x,y,t).$$

Bu yerda h - piezometrik bosim, S - elastik sig‘im koeffitsienti, k_x va k_y - mos ravishda x va y yo‘nalishlaridagi filtratsiya koeffitsientlari, q esa tashqi manba yoki yutuvchi hadni bildiradi.

Ko‘p qatlamli muhit uchun parametrlar qatlamlar bo‘yicha bo‘lakli-o‘zgarmas funksiyalar sifatida olinadi. Manba had yog‘in va infiltratsiya, bug‘lanish, sun’iy to‘yintirish va drenaj hadlarining algebraik yig‘indisi ko‘rinishida ifodalanadi.

Boshlang‘ich va chegaraviy shartlar. Boshlang‘ich shart sifatida $h(x,y,0)= h_0(x,y)$ olinadi. Chegaralarda Dirixle, Neyman va Robin tipidagi shartlar qo‘llanadi. Bu yondashuv ochiq gidravlik chegara, suv oqimi bo‘yicha berilgan oqim hamda tashqi muhit bilan almashinuvni ifodalash imkonini beradi.

Sonli yechim usuli. Hisoblash uchun soha fazo-vaqt to‘riga ajratiladi va tenglamaning chekli ayirmali analogi quriladi. Turg‘unlikni ta’minlash maqsadida yashirin yoki yarim yashirin sxemadan foydalaniladi. Har bir vaqt qatlamida hosil bo‘ladigan chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi iteratsion usullar bilan yechiladi.

Tadqiqot algoritmi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: ko‘p qatlamli sohaning geometrik va fizik parametrlari beriladi; tashqi omillar uchun vaqtga bog‘liq yuklama funksiyalari aniqlanadi; boshlang‘ich va chegaraviy shartlar tanlanadi; diskret model tuziladi; har bir vaqt bosqichida bosim maydoni hisoblanadi; natijalar filtratsiya tezligi va qatlamlararo oqim bo‘yicha tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

ISSN 3030-3907

Hisoblash tajribalarida uch qatlamli g‘ovak muhit qaraldi. Yuqori qatlam nisbatan yuqori o‘tkazuvchanlikka, o‘rta qatlam past o‘tkazuvchanlikka, quyi qatlam esa o‘rtacha filtratsion xossalarga ega deb olindi. Tashqi omil sifatida vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan infiltratsiya yuklamasi hamda drenaj chegarasi kiritildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, qatlamlarning filtratsiya koeffitsientlari o‘rtasidagi farq katta bo‘lganda gidravlik bosim maydoni keskin notekis shakllanadi. Ayniqsa, past o‘tkazuvchan o‘rta qatlam suv oqimini sekinlashtirib, yuqori qatlamda lokal bosim ortishiga sabab bo‘ladi. Bu holat suvning ayrim zonalarda yig‘ilishiga va sizot suvlari sathining ko‘tarilishiga olib kelishi mumkin.

Infiltratsiya intensivligi oshirilganda model natijalari bosim sathi tez ko‘tarilishini ko‘rsatdi. Biroq bu ko‘tarilish barcha qatlamlarda bir xil emas. O‘tkazuvchanligi yuqori qatlamlarda bosim o‘zgarishi tezroq uzatiladi, o‘tkazuvchanligi past qatlamlarda esa sekin kechadi. Demak, ko‘p qatlamli muhitda tashqi yuklama ta’siri qatlamlarning filtratsion kontrasti bilan sezilarli ravishda kuchayadi.

Bug‘lanish va drenaj omillari hisobga olinganda tizimda muvozanatlashuvchi rejim kuzatildi. Drenaj quvvati yetarli bo‘lganda bosim sathi pasayadi va yuqori namlanish xavfi kamayadi. Ammo drenaj yetarli bo‘lmaganda yoki tashqi infiltratsiya yuklamasi kuchli bo‘lganda, suv zaxirasining ortishi davom etadi.

Modelning amaliy ahamiyati shundaki, u irrigatsion hududlarda sizot suvlari sathining ko‘tarilish xavfi, ko‘p qatlamli geologik muhitda suvning qayta taqsimlanishi, drenaj tizimlarining yetarlilik darajasi va texnogen yuklamaning gidrogeologik muhitga ta’sirini oldindan baholash imkonini beradi.

1-jadval

Tashqi omillar va qatlam parametrlarining filtratsiya jarayoniga ta’siri.

№	Parametr	O‘zgarish	Natijaga ta’siri
1	Infiltratsiya intensivligi qr	Oshishi	Bosim sathi ko‘tariladi, suv oqimi kuchayadi
2	Bug‘lanish qe	Oshishi	Namlik kamayadi, sath pasayadi
3	Drenaj qd	Oshishi	Ortiqcha suv chiqariladi, barqarorlashuv kuzatiladi
4	Filtratsiya koeffitsienti k	Oshishi	Oqim tezlashadi, bosim gradienti kamayadi
5	Qatlamlar kontrasti	Oshishi	Lokal to‘planish va notekis taqsimot kuchayadi

ISSN 3030-3907

Modelni yanada rivojlantirish uchun kelgusida uch o‘lchovli holat, nolinear filtratsiya, namlik-bosim bog‘lanishi va real dala kuzatuv ma’lumotlari asosida identifikatsiya masalalarini qo‘shish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Mazkur maqolada bir jinsli bo‘lmagan ko‘p qatlamli g‘ovak muhitda tashqi omillar ta’sirini hisobga olgan holda yer osti suvlarining filtratsiya jarayonlarini modellashtirish masalasi ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot asosida ko‘p qatlamli va bir jinsli bo‘lmagan muhitlarda filtratsiya jarayoni qatlamlarning fizik xossalari farqi sababli sezilarli darajada murakkablashishi aniqlandi. Tashqi omillar, xususan infiltratsiya, bug‘lanish, drenaj va gidravlik yuklama bosim maydonining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynashi ko‘rsatildi.

Taklif etilgan matematik model va chekli ayirmali sonli algoritm ko‘p qatlamli muhitda bosim sathi dinamikasini hisoblash uchun qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi. Hisoblash tajribalari past o‘tkazuvchan qatlamlar suvning lokal yig‘ilishiga sabab bo‘lishini, yuqori o‘tkazuvchan qatlamlar esa tashqi ta’sirni tez uzatishini ko‘rsatdi.

Mazkur yondashuv gidrogeologik prognozlash, meliorativ monitoring va drenaj tizimlarini loyihalashda qo‘llanishi mumkin. Taklif sifatida real hududlar uchun model parametrlarini eksperimental va kuzatuv ma’lumotlari yordamida aniqlashtirish, GIS texnologiyalari bilan integratsiya qilish hamda uch o‘lchovli nolinear modellar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Darcy H. Les fontaines publiques de la ville de Dijon. Paris: Dalmont, 1856.
2. Bear J. Dynamics of Fluids in Porous Media. New York: Elsevier, 1972.
3. Freeze R.A., Cherry J.A. Groundwater. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1979.
4. de Marsily G. Quantitative Hydrogeology: Groundwater Hydrology for Engineers. Orlando: Academic Press, 1986.
5. Hantush M.S., Jacob C.E. Non-steady radial flow in an infinite leaky aquifer. Transactions of the American Geophysical Union, 1955, 36(1), pp. 95-100.
6. Theis C.V. The relation between the lowering of the piezometric surface and the rate and duration of discharge of a well using groundwater storage. Transactions of the American Geophysical Union, 1935, 16, pp. 519-524.
7. Richards L.A. Capillary conduction of liquids through porous mediums. Physics, 1931, 1(5), pp. 318-333.
8. Harbaugh A.W. MODFLOW-2005, The U.S. Geological Survey Modular Ground-Water Model: the Ground-Water Flow Process. Reston: U.S. Geological Survey, 2005.

ISSN 3030-3907

9. Anderson M.P., Woessner W.W., Hunt R.J. Applied Groundwater Modeling: Simulation of Flow and Advective Transport. 2nd ed. San Diego: Academic Press, 2015.
10. Wang H.F., Anderson M.P. Introduction to Groundwater Modeling: Finite Difference and Finite Element Methods. San Diego: Academic Press, 1982.
11. Bear J., Cheng A.H.-D. Modeling Groundwater Flow and Contaminant Transport. Dordrecht: Springer, 2010.
12. Fetter C.W. Applied Hydrogeology. 4th ed. Upper Saddle River: Prentice Hall, 2001.

ISSN 3030-3907

INSON ORGANIZMIGA KUMUSH ASOSIDAGI BIRIKMALARNING FIZIOLOGIK TA’SIRI.

Fayzullayeva Malikabonu.
SamDTU Pediatriya fakulteti 115-guruh talabasi
G‘aniyeva Oftoboy.
SamDTU Pediatriya fakulteti 115-guruh talabasi
Aktamova Umida.
SamDTU Pediatriya fakulteti 115-guruh talabasi
Abduqayumova Nodira
SamDTU Davolash ishi fakulteti 101-guruh talabasi
Abduhakimova Feruza
SamDTU Davolash ishi fakulteti 101-guruh talabasi
Haydarova Dilnura
SamDTU Davolash ishi fakulteti 101-guruh talabasi
Dusmuratov Maqsud Mansurovich
SamDTU tibbiy kimyo assistenti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada kumush (Ag) va uning birikmalarining tirik organizmlar, xususan, inson organizmidagi biologik ahamiyati, ta’sir mexanizmlari, terapevtik qo‘llanilishi hamda potensial toksikologik jihatlari tahlil qilinadi. Kumush ionlarining antimikrob xususiyatlari, immun tizimga ta’siri, tibbiyot va biotexnologiyada qo‘llanishi zamonaviy ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, kumush birikmalarining ortiqcha miqdorda ta’sir etishi bilan bog‘liq xavf va cheklovlar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: kumush, kumush ionlari, antimikrob ta’sir, biologik faol modda, toksikologiya.

Аннотация. В данной научной статье анализируется биологическое значение серебра (Ag) и его соединений в живых организмах, в частности в организме человека, механизмы их воздействия, терапевтическое применение, а также потенциальные токсикологические аспекты. Антимикробные свойства ионов серебра, их влияние на иммунную систему, применение в медицине и биотехнологии освещаются на основе современных научных источников. Кроме того, обсуждаются риски и ограничения, связанные с воздействием соединений серебра при их избыточном поступлении в организм.

Ключевые слова: серебро, ионы серебра, антимикробное действие, биологически активное вещество, токсикология.

Abstract. This scientific article analyzes the biological significance of silver (Ag) and its compounds in living organisms, particularly in the human body, their mechanisms of action, therapeutic applications, and potential toxicological aspects. The antimicrobial properties of silver ions, their effects on the immune system, and their use in medicine and biotechnology are discussed based on modern scientific

ISSN 3030-3907

sources. In addition, the risks and limitations associated with excessive exposure to silver compounds are examined.

Keywords: silver, silver ions, antimicrobial activity, biologically active substance, toxicology.

KIRISH.

Kumush qadim zamonlardan buyon insoniyat tomonidan turli maqsadlarda, jumladan, bezak buyumlari, tanga pullar, idish-tovoqlar va davolash vositalari sifatida qo‘llanib kelinadi. Kimyoviy element sifatida kumush davriy jadvalda Ag belgisi bilan ifodalanadi va o‘ziga xos fizik-kimyoviy xossalarga ega. So‘nggi o‘n yilliklarda kumushning biologik faoliyati, ayniqsa, uning ionlari va nanozarrachalari organizmga ta’siri ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Organizmdagi mikroorganizmlarga qarshi samarali ta’siri tufayli kumush birikmalari tibbiyot, farmatsiya va sanitariya sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, kumush inson organizmi uchun muhim mikroelementlar qatoriga kirmasada, uning ma’lum sharoitlarda biologik jarayonlarga ta’siri mavjud. Ushbu maqolada kumush birikmalarining organizmdagi ahamiyati kompleks yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi.

Kumushning fizik-kimyoviy xususiyatlari

Kumush yumshoq, oson egiluvchan va yuqori elektr hamda issiqlik o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan metall hisoblanadi. Biologik tizimlarda asosan kumush ionlari (Ag^+) va turli kompleks birikmalar shaklida uchraydi. Aynan Ag^+ ionlari kumushning biologik faolligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Kumush ionlari oqsillar, fermentlar va nuklein kislotalar bilan bog‘lanish xususiyatiga ega. Bu bog‘lanishlar hujayra ichidagi muhim biokimyoviy jarayonlarning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli kumush ionlari ko‘plab mikroorganizmlar uchun halokatli hisoblanadi.

Kumush birikmalarining antimikrob ta’siri

